

VOLUME #3
ISSUE#5,
MAY 2025



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

31.05.2025-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 5-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 3, Issue 5, May 2025

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

PRAGMATIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI VA NASRIY MATNLARNI O'RGANISH IMKONIYATLARI

Turdimurodova Avazgul Xolto'ra qizi

Oltinsoy tumani 23-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada pragmatik tahlilning nazariy asoslari va nasriy matnlarni o'rganishdagi metodologik imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Pragmatikaning asosiy tamoyillari, matnni kontekst va kommunikativ vazifalar doirasida tahlil qilish usullari yoritiladi. Nasriy matnlarda mavjud pragmatik birliklarning shakllanishi, ularning tahlil usullari va tadqiqotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy adabiy jarayonda pragmatik yondashuvning ahamiyati va istiqbollari aniqlanadi.

Kalit so'zlar. Pragmatik tahlil, nazariy asoslar, nasriy matn, kommunikativ vazifa, semantik tahlil, diskurs, kontekst, nutq aktlari.

Abstract

This article examines the theoretical foundations of pragmatic analysis and methodological possibilities in the study of prose texts. The main principles of pragmatics, methods of analyzing the text within the context and communicative tasks are highlighted. The formation of pragmatic units in prose texts, their methods of analysis and significance in research are analyzed. The significance and prospects of the pragmatic approach in the modern literary process are also determined.

Keywords. Pragmatic analysis, theoretical foundations, prose text, communicative task, semantic analysis, discourse, context, speech acts.

KIRISH

Pragmatika tili amalda ishlatish, muloqot jarayonida yuzaga keladigan ma'no va maqsadlarni tahlil qiluvchi lingvistik sohadir. Pragmatik tahlil til birliklarining an'anaviy semantik qirrasidan tashqari, ularning muloqotdagi funktsional yukini aniqlashga yordam beradi. Nasriy matnlar esa murakkab kommunikativ birlik sifatida pragmatik tahlil uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu tahlil orqali matnning chuqur semantik qatlamlari va yashirin kommunikativ niyatlari ochib beriladi.

Nasriy matnlarni o'rganishda pragmatik yondashuv matn muallifining niyati, o'quvchi kutgan natija va ularning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratiladi. Matn muallifi va auditoriya o'rtasidagi pragmatik ko'prikn aniqlash orqali matnning asl ma'nosini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi. Bunda kontekstual va kommunikativ omillar tahlilning asosiy tayanch nuqtalaridan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda nasriy matnlar pragmatik jihatdan nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixolingvistika nuqtayi nazaridan ham o'rganilmoqda.

Nasriy matnlarda pragmatik tahlil o'ziga xos strategiyalar va uslublar orqali amalga oshiriladi. Bu strategiyalar orasida kontekstni tahlil qilish, nutq aktlarini aniqlash va diskursiv yondashuvlar asosiy o'rin tutadi. Har bir metod matnning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tanlanadi va qo'llaniladi. Shu bois, nasriy matnlarning ko'p qirraliligi pragmatik tahlilni yanada murakkab va chuqur tadqiqotni talab qiladigan soha sifatida ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pragmatika sohasida K. Levinson, S. C. Levinson, D. Vunderlich va J. L. Ostin kabi olimlarning ishlari katta ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlari til va muloqot o'rtasidagi bog'liqlikni, gaplovchi va tinglovchi intensionlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yoritib beradi. Xususan, Ostin tomonidan ilgari surilgan "nutq aktlari nazariyasi" pragmatik tahlilning asosiy nazariy asosini tashkil qiladi.

Searle esa nutq aktlari tasnifini ishlab chiqdi va muloqotdagi maqsadlarning pragmatik mexanizmlarini ochib berdi. Bu nazariyalar nasriy matnlarning nutqiy hodisa sifatidagi qirralarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy asarlarni pragmatik tahlil qilishda G. Graysning "hamkorlik prinsipi" va "implicatura" tushunchalari asosiy metodik ko'rsatkichlar sifatida ishlatiladi. Ushbu yondashuvlar o'quvchi va muallif o'rtasidagi yashirin aloqalarni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Mahalliy adabiyotlarda esa O'zbekistonlik tilshunos olimlar tomonidan ham pragmatika masalalari o'rganilgan. Jumladan, R. J. Jalilov, D. Oripov va B. Jo'rayevlarning ishlarida nasriy matnning kommunikativ xususiyatlari tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari, asosan, adabiy tilda ifodalanadigan pragmatik birliklarning identifikatsiyasiga qaratilgan. Shu tarzda, ilmiy manbalarda pragmatika va nasriy matnlar tahliliga oid izlanishlar kengayib bormoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslikda internet matnlari va elektron kommunikatsiya vositalari orqali shakllangan nasriy birliklarning pragmatik jihatlari

ham alohida o'rganilmoqda. Bu holat nasriy matnlarni zamonaviy kommunikatsiya muhitida tahlil qilishning dolzarbligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotda nasriy matnlarni pragmatik tahlil qilish uchun kompleks metodik yondashuv qo'llanildi. Birinchidan, kontekstual tahlil orqali matnni uning yuzaga kelgan ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitida o'rganish amalga oshirildi. Bu uslub muallifning yashirin niyatlarini aniqlash va matnning konnotativ ma'nolarini ochib berishda yordam berdi.

Ikkinchidan, kommunikativ-pragmatik tahlil asosida gaplovchi va tinglovchi orasidagi muloqot strategiyalari tahlil qilindi. Bu metod yordamida matn ichidagi nutq aktlari, ularning illokutsiya va perlokutsiya qirralari aniqlab olindi. Bunday yondashuv, ayniqsa, dialogik shakldagi nasriy matnlarni o'rganishda muhim natijalar berdi.

Uchinchidan, diskursiv tahlil vositasida matn diskurs sifatida o'rganildi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liqligi aniqlab berildi. Diskursning tahlili orqali matnni nafaqat estetik asar sifatida, balki ijtimoiy nutq shakli sifatida baholash imkoniyati yaratildi. Shu tarzda, matn ijtimoiy, madaniy va g'oyaviy kontekstlarda tahlil qilindi.

Nihoyat, semantik-pragmatik metod yordamida til birliklarining ma'no qatlamlari va ularning kommunikativ yuklari tahlil qilindi. Bu metod orqali matn ichida mavjud bo'lgan yashirin semantik signallar va ularning o'quvchi bilan o'zaro ta'siri o'rganildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiyalar nasriy matnlarni kompleks ravishda yoritishga imkon berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, nasriy matnlar pragmatik tahlil uchun juda boy manba ekanligi tasdiqlandi. Ularda gaplovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar, yashirin maqsadlar va kommunikativ strategiyalar aniq ko'rinadi. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotlarda kommunikativ o'ziga xoslikning kuchayishi pragmatik tahlilning ahamiyatini oshirmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, nasriy matnlarda nutq aktlari (buyruq, taklif, so'roq) va ularning o'zaro kombinatsiyalari o'quvchi bilan muloqotni kuchaytiradi. Shuningdek, matnlardagi kontekstual signallar o'quvchi tomonidan to'g'ri talqin qilinsa, asarning to'liq kommunikativ samarasi yuzaga chiqadi. Shu bois, kontekst va intension tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

Diskursiv va semantik-pragmatik tahlillar natijasi sifatida, nasriy matnlar ichki ijtimoiy va g'oyaviy qatlamlarga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa, nasriy matnni faqat badiiy jihatdan

emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy asarlarda jamiyatdagi o'zgarishlar pragmatik belgilar orqali ifodalanmoqda.

Olingan natijalar asosida nasriy matnlarni tahlil qilishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurati asoslab berildi. Faqat semantik yoki sintaktik tahlil pragmatik o'ziga xoslikni to'liq ochib bera olmaydi. Shu bois, pragmatik, kommunikativ va diskursiv metodlarning uyg'un qo'llanishi optimal natijalar beradi.

Nasriy matnlarning pragmatik tahlili quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Matnning yaratilish maqsadini (muallif intensiyasini) aniqlash.
- Qabul qiluvchiga (o'quvchiga) ta'sir mexanizmlarini o'rganish.
- Matndagi yashirin ma'nolar va implikaturalarning ochilishi.
- Kontekst va intertekstual aloqalarni aniqlash.
- Matnning kommunikativ qadriyatlarini baholash.

Nasriy matn tahlilida quyidagi pragmatik omillar muhim o'rin tutadi: muallif va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, muloqot rejasi, nutq aktlari, kontekstual ko'rsatkichlar va qabul qiluvchi auditoriyaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari.

Asosiy pragmatik elementlar	Nasriy matndagi namoyon bo'lish shakli
Muallif intensiyasi	Personajlar harakati, syujet qurilishi
Qabul qiluvchi roli	Dialoglar, nutq o'zgarishlari orqali
Nutq aktlari	Buyruq, so'rov, va'da, iltimos shakllari
Kontekst	Voqea joyi, zamoni, madaniy kodlar
Implikatura	Yashirin ma'nolar, kinoya, ishora vositalari

XULOSA

Nasriy matnlarni pragmatik tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim o'rin tutmoqda. Pragmatik yondashuv matnning muloqotdagi rolini ochadi, yashirin ma'nolar va muallif intensionlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy o'zgaruvchan kommunikatsiya sharoitida bu tahlil yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nasriy matnlarni o'rganishda faqat grammatik yoki semantik qirralarni emas, balki pragmatik jihatlarni ham tahlil qilish kerak. Chunki aynan

pragmatik omillar matnning kommunikativ muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu yondashuv o'quvchiga matnni chuqurroq anglash va baholash imkonini beradi.

Kelgusida nasriy matnlar pragmatik tahlilini yanada kengaytirish, zamonaviy matnlar va elektron kommunikatsiya vositalaridagi pragmatik birliklarni o'rganish zarur. Ayniqsa, multimodal matnlarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish yangi ilmiy yo'nalishlar uchun asos bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, nasriy matnlarning pragmatik tahlili ilmiy-tadqiqot ishlarida yangicha metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Bu esa, til va adabiyot o'rganish sohasida yangi izlanishlarga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.
3. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation*. In *Syntax and Semantics*, Vol. 3. New York: Academic Press.
5. Jalilov, R. J. (2005). *Matn pragmatikasi va stilistikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Oripov, D. (2012). *Pragmatika va adabiy matn*. Toshkent: Universitet nashriyoti.

TALABALARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN IMMUNITET SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Barakaeva Nilufar Zubaydulla qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“Amaliy psixologiya kafedrası” assistenti.

nilufarbarakaeva07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada destruktiv axborotlarga qarshi immunitetni shakllantirishning psixologik determinantlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining tezligi va xilma-xilligi talabalarning psixologik holatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Destruktiv axborotlar, ya'ni salbiy, manipulyativ yoki zararli ma'lumotlar, yoshlarning fikrini, hissiyotlarini va xatti-harakatlarini o'zgartirishi mumkin. Talabalarning psixologik holati zamonaviy axborot oqimining tezligi va xilma-xilligi bilan bevosita bog'liq. Ushbu omillar, ularning hissiy holatiga, ijtimoiy aloqalariga va o'z-o'zini anglash jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, talabalarda destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetni shakllantirish va psixologik salomatlikni saqlash uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Kalit so'zlar: destruktiv axborot, psixologik immunitet, tanqidiy tafakkur, media savodxonligi, stressga chidamlilik.

Destruktiv axborot va uning ta'siri

Destruktiv axborot, asosan, yolg'on, manipulyativ yoki zararli ma'lumotlardan iborat bo'lib, inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday axborotlar:

1. Emotsional stress: Talabalarda xavotir, depressiya va boshqa ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.
2. Ijtimoiy izolyatsiya: Boshqalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar yaratishi va ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi mumkin.
3. O'z-o'zini qadrlash: O'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytirishi mumkin.

Destruktiv axborotlarga nisbatan immunitet shakllanishi talabalarning psixologik salomatligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu immunitetni shakllantiruvchi psixologik determinantlar quyidagilardan iborat:

- **Tanqidiy fikrlash:** Tanqidiy fikrlash, zamonaviy axborot jamiyatida muhim qobiliyatdir. Talabalar axborotni tahlil qilish, baholash va o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu, ularni manipulyativ yoki yolg'on ma'lumotlardan himoya qiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki shaxsiy va professional hayotda ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.
- **Axborot savodxonligi:** Axborot savodxonligi, talabalar uchun axborot manbalarini aniqlash va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, ishonchli va ishonchli bo'lmagan axborotlarni ajratishga yordam beradi. Axborot savodxonligini rivojlantirish, talabalarda destruktiv axborotlarga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.
- **Emotsional barqarorlik:** Emotsional barqarorlik, talabalar uchun stress va xavotirni boshqarish qobiliyatini oshiradi. Bu, ularni salbiy axborotlarga nisbatan kamroq ta'sirlanishga yordam beradi.
- **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:** Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, talabalar o'rtasida mustahkam aloqalar va muloqotlarni rivojlantirishga yordam beradi. Do'stlar, oila va o'qituvchilar tomonidan berilgan qo'llab-quvvatlash, stressni kamaytiradi va psixologik barqarorlikni oshiradi.
- **O'z-o'zini anglash:** O'z-o'zini anglash, talabalar o'z fikrlarini, qadriyatlarini va maqsadlarini aniq tushunishga yordam beradi. Bu, ularni o'z qarorlarida ishonchli bo'lishga va tashqi ta'sirlarga qarshi turishga undaydi.
- **Ijtimoiy mas'uliyat:** Ijtimoiy mas'uliyat hissi, talabalarni ijtimoiy masalalarga e'tibor berishga va o'z fikrlarini ifodalashga undaydi. Bu, ularni destruktiv axborotlarga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

- Resurslarni boshqarish: Talabalar o'z vaqtlarini, energiyalarini va hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Bu, stressni kamaytirishga va salbiy axborotlarga nisbatan immunitetni oshirishga yordam beradi.
- O'z-o'zini motivatsiya qilish: O'z-o'zini motivatsiya qilish qobiliyati, talabalarni o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan ichki kuchni topishga yordam beradi. Bu, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi.
- Psixologik elastiklik: Psixologik elastiklik, talabalar uchun qiyinchiliklarga duch kelganda moslashish va ulardan o'rganish qobiliyatini oshiradi. Bu, ularni salbiy axborotlarga qarshi kurashishda yanada mustahkam qiladi.

Immunitetni shakllantiruvchi psixologik determinantlar talabalarning psixologik salomatligini va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu determinantlar, talabalarni destruktiv axborotlarga qarshi kurashishda tayyorlaydi va ularning ruhiy barqarorligini oshiradi. Shuning uchun, o'qituvchilar va psixologlar bunday determinantlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishlari zarur.

Psixologik immunitet — bu shaxsning ruhiy salomatligini saqlab qolish va stressli, salbiy yoki destruktiv axborotlarga qarshi turish qobiliyatidir. Bu tushuncha, odamning psixologik resurslarini va ichki kuchini anglatadi, bu esa ularni qiyinchiliklarga, muammolarga va ijtimoiy bosimlarga qarshi kurashishda yordam beradi. Psixologik immunitet, shaxsning ruhiy salomatligini va stressga qarshi kurashish qobiliyatini ta'minlaydi. Buni rivojlantirish, talabalarning zamonaviy axborot oqimiga moslashuvchanligini oshiradi va ularni destruktiv axborotlarga nisbatan himoya qiladi.

Umuman olganda, talabalarda destruktiv axborotlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va ruhiy salomatligini ta'minlashda muhimdir. Ta'lim muassasalari va psixologlar, bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun samarali dasturlar va faoliyatlarni amalga oshirishi zarur. Talabalarda destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetni shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va ruhiy salomatligini ta'minlashda muhimdir. Axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, emotsional barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini anglash va psixologik elastiklik kabi

psixologik determinantlar, talabalarning bunday immunitetini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalari va psixologlar, bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun samarali dasturlar va faoliyatlarni amalga oshirish zarur. Bu, talabalarning zamonaviy axborot muhitida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi va ularning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W.H. Freeman. O'z-o'zini anglash va o'z qobiliyatlariga ishonchni oshirish haqida.
2. Dewey, J. (1933). *How We Think*. Boston: D.C. Heath and Company. Tanqidiy fikrlash va uning ta'limdagi ahamiyati.
3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books. Emotsional barqarorlik va uning ruhiy salomatlikka ta'siri
4. Pew Research Center (2017). *The Future of Free Speech, Trolls, Anonymity and Fake News Online*. Destruktiv axborotlar va ijtimoiy media ta'siri.
5. Tversky, A., & Kahneman, D. (1974). *Judgment Under Uncertainty: Heuristics and Biases*. *Science*, 185(4157), 1124-1131. Axborotni baholashda mantiqiy xatolar va ularning ta'siri.
6. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux. Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlari.
7. Meyer, B. (2014). *Social Support and Mental Health: A Review of the Literature*. *Journal of Health Psychology*, 19(4), 501-511. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uning ruhiy salomatlikka ta'siri.
8. Hollis, F. (2018). *The Psychology of Misinformation: How to Combat Fake News*. *Psychological Science in the Public Interest*, 19(1), 1-20. Destruktiv axborotlar va ularni bartaraf etish usullari.
9. Chaffee, S. H., & Metzger, M. J. (2001). *The End of Mass Communication? Mass Communication & Society*, 4(1), 3-22. Axborot savodxonligi va ommaviy axborot vositalarining roli.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА

Баймирзаева Рузигуль Нурматовна

Тьютор Термезского Государственного Университета факультета экономики

Аннотация

В статье рассматриваются основные направления повышения эффективности использования туристско-рекреационного потенциала Сурхандарьинской области. Актуальность исследования обусловлена уникальными природными, культурными и историческими ресурсами региона, которые пока недостаточно используются для устойчивого туристического развития. Проанализированы текущие проблемы, выявлены приоритетные меры по их устранению, предложены практические рекомендации по повышению туристической привлекательности региона.

Ключевые слова: туризм, рекреационный потенциал, Сурхандарья, устойчивое развитие, экотуризм, культурное наследие.

Abstract

The article discusses the main directions for increasing the efficiency of using the tourism and recreational potential of the Surkhandarya region. The relevance of the study is due to the unique natural, cultural and historical resources of the region, which are still underused for sustainable tourism development. Current problems are analyzed, priority measures for their elimination are identified, and practical recommendations for increasing the tourist attractiveness of the region are proposed.

Keywords: tourism, recreational potential, Surkhandarya, sustainable development, ecotourism, cultural heritage.

Введение

Туризм играет важную роль в социально-экономическом развитии регионов, стимулируя создание рабочих мест, развитие инфраструктуры и привлечение инвестиций. Сурхандарьинская область обладает значительным туристско-рекреационным потенциалом благодаря уникальному климату, богатому биоразнообразию, памятникам древности и этнокультурным особенностям.

Однако, несмотря на высокий потенциал, туристическая отрасль региона развивается медленно, что требует анализа причин и поиска путей повышения эффективности её использования.

Целью данной статьи является выявление факторов, сдерживающих развитие туризма в Сурхандарьинской области, а также разработка предложений по их устранению.

Исследование направлено на поддержку концепции устойчивого и сбалансированного использования природных и культурных ресурсов региона.

Обзор литературы

Вопросы развития регионального туризма активно исследуются как отечественными, так и зарубежными учёными. Исследования подчёркивают необходимость интеграции туристской деятельности в региональные программы социально-экономического роста.

По мнению М.Ш. Шарипова, основой эффективного использования рекреационного потенциала является комплексная государственная стратегия. Ученые как А. Маматкулов и И. Абдурахмонов отмечают важность маркетингового продвижения и улучшения инфраструктуры.

Кроме того, согласно международным практикам, эффективное развитие туризма возможно при условии привлечения частных инвестиций и внедрения цифровых технологий в управление туристскими объектами. Тем не менее, специфика региона требует адаптированных решений, учитывающих климатические, историко-культурные и географические особенности.

Методология

В ходе исследования были использованы следующие методы:

- **Сравнительный анализ** — для сопоставления показателей развития туризма Сурхандарьинской области с другими регионами Узбекистана.
- **SWOT-анализ** — для оценки сильных и слабых сторон региона в туристической сфере.
- **Контент-анализ** нормативных документов и программ развития туризма Республики Узбекистан.
- **Социологические опросы** — для определения отношения местного населения и туристов к текущему состоянию отрасли.

Также проведены экспертные интервью с представителями туристических компаний и местных органов власти.

Результаты и обсуждение

Исследование показало, что основными проблемами, препятствующими эффективному использованию туристско-рекреационного потенциала региона, являются:

- Низкий уровень развития туристической инфраструктуры;
- Недостаток квалифицированных кадров в туристской отрасли;
- Ограниченное продвижение региона на международной арене;
- Нехватка инвестиций и современных сервисов.

При этом регион обладает рядом конкурентных преимуществ:

- Национальный парк "Сурхандарья", палеонтологические находки (Бойсун), горные маршруты, буддийское наследие (Фаязтепа);
- Богатая культура, включая фольклор и национальные ремёсла;
- Возможности развития экотуризма и агротуризма.

Предлагаемые пути повышения эффективности:

- Создание туристических кластеров и улучшение логистической доступности;
- Повышение уровня цифровизации услуг (онлайн-бронирование, мобильные гиды);
- Привлечение иностранных инвесторов и грантов в туристический сектор;
- Образовательные программы по подготовке туристических специалистов на базе местных ВУЗов.

Заключение

Таким образом, развитие туристско-рекреационного потенциала Сурхандарьинской области требует комплексного и стратегического подхода, включающего улучшение инфраструктуры, активную маркетинговую деятельность и усиление кадрового потенциала.

Особое внимание должно быть уделено сохранению природного и культурного наследия при увеличении туристического потока. Реализация предложенных мероприятий позволит не только укрепить экономику

региона, но и улучшить качество жизни местного населения за счёт создания рабочих мест и роста инвестиций.

Список литературы

1. Шарипов М.Ш. "Развитие туризма в Узбекистане: проблемы и перспективы". Ташкент, 2021.
2. Маматкулов А. "Региональный туризм и экономика", Журнал "Экономика и инновации", 2022.
3. Национальная стратегия по развитию туризма Узбекистана до 2030 года. Министерство туризма, 2020.
4. Abdurakhmanov I. "Regional tourism development in Central Asia", Tashkent University Press, 2021.
5. UNWTO Report: "Tourism and Sustainable Development", 2020.

**TA'LIM JARAYONIDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH.**

Egamnazarova Aziza

Guliston Davlat universiteti talabasi

Azimova Dilnovoz

Guliston Davlat universiteti talabasi

Xabibullayev Islomjon Nematulla o'gli

Guliston Davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası magistr-1 kurs

Yusufaliyev Olimjon Abduraxmonovich

PhD, Guliston davlat universiteti dotsenti, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqola darslarida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va dars jarayonida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, "Macro Media Flash", "GIF animation", "Microsoft Front Page"

Кирриш. Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash maqsadida ta'lim sohasiga alohida e'tibor berildi

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga bog'liq. Bu esa vatanimiz kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga e'tibor berganliklarini, 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" – deb nomlaganliklarida ham ko'rishimiz mumkin.

Yurtimiz ta'lim tizimida maktab fanlarini o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish targ'ib etilmoqda. Axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, ularni o'qishga, o'rganishga, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga va bilishga qiziqishlarini orttirishga yo'naltirishda muhim vazifa bajaradi. AKT o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, ijodiy xususiyatlari, nazariy bilimlari va refleksiv tafakkurini kengaytirishga katta ta'sir qiladi. Asosan, AKTlar o'quvchilarning obrazli fikrlashlarini orttiradi va ilmiy bilimlarni yanada osonroq, ular bilan chambarchas holda o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy ko'zlangan maqsad – zamonaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yishdir.

Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishishiga, kompyuterdan erkin foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar an'anaviy dars jarayonida AKTning didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonlarini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ular ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Dars jarayonlarida tayyor multimediali dasturlar va kompyuter ta'limi dasturlaridan foydalanib turli xil taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarida qo'llash mumkin. O'quv jarayonini yangi interfaol usullar, axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish, masalan, dars jarayonida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish dars mashg'uotlarining to'la qonli o'tilishiga o'z samarasini beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin.

Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaktelikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi

XULOSA.

Darslarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchiga mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga, darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga, darsda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, mantiqiy mushohadalarni kengaytirishga va shu kabi zamonbardosh, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, darslarni ilg'or, innovatsion, pedagogik hamda kommunikatsiya texnologiyalari asosida sifatli ta'lim-tarbiya berishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2021 y

2. Turayeva G. et al. Opportunities to use financial services–“1 C PROGRAM” //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 556-561.
3. Turayeva G. The significance of sustainability of grain production in the consumer basket //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 01019..
4. Gulizahro, T. (2023). The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade). *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (2), 14-20.
5. Qaxxorovna T. G. et al. The Impact of Artificial Intelligence on the Economy //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 1041-1045.
6. Тураева, Г. К. (2024). Актуальность обеспечения стабильности производства зерна в национальной экономике. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1387-1394.
7. Шукурова, У. А., Садикова, И. Э., & Бахадиров, Р. Г. (2019). Современные методы лечения клиновидных дефектов твердых тканей зубов. In *Актуальные проблемы стоматологии детского возраста и ортодонтии* (pp. 212-216).
8. Shukurova, U. A., & Gaffarova, S. S. (2022). Indicators Of Free Radical Oxidation Of Oral Fluid In Patients With Lichen Plus Of The Mucosus Cavity Of The Mouth. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 862-865.
9. Sunnatulloevna, G. S., Abdurasulovna, S. U., Amrulloevich, G. S., & FeruzaSaidkarimovna, M. Comparative Evaluation of Adhesive Microbial Colonization of the Oral Cavity to Various Filling Materials. *International Journal on Integrated Education*, 4(6), 235-241.
10. Бекжанова, О., & Юсупалиходжаева, С. (2018). Этиологическая структура кандидоза полости рта в республике Узбекистан. *Стоматология*, 1(3 (72)), 13-17.

OILADA SIBLINGLARARO MA'SULIYAT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Norimbetova Nilufar Turg'un qizi

Ipak yo'li va innovatsiyalar universiteti

"Pedagogika Psixologiya va umumta'lim fanlari" kafedrasi o'qituvchisi

Oila ichidagi psixologik muhit, shubhasiz, inson shaxsiyatining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar (ya'ni siblinglararo munosabatlar) bola uchun nafaqat do'stona muloqot manbai, balki ijtimoiy rollarni anglash, javobgarlikni his qilish va empatiyani rivojlantiruvchi muhim maydon bo'lib xizmat qiladi. Siblinglararo mas'uliyat deganda, farzandning boshqa farzandga nisbatan yordam berish, himoya qilish, g'amxo'rlik ko'rsatish va u uchun javob berishga tayyor bo'lish hissi tushuniladi.

Ushbu mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uning paydo bo'lishida oilaviy tizim, ota-onaning pozitsiyasi, farzandlar orasidagi yosh tafovuti, gender, tug'ilish tartibi, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy kutishlar muhim rol o'ynaydi.

Siblinglararo mas'uliyatning shakllanishida yosh farqi muhim omillardan biri hisoblanadi. Odatda katta yoshdagi farzandlar kichiklarga nisbatan o'zlarini mas'ul deb his qilishadi, ularni himoya qilish, tarbiyalash yoki yordam berish vazifasini o'z zimmasiga olishadi. Bu holat ota-onalar tomonidan bevosita qo'llab-quvvatlanadi: "sen opasan, ukangga qaragin", "akasisan, mas'ulmisan" kabi iboralar farzandlarda o'z ukasi yoki singlisiga nisbatan ijtimoiy javobgarlikni his qilishga undaydi. Natijada, katta farzandlar ko'proq liderlik, nazorat, yo'l-yo'riq ko'rsatish kabi rollarni egallaydi, kichiklar esa odatda qaramlik, bo'ysunish va yordam kutish pozitsiyasida bo'lishadi. Bu hol siblinglararo o'zaro ta'sirda mas'uliyatni kim ko'proq his qilishi va bajara olishini belgilaydi.

Tug'ilish tartibi nazariyasi psixolog A. Adler tomonidan asoslab berilgan bo'lib, unda har bir farzandning tug'ilish tartibiga qarab psixologik xarakteri va oiladagi roli shakllanishi ta'kidlanadi. Adlarga ko'ra, birinchi tug'ilgan farzand ko'pincha ota-onaning e'tibor markazida bo'ladi va keyinchalik kichik farzandlar tug'ilishi bilan bu pozitsiyasini yo'qotmaslik uchun mas'uliyatli, intizomli va yetakchilikka intiluvchi bo'lib shakllanadi. Ikkinchi yoki o'rtancha farzandlar ko'pincha "oraliq pozitsiya"da bo'lib, tenglik va adolat

izlaydi, kichik farzandlar esa erkalik, himoyalanganlik holatida bo'lishi mumkin. Bu tug'ilish tartibidagi pozitsiyalar siblinglararo mas'uliyat kimda qanday shakllanishini aniqlovchi ichki ijtimoiy tizimni belgilaydi.

Yosh farqi juda katta bo'lgan hollarda katta farzand ko'pincha yarim ota-onaga aylanadi – u kichik sibling uchun nafaqat aka yoki opa, balki murabbiy, homiy, tarbiyachi rolini bajaradi. Bu mas'uliyat katta farzandga erta mustaqillikni o'rgatsa-da, ba'zan psixologik yuklama ham tug'diradi. Aksincha, farzandlar orasidagi yosh farqi juda kichik bo'lsa, ular o'zaro raqobat ruhida ulg'ayadi va mas'uliyat emas, balki tenglik, liderlik uchun kurash dominant holga aylanadi. Demak, siblinglararo mas'uliyatning qanday shakllanishi tug'ilish tartibi va yosh farqining o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib, bu oila ichidagi rollarning qanday taqsimlanishini va psixologik yuklamaning kim zimmasiga tushishini belgilaydi.

Siblinglararo mas'uliyatning shakllanishida jins (gender) farqlari muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologiyada genderga oid stereotipik kutishlar erkak va ayol farzandlarga nisbatan turli vazifalarni yuklaydi. Masalan, jamiyatda opa yoki singil bo'lgan farzandlardan emotsional g'amxo'rlik, mehr, muloyimlik, ukasiga ovqat yedirish, kiyimini tayyorlash yoki xafa bo'lsa ovutish kabi "yumshoq" mas'uliyatlar kutiladi. Aksincha, aka yoki uka bo'lgan farzanddan singlisini maktabga olib borish, do'konga chiqish, tashqi muhofaza qilish, ukasini himoya qilish kabi "amaliy" va kuch talab qiluvchi mas'uliyatlar talab etiladi. Bu turdagi gender asosidagi vazifa taqsimoti bolalarning o'z shaxsiyligini shakllantirishida va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishida katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy kutishlar nafaqat gender asosida mas'uliyatni belgilab beradi, balki siblinglararo munosabatlarning emotsional sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, opa o'z ukasiga g'amxo'rlik qilsa, bu ko'pincha ijobiy, mehrlil xatti-harakat sifatida baholanadi va maqtaladi. Ammo aka tomonidan singlisiga ortiqcha qaramlik yoki befarqlik ko'rsatilsa, bu salbiy baholanishi mumkin. Shunday qilib, ota-onalar va jamiyatning farzandlarga nisbatan kutishlari (normativ gender roli asosida) siblinglararo mas'uliyat qanday shakllanishini yo'naltiradi — uni rag'batlantiradi yoki, aksincha, cheklaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy ijtimoiy kutishlar asosida shakllangan mas'uliyat hissi bolaning o'z gender rolini ongli anglashiga, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo majburan yuklangan yoki ijtimoiy stereotiplarga asoslangan gender vazifalari, ayniqsa ayol bolalarda yuklama, erkak bolalarda

esa hissiy sovuqlikni shakllantirishi mumkin. Shu sababli siblinglararo mas'uliyatni shakllantirishda genderga asoslangan noto'g'ri kutishlardan qochish va har bir farzandning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish zarurdir.

Siblinglararo mas'uliyat ijtimoiy buyruqlardan tashqari, ichki ehtiyoj asosida ham shakllanishi mumkin. Agar farzandlar o'rtasida iliq emotsional aloqa mavjud bo'lsa, katta yoki kichik farzand yordam berishga o'z ixtiyori bilan intiladi. Bu esa shaxsda empatiya, hamdardlik, boshqalarning holatini anglash, va o'zini muayyan vaziyat uchun javobgar his qilish sifatlarini rivojlantiradi.

Siblinglararo mas'uliyatning shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u oiladagi emotsional iqlim, tarbiya uslubi, farzandlar o'rtasidagi yosh va jinsiy tafovutlar, tug'ilish tartibi va ota-onalarning ijtimoiy kutishlariga bog'liq. Bu mas'uliyat sog'lom tarzda shakllanganda, bolalarda empatiya, liderlik, ijtimoiy javobgarlik, muloqotga ochiqlik va ichki motivatsiya kabi muhim psixologik fazilatlar rivojlanadi. Shu sababli amaliy psixologlar, oila psixoterapevtlari va pedagoglar siblinglararo mas'uliyatni shakllantirishda ongli va tizimli yondashuvga ega bo'lishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адлер А. Понять природу человека. — Москва: Прогресс, 1997. — 256 с.
2. Кон И. С. Ребенок и общество: развитие социального поведения. — М.: Просвещение, 1989. — 192 с.
3. Боженова Л. И. Психологические особенности взаимоотношений между братьями и сестрами в семье // *Вестник практической психологии*. — 2018. — №3(22). — С. 45–52.
4. Крамер Л., Конгер К. Дж. Что мы узнаём от наших братьев и сестер, даже когда они не рядом: особенности отношений между сиблингами при отсутствии ежедневного контакта // *Журнал семейной психологии*. — 2009. — Т. 23, № 4. — С. 497–500.
5. Бронфенбреннер У. Экология человеческого развития. — СПб.: Ленанд, 2005. — 384 с.

SURFACE MORPHOLOGY AND ELEMENTAL COMPOSITION OF DGTC+PAF ION EXCHANGER: SEM-EDX ANALYSIS

Toirova Gulshoda

Phd of Inorganic Chemistry, Termez State University

email: gulshodatoirova0202@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-6412-3389>

Alikulova Iroda

4th year student at Termez State University

email: alikulovairoda@gmail.com

Abduganiyeva Dilafruz



4th year student at Termez State University

email: abduganiyevadilafruz88@mail.com

Abstract. This study presents the surface morphology and elemental composition analysis of the DGTC+PAF ion exchanger using Scanning Electron Microscopy (SEM) and Energy Dispersive X-ray Spectroscopy (EDX). The analysis was conducted to assess the structural properties and elemental content that influence the material's efficiency in ion exchange and selective sorption.

Methods. The SEM technique was used to capture high-resolution micrographs of the ion exchanger's surface. The selected area (Spectrum 36) was analyzed using EDX to determine its elemental composition. This combination of techniques enabled both visual and quantitative characterization of the material's morphology and composition.

Results



The EDX spectrum revealed the following elemental composition (by weight):

-	Carbon	(C):	39.4%
-	Nitrogen	(N):	36.6%
-	Oxygen	(O):	2,6%
-	Sulfur	(S):	21.0%
-	Phosphorus (P):		0.4%

The relatively high sulfur content indicates the presence of sulfur-rich functional groups, which are crucial for the selective binding of heavy metal ions such as mercury (Hg^{2+}). Phosphorus indicates the incorporation of phosphate units. The detected nitrogen and oxygen levels suggest the presence of amine and carbonyl functional groups that enhance complexation capabilities.

Conclusion

The SEM-EDX analysis of the DGTC+PAF ion exchanger demonstrates a structurally complex and chemically rich material. The elemental composition, particularly the high sulfur content, supports its potential use in environmental remediation applications, particularly for the selective removal of toxic heavy metals. The combined presence of functional groups further reinforces the material's capability for efficient ion exchange and stable complex formation.

References:

1. Khayit Turaev, Gulnora Umirova, Sherzod Kasimov, Malika Kobilova. *Synthesis and studying of nitrogen and oxygen-containing complexing sorbents during the sorption of some d-metals*, *Science and Innovation*, Vol. 2 (2023), pp. 277–282.
2. Lisa Malachowski, J. L. Stair, J. A. Holcombe. *Immobilized peptides/amino acids on solid supports for metal remediation*, *Pure Appl. Chem.*, Vol. 76 (2004), pp. 777–787.
3. Muhammad Pervaiz et al. *Synthesis, spectral and antimicrobial studies of amino acid derivative Schiff base metal (Co, Mn, Cu, and Cd) complexes*, *Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy*, Vol. 206 (2019), pp. 642–649.

WRITING KO'NIKMASINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULI

Xazratova Ozoda Akmal qizi

Samarqand davlat chet tillar insituti talabasi

Ilmiy rahbar: Toirova Shohida Kamolovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallasuv va raqamli texnologiyalar asrida yozuv (writing) ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari, interaktiv platformalar, onlayn kurslar, brainstorming va ko'rgazmali vositalar yordamida yozma nutqni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Muallif yozish ko'nikmasini shakllantirishda tanqidiy fikrlash, doimiy mashq va tilni ongli ravishda qo'llash muhimligini ta'kidlaydi. ChatGPT kabi til modellari yordamida yozuvchilarning grammatik, leksik hamda stilistik jihatdan o'sishiga zamin yaratilayotgani ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, yozish jarayonida o'qish va sifatli matnlarni tahlil qilishning ahamiyati ham alohida qayd etilgan. Maqola yozuvni zamonaviy vositalar orqali samarali o'rgatish va rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy hamda amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Globallasuv, raqamli texnologiyalar, zamonaviy yozuv uslublari, sun'iy intellekt, tanqidiy fikrlash, grammatika va leksik tuzilmalar, AI texnologiyalari, til modellari, so'z boyligi, brainstorming, elektron resurslar, audio va ko'rgazmali qurollar.

Bugungi globallasuv va raqamli texnologiyalar asrida yozuv (writing) ko'nikmalarini rivojlantirish har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Dasturlar, internet va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi zamonaviy yozuv (writing) uslublarni o'rganish va ularni qo'llashda yangi yo'llarni taqdim etmoqda. Endi yozish faqat adabiyot yoki jurnalistika sohalari bilan cheklanib qolmay, deyarli barcha kasb egalari uchun zarur bo'lgan ko'nikmaga aylangan. Yozuv (writing)ni oshirish - bu uzluksiz o'rganish va mashq qilishni talab qiladigan jarayon. Ammo zamonaviy texnologiyalar, raqamli vositalar va sun'iy intellekt yordami bu yo'lda ancha qulaylik va tezlikni ta'minlamoqda. Eng asosiysi - doimiy mashq, tanqidiy fikrlash va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilish yozuv (writing)ni professional darajaga olib chiqadi.

Yozishni tizimli ravishda tushunish nafaqat muvaffaqiyatli yozish natijalarini kafolatlaydi, balki til bilan bog'liq ikkinchi darajali qobiliyatlarni egallashga olib keladi: grammatika va leksik tuzilmalarni ongli ravishda tanlash; g'oyalarni rivojlantirishda tashkil etishning mantiqiy namunasi; ro'yxatga olish va uslubni to'g'ri tanlash; vazifalarni va kontekstualizatsiyani yozish uchun umumiy yaxshi yondashuv. AI texnologiyalari yordamida yozuv(writing)ni tahlil qilish va mukammallashtirish tobora ommalashmoqda. ChatGPT kabi til modellari esa yozuvchilarga mavzu bo'yicha ilhom, tuzilma, so'z boyligi va grammatik yordam bera oladi. Talabalar, kontent yaratuvchilar va mutaxassislar sun'iy intellektdan brainstorming, essay tuzish va matnlarni tahrirlash jarayonida samarali foydalanmoqda. Talabalarga qandaydir materiallardan foydalanmasdan yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday o'rgatishimiz mumkinligini tasavvur qilish qiyin. Materiallarni keng ma'noda tilni o'rganishni osonlashtiradigan har qanday narsa sifatida belgilab olsak, ular nafaqat qog'oz va elektron resurslarni, balki audio va ko'rgazmali qurollarni, real ob'ektlar va ishlashni ham o'z ichiga olishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, kuchli yozish qobiliyatlari talabalarning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Yozish tilning muhim omilidir. Barcha talabalar o'zlarining ta'lim va ishga joylashish talablariga javob berishlari uchun yaxshi yozish qobiliyatlari kerak. Jarayon yondashuvi o'quvchilarni g'oyalarni yaratish va ma'lumotlarni to'plashdan tayyor matnni nashr etishgacha o'tkazadigan yozish faoliyatini ta'kidlaydi. Interaktiv yozuv mashqlari va onlayn kurslar; ko'plab xalqaro va mahalliy platformalarda writingni o'rgatuvchi bepul yoki pullik onlayn kurslar mavjud. Coursera, Udemy, Khan Academy kabi platformlar yozuv bo'yicha bosqichma-bosqich kurslar taklif qiladi. Shu bilan birga, blog yozish, ilmiy maqola yozish, hikoya tuzish kabi yo'nalishlar ham keng yoritilgan. AI (sun'iy intellekt) yordamida yozishni mashq qilish yangi trendga aylanmoqda. ChatGPT kabi platformalar orqali talabalar, yozuvchilar yoki boshqa foydalanuvchilar istalgan mavzuda yozma mashqlarni bajarish, fikrlarni tartibga solish va tahlil qilish imkoniyatiga ega. Bu usul orqali foydalanuvchi tezda o'z kamchiliklarini aniqlay oladi va ularni bartaraf qilishga harakat qiladi. Buni ham ta'kidlab o'tish joizki, yozuvchanlikni oshirishda ko'p o'qish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa: Ayniqsa, sifatli matnlarni o'qish, ularni tahlil qilish va o'z yozganlaringiz bilan solishtirish orqali yozish ko'nikmasini shakllanadi. Har bir o'qilgan asar yangi iboralar, stilistik usullar va tuzilma haqida tushuncha beradi. Yozuv ko'nikmasi inson tafakkuri, ijodiyliigi va fikrni aniq ifodalash qobiliyatining yorqin ko'rinishidir. Raqamli vositalar,

ayniqsa sun'iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida bu ko'nikmalarni mustahkamlash osonlashdi. Yozuvni o'rgatishda o'quvchining faol ishtiroki, interaktiv yondashuv va uzluksiz tahlil qilish eng asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isabela Anda Dragomir, Brandusha-Oana Nikulesku. Quruqlik kuchlari akademiyasi sharhi 25 (3), 201-206, 2020.
2. Ken Hyland, Til o'rgatish uchun materiallarni ishlab chiqish 2,391-405, 2013.
3. Aleksandrovna, T. A., Stanislavovna, S. L., & Abdusamiyevna, V. A. (2021). Gender stereotypes in semantics of Spanish proverbs. *Linguistics and Culture Review*, 1336-1345.
4. Ткачёва, А. А. (2020). Вербализация концептуальной метафоры жизни и смерти в испанской поэзии. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века* (pp. 158-161).
5. Djabbarova, S., Tadjieva, M., & Ra'no Mardonova, G. T. (2020). Problem Based Learning and Its Efficiency in Teaching Process. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 291-296.
6. Gazanfarovna, B. D., & Abdusamiyevna, V. A. (2022). Cognitive linguistics as an interdisciplinary study. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 133-135.
7. Satya Shri Durga, Chandra Sekhar Rao. Ingiliz tilini o'qitish bo'yicha tadqiqotchi olimlar va mutaxassislar uchun jurnal 6(2), 1-5, 2018.
8. Nahla N Bacha. *Til va ta'lim* 16 (3), 161-177, 2002 y.
9. Virginia Crank *WAC jurnal* 23 (1), 49-63, 2012

**HAR BIR BOLA – MILLAT KELAJAGI: XALQ O'YINLARI YORDAMIDA
MA'NAVIY YETUK AVLOD TARBIALASHDA JISMONIY TARBIIYA FANI
IMKONIYATLARI**

Erdonov Rustam Usmanovich

Sho'rchi tumani maktabgacha va maktab ta'limiga qarashli 34-maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu tezisda jismoniy tarbiya fanining ma'naviy tarbiyadagi o'rni, xususan xalq o'yinlari orqali bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi pedagogik salohiyati tahlil qilinadi. "Har bir bola – millat kelajagi" tamoyiliga asoslanib, yosh avlodni sog'lom, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashda maktab ta'limi va ayniqsa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rni beqiyosdir. An'anaviy xalq o'yinlari, ularning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy mazmuni, dars jarayonida qo'llanilishining uslubiy jihatlari yoritilgan. Jismoniy tarbiya darslarida xalq o'yinlaridan foydalangan holda bolalarda do'stlik, tenglik, adolat, javobgarlik, o'zaro hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlari tadqiq etiladi. Tezisda amaliy tajribalar, tahliliy kuzatuvlar va metodik yondashuvlar asosida milliy meros vositalaridan foydalanib, kelajak avlod tarbiyasini sifat jihatdan yuksaltirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Xalq o'yinlari, jismoniy tarbiya, ma'naviy tarbiya, bola shaxsi, avlod tarbiyasi, milliy qadriyat, pedagogik metod, maktab, axloqiy tarbiya, tarbiyaviy samaradorlik.

Abstract

This thesis analyzes the role of physical education in spiritual education, in particular, the pedagogical potential of folk games in the formation of moral qualities in children. Based on the principle of "Every child is the future of the nation", the role of school education and especially physical education classes in raising the younger generation as healthy, spiritually mature, socially active individuals is incomparable. Traditional folk games, their spiritual, educational and educational content, and methodological aspects of their use in the classroom are highlighted. The mechanisms of forming social values such as friendship, equality, justice, responsibility, and mutual respect in children using folk games in physical education lessons are studied. The thesis shows ways to qualitatively improve the education of the future

generation using the means of national heritage based on practical experiences, analytical observations, and methodological approaches.

Keywords. Folk games, physical education, spiritual education, child personality, generational education, national values, pedagogical methods, school, moral education, educational effectiveness.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. “Yangi O‘zbekiston – yangi avlod” tamoyiliga muvofiq, har bir bola hayotining ilk bosqichidanoq nafaqat bilim, balki tarbiya, odob, axloq mezonlari asosida shakllanishi zarur. Aynan boshlang‘ich ta‘lim bosqichi bolaning shaxsiyati shakllanadigan, dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlari vujudga keladigan davrdir. Shu sababli, bu bosqichdagi tarbiyaviy ishlar g‘oyat mas‘uliyatli va chuqur yondashuvni talab qiladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalar uchun faqat tanani chiniqtirish emas, balki tarbiyaviy-axloqiy munosabatlarni shakllantirish uchun ham qulay imkoniyatdir. Ayniqsa, xalq o‘yinlaridan foydalanish bu jarayonni tabiiy, samarali va bolalarning qiziqishlariga mos shaklda tashkil etish imkonini beradi. Xalq o‘yinlari avlodlar tajribasini, hayotiy qarashlarini, odob-axloq tamoyillarini o‘zida jamlagan, sinovdan o‘tgan ijtimoiy pedagogik vositadir. Ular orqali bola o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘ladi, jamoada harakat qilish, boshqalarning fikrini inobatga olish, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlarni o‘zlashtiradi.

Demak, ushbu tezisda jismoniy tarbiya darslarida xalq o‘yinlari yordamida bolalarning ma‘naviy-axloqiy yetukligini shakllantirish imkoniyatlari, metodik yondashuvlar va pedagogik samaradorlikni oshirish yo‘llari atroflicha yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi aynan milliy o‘zlik, sog‘lom jamiyat, mustahkam avlod g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Asosiy qism. An‘anaviy xalq o‘yinlari bolalarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ularni ma‘naviy jihatdan boyitish, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. “Chupon”, “Qiz-qovoq”, “Ko‘r-ko‘rga aylandi”, “Tog‘dan-tog‘ga yugur” kabi o‘yinlar shunchaki harakatlar ketma-ketligi emas, balki pedagogik mazmunga ega bo‘lgan axloqiy maktabdir. Ular orqali bolaning hissiy, ijtimoiy va axloqiy rivojiga erishiladi.

Tajriba sinovlari asosida olib borilgan kuzatuvlarga ko‘ra, xalq o‘yinlari bilan boyitilgan darslarda bolalar bir-biriga nisbatan ko‘proq e‘tiborli bo‘lishadi, tengdoshlariga yordam berish, navbatni kutish, qoidalarni hurmat qilish, shaxsiy chegaralarni inobatga olishni o‘rganishadi. Masalan, “Ko‘r-ko‘rga aylandi” o‘yinida ishtirokchilarning ko‘zi

bog'langan holatda atrofdagi signallarni eshitish, do'stiga ishonish, boshqa bolalarning xatti-harakatlariga moslashish kabi fazilatlar shakllanadi.

Metodik yondashuvlar quyidagicha ifodalanadi:

- **Didaktik integratsiya:** xalq o'yinlari dars mazmuniga bog'lab kiritiladi. Masalan, muvozanat mashqlari bilan "Qiz-qovoq" o'yini uyg'unlashtiriladi;
- **Axloqiy refleksiya:** o'yin tugaganidan so'ng bolaning o'z harakatlarini baholashi, xatti-harakatlarini tushunishi uchun muhokama tashkil qilinadi;
- **Individual yondashuv:** har bir bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olib, unga mos o'yin shakllari tanlanadi;
- **Oila-maktab hamkorligi:** ota-onalar xalq o'yinlarini bilishi va qo'llab-quvvatlashi orqali tarbiyaviy ta'sir kuchayadi.

O'rganilgan sinfdagi o'qituvchilar fikricha, xalq o'yinlari yordamida tashkil etilgan darslarda bolalar o'zini erkin his qiladi, faollik namoyon etadi, mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy qadriyatlar bilan uyg'un axloqiy qarashlarning shakllanishiga olib keladi.

Xulosa. Xalq o'yinlari yordamida ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash – bu zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb, istiqbolli va zaruriy yo'nalishlaridan biridir. Bolaning jismoniy faolligi – uning ijtimoiy moslashuvchanligi, axloqiy rivojlanishi, ijobiy shaxsiy sifatleri bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, jismoniy tarbiya darslarida xalq o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- Xalq o'yinlari bolalarda hurmat, sabr, halollik, do'stlik, adolat, birdamlik kabi fazilatlarini shakllantirishda kuchli vositadir;
- O'yin asosida tashkil etilgan tarbiya – bolaga yoqimli, esda qolarli va ta'sirli bo'ladi;
- Metodik jihatdan to'g'ri yondashilgan xalq o'yinlari darsning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kelajakda xalq o'yinlariga asoslangan "axloqiy pedagogika" konsepsiyasini ishlab chiqish, u asosida boshlang'ich ta'lim uchun metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va multimediyaviy vositalarini yaratish zarur. O'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish orqali ularning metodik kompetensiyalarini oshirish ham muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva G. (2019). Xalq o'yinlari orqali ma'naviy tarbiya. Toshkent: Ma'naviyat.
2. Salimov A. (2021). An'anaviy o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari. Samarqand: Ilm Ziyos.
3. Raxmatov B. (2022). Xalq qadriyatlarini ta'limga integratsiya qilish. Toshkent: Yangi Avlod.
4. Vygotsky L.S. (1991). Bolalarda ijodiy fikrlash va o'yin faoliyati. Moskva: Pedagogika.
5. Slastyonin V.A. (2020). Pedagogika: Nazariya va amaliyot. Moskva: Akademiya.

QAYTA ISHLANGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH VA LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Amanov Xushvaqt Saydullayevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining Surxondaryo viloyati boshqarmasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha bosh mutaxassisi

Yangiboyeva Moxibonu Bozarovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti, yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalari kafedrası laboranti

Annotatsiya

Mazkur tezisdá qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va ularni iste'molchigacha yetkazib berish jarayonlarida logistika tizimining ahamiyati va uni takomillashtirish yo'llari yoritiladi. Tezisdá O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish muddati, sifatining saqlanishi, isrof darajasi va xarajatlar tuzilmasiga logistika tizimi qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Zamonaviy saqlash usullari — sovitilgan omborlar, vakuumli va modifikatsiyalangan atmosfera ostida qadoqlash, mobil sovitkichli transportlar va agrologistika markazlarining roli keng yoritiladi. Bundan tashqari, transport zanjirini optimallashtirish, "sovuq zanjir" tamoyilini joriy qilish va raqamlashtirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tezisdá mavjud muammolar (energiya ta'minoti, logistika xarajatlarining yuqoriligi, infratuzilma yetishmovchiligi) va ularning ilmiy asoslangan yechimlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar. Logistika, saqlash texnologiyalari, sovuq zanjir, qayta ishlangan mahsulot, transport, agrologistika, vakuumli qadoqlash, isrof, eksport, ta'minot zanjiri.

Abstract

This thesis highlights the importance of the logistics system in the processes of storing processed agricultural products and delivering them to the consumer and ways to improve it. The thesis analyzes how the logistics system affects the shelf life, quality, waste level and cost structure of food products in the conditions of Uzbekistan. The role of modern storage methods - refrigerated warehouses, vacuum and modified atmosphere packaging, mobile refrigerated transport and agrologistics centers - is widely covered. In addition, the

possibilities of optimizing the transport chain, implementing the "cold chain" principle and digitalization are also considered. The thesis proposes existing problems (energy supply, high logistics costs, lack of infrastructure) and their scientifically based solutions.

Keywords. Logistics, storage technologies, cold chain, processed products, transportation, agrologistics, vacuum packaging, waste, export, supply chain.

Kirish. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini faqat ishlab chiqarish emas, balki ularni sifatli saqlash va samarali yetkazib berish ham mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omildir. Ayniqsa, qayta ishlangan mahsulotlar uchun saqlash muammolari bozor qiymati, eksport salohiyati va iste'molchilik talablariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, agro-logistika tizimi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashda, ayniqsa ularni sanoat asosida qayta ishlagan holda bozorga yetkazishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Dunyo bozorida sog'lom raqobatga bardosh bera oladigan oziq-ovqat mahsulotlari aynan sifatli qadoqlangan, to'g'ri saqlangan va o'z vaqtida yetkazilgan bo'lishi zarur. Qayta ishlangan mahsulotlar, xususan sharbat, muzlatilgan mevalar, konservalar, pishloq, qandolat mahsulotlari, go'sht mahsulotlari logistika zanjirida noto'g'ri saqlansa, ularning qiymati kamayadi, eksportdagi ishonchliligi pasayadi. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda agrologistika markazlari, muzlatkichli transport vositalari, "sovuq zanjir" infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida muhim qadamlar tashlanmoqda. Shunga qaramasdan, mavjud tizimni takomillashtirish uchun metodik yondashuvlar, texnik baza, xodimlarning bilim darajasi, logistika optimallashtirish algoritmlari hali yetarlicha mukammal emas. Mazkur tezisda ayni shu jihatlar ilmiy tahlil qilinadi va takomillashuv yo'llari ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism. Qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashda uchta asosiy bosqich ajralib turadi:

1. **Mahsulotni qadoqlash va sterilizatsiya qilish,**
2. **Saqlash sharoitini ta'minlash,**
3. **Logistika orqali yetkazib berish.**

Zamonaviy texnologiyalar orasida **modifikatsiyalangan atmosfera (MAP)** ostida saqlash yetakchi o'rinda turadi. Bu usulda kislorod, karbonat angidrid va azot muvozanatiga

asoslangan maxsus atmosfera yaratiladi. Sabzavot konservalari, go'sht mahsulotlari va sut mahsulotlari bunday muhitda 30–90 kungacha sifatini saqlaydi.

Sovuq zanjir (cold chain) tizimi esa harorat muhitiga sezgir mahsulotlar (sut, go'sht, pishloq, muzlatilgan mahsulotlar) uchun asosiy himoya mexanizmi hisoblanadi. Sovuq zanjir buzilganda mikrobiologik xavf ortadi, mahsulot foydali xossalarini yo'qotadi. Shu sababli logistika zanjirining har bir bosqichi: ombor, yuklash joyi, transport va do'konlar harorati monitoring qilinishi lozim.

Mobil sovutkichli konteynerlar, sovutkichli furqonlar va agrologistika terminallari — zamonaviy logistika tizimining asosiy bo'g'inlaridir. Hozirda "Agrologistika markazi" loyihasi asosida Andijon, Samarqand, Termiz va Toshkent viloyatlarida muzlatkichli omborlar va avtomatlashtirilgan qadoqlash liniyalari ishga tushirilmogda. Bu markazlarda mahsulotlarni 6 oygacha sifatli saqlash mumkin.

Agar saqlash tizimi raqamlashtirilsa (masalan, mahsulotga QR-kodli harorat monitori o'rnatilsa), xaridorlar mahsulot harorati va saqlash muhitini kuzatishi mumkin bo'ladi. Bu esa mahsulotga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shuningdek, **logistika xarajatlarini optimallashtirish** uchun AI (sun'iy intellekt) asosidagi marshrutlash tizimlaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Misol uchun, "agro-MES" platformasi orqali fermadan omborgacha eng qisqa va xavfsiz yo'l avtomatik belgilanadi.

Xulosa. Qayta ishlangan mahsulotlarni saqlash va ularni bozorga yetkazishdagi logistika tizimining har bir bo'g'ini milliy oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- Mahsulot sifatini saqlash va isroflarni kamaytirish uchun harorat nazorati, atmosfera tarkibini boshqarish va avtomatlashtirish zarur;
- Sovuq zanjirni tashkil etish uchun zamonaviy transport vositalari, infratuzilmalar va monitoring tizimlari joriy etilishi lozim;
- Raqamlashtirilgan logistika tizimlari mahsulot yo'li shaffofligini ta'minlaydi va iste'molchi ishonchini oshiradi;
- Logistika tizimining har bir bosqichi uchun malakali kadrlar tayyorlash, mahalliy texnologik echimlarni ishlab chiqish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Kelajakda agrologistika tizimini yanada rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida texnoparklar va logistik klasterlar tashkil etish, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO. (2020). Reducing food loss and waste: Solutions for sustainable food systems. Rome.
2. FAO. (2021). Food Cold Chain and Logistics Management. Rome.
3. Mahmudov R. (2020). Fermentatsiya va biotexnologiyalar asoslari. Toshkent: Fan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4368-son qarori. (2019). Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori. (2020). Agrosanoat kompleksini rivojlantirish strategiyasi.
6. OECD. (2020). Improving Logistics Performance in Developing Countries. Paris.
7. Sobirov B. (2020). Agrologistika va mahsulot saqlash texnologiyalari. Toshkent: Agroilm.
8. Sobirova M. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlarining vakuumda saqlanishi va ularning sifati. Samarqand: Ilm Ziyo.
9. Xabibullayev R. (2021). Oziq-ovqat mahsulotlarini transportirovka qilishda sovuq zanjir. Andijon: Ilm Ziyo.
10. Xolmurodov O. (2021). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalari. Toshkent: Agroilm.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINI O'RGANISH BOSQICHLARI

Hayitova Zilola Maxmudjonovna

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'qituvchi bilan o'quvchilarning individual kommunikativ faoliyatidagi axborot uzatish jarayoni boshqalar bilan muloqot qilishda ularga sub'yekt sifatida axborot uzatish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumot uzatishga qaraganda, uni qabul qilishga moyillikni, individning muloqot ob'yekti sifatidagi ishtirokini xarakterlaydi. Sinfdagi o'zaro munosabatda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi "ijtimoiy persepsiya" ning yuzaga kelishi o'zaro munosabat hamda hamkorlik jarayonida guruhdagi psixologik muhitni bir me'yorda saqlash imkonini beradi[1].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining pedagogik-psixologik omillarini va boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqot ishimiz boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishlarini tashkil etishda shuning guvohi bo'ldikki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabati sinf o'quvchilari bilan bo'ladigan munosabatlarida ham namoyon bo'ldi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik trening muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat, darsni o'zlashtirish, fikr yuritish, bilimga bo'lgan qiziqish va shaxsning faolligini oshiradi[2]. Trening mashg'ulotlari sinf va guruhlarda tashkil qilinsa, o'qituvchi bilan o'quvchining muomala jarayonida muammoli vaziyatlarni yechishni yengillashtiradi hamda o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarni kasbiy bilimlari, tajribalaridan kelib chiqadigan munosabatlarini to'g'ridan to'g'ri o'quvchilar idrok etishida ham qiyinchilik bo'lishi tabiiy. Shu sababli respondentlarning yordamga zaruratlarini chuqurroq o'rganish

maqsadida olingan natijalarni tahlilini ko'rib chiqamiz. Respondentlarda tajriba guruhi va nazorat guruhlarida kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillarini alohida ko'rsatib o'tishni joiz topdik.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining pedagogik mahorati, qobiliyati va dars mashg'ulotining mazmundorligi omili o'qituvchining kasbiy bilim darajalari, tajribalari bilan belgilanadi[3]. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har qanday o'qituvchi o'z ustida ishlab, kasbiy bilim, tajribalarini oshirib borishsa ham ularda kuchli psixologik zo'riqlarni ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tajribalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va psixik imkoniyatlarini bilishi hamda o'quvchi shaxsiga individual tarzda yana shug'ullanishi o'qituvchidan qattiq mas'uliyatni talab qiladi[2]. Bugungi kunda yosh o'quvchi shaxs xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillarni ham hisobga olishimiz zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchini ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va oiladagi psixologik muhit ham uchinchi katta omil hisoblanadi. Aytaylik, maktabda sharoitlari yaxshi, o'qituvchi o'quvchi munosabatlarida muammo yo'q, lekin ota-ona tomonidan bola nazoratga olinib qo'llab-quvvatlanmasa biz kutgan natija bo'lmasligi aniq[3]. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun kompleks tarzdagi psixologik trening mashg'ulotlarini tavsiya etamiz.

Respondentlarda kasbiy faoliyatning pedagogik-psixologik omillari sifatida bir necha omillarni ko'rib chiqishga to'g'ri keldi. Ularni quyidagi guruhlarga tasniflab o'rgandik.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchi kasbiy faoliyatining mazmun-mohiyati
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning maktab sharoitlari va dars mashg'ulotlarning tashkil etilishi
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik imiji, psixologik portreti.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchi sinf o'quvchilari bilan bo'lgan munosabatlari

Boshlang'ich ta'lim samaradorligi uchun pedagogik texnologiyalardan, innovatsiyalar zarurligi sezildi. Hammamizga ma'lumki, boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligi uchun juda ko'p xorij tajribalarini ham o'rganishga to'g'ri keldi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatmalari bilan birga kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasini ochib beruvchi ya'ni kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi amaliy mashg'ulotlar tavsiya etilganligining guvohi bo'ldik. Kichik maktab yoshidagi o'qituvchilar maktab ta'limiga moslashib ketishi, fanlarni yaxshi o'zlashtirishi faqatgina o'qituvchilarga bog'liq deb aytish ham qiyin albatta. Ota-onalarning va oiladagi psixologik muhitga ham bog'liqlik jihati ham bor. Qolaversa o'qituvchining psixologik xususiyatlari, psixik imkoniyatlarini hisobga olishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гоноболин, Ф. Н. Книга об учителе. – М. ВЛАДОС, 2004. – 223 с.
2. Маслова Н.Ф. Стиль руководства учителя как способ социально-психологического воздействия. Руководство и лидерство. - М: 1973. – 53 с.
3. Mamedov K.K. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'qituvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari. Psixol. fanl. dokt. dis. - T: 2004. - 338 б.

***TEXNIKAVIY VA IQTISODIY YO'NALISHDAGI BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNING MATEMATIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI***

R.X.Kendjayev

Toshkent davlat transport universitetining
«Oliy matematika» kafedrası dotsenti, f.-m.f.n.

Annotatsiya. Bo'lajak mutaxassislarning matematik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan matematik fanlardan amaliy mashg'ulotlarni o'qitishning uslubiy ketma-ketlikdagi bosqichlarining amalga oshirilishi tahlil qilinib, ushbu maqsadda multimedia vositalarining ahamiyati ochib berildi.

Аннотация. Проанализирована реализация этапов методической последовательности преподавания практических занятий по математическим предметам, направленных на совершенствование математической подготовки будущих специалистов, в этих целях раскрыта важность мультимедийных средств.

Abstract. The implementation of the stages of the methodological sequence of teaching practical classes in mathematical subjects aimed at improving the mathematical training of future specialists was analyzed, for this purpose the importance of multimedia tools was revealed.

Калит сўзлар: математик тайёргарлик, амалий машғулотлар, ўқитиш босқичлари, мультимедиа воситалари.

Ключевые слова: математическая подготовка, практические занятия, этапы обучения, мультимедийные средства.

Key words: mathematical training, practical exercises, training stages, multimedia tools.

Iqtisodiy va texnikaviy masalalarni yechishda mutaxassislarga matematik usullar juda qo'l keladi. Masalan, tabiat va jamiyatdagi barcha jarayonlardagi kabi iqtisodiy jarayonlarda

qatnashadigan tasodifiy hodisalarni, tasodifiylikni ehtimollar nazariyasi va matematik statistika o'rganadi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri unda matematik usullar va yangi kompyuter texnologiyalarga asoslangan sonli tahlilni amalga oshirish va shu asosda iqtisodiy yechimlar qabul qilishdan iboratdir. Bu holat korxonalar, firma, bozor, ishlab chiqarish birlashmasi, xalq xo'jalik tarmoqlari, butun xalq xo'jaligiga doir iqtisodiy jarayonlarni tasvirlovchi matematik modellarni tuzish va ular bilan bog'liq masalalarni optimal yechish usullarini taklif etishni nazarda tutadi. Ana shunday vazifalar matematik dasturlash yordamida amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda xalq xo'jaligidagi islohotlarni to'liq amalga oshirishda, sohani ilmiy asosda boshqarishda tayerlanayotgan yosh mutaxassislarining iqtisodiy-matematik bilimi, malaka va ko'nikmalari, shuningdek matematik tafakkuri katta ahamiyat kasb etishi e'tiborga olinsa, talabalarga matematika yo'nalishi bo'yicha yuqori saviyada ta'lim berish talab etadi. Ularga matematik fanlar bo'yicha har bir mavzuga ajratilgan dars mashg'ulotlarida ko'zlangan nazariy bilimlar tizimini o'qitish bilan birgalikda, matematikaning ishlab chiqarish va iqtisodiyot rivojlanishidagi rolini ochib berish, undan xalq xo'jaligi masalalarini yechishda samarali foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Talabalarda ushbu xususiyatlarni shakllantirish uchun Oliy matematika bo'yicha amaliy mashg'ulot darslarida mavzusiga mos texnikaviy va iqtisodiy amaliy masalalar tanlanib, ularni yechish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Albatta matematikani faqat nazariy fan sifatidagina emas, balki amaliy-iqtisodiy fan sifatida talabalar ongida shakllantirish jarayonida qator muammoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin.

Masalan, «Bir o'zgaruvchili funksiyalarning differensial hisobi» mavzusini yoki «Tanlanmaning statistik taqsimoti, empirik taqsimot funksiyasi, poligon va gistogramma» mavzusini o'rganish talabalarda katta qiziqish uyg'otadi, biroq bu mavzulardagi bilimlarni bevosita ishlab chiqarish va iqtisodiyotga tatbiq etish ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, bunday holatlar amaliy mashg'ulot darslarida ushbu mavzular bo'yicha aniq texnikaviy va iqtisodiy masalalar yechish jarayonida ancha sezilib turadi.

Shuning uchun ham amaliy mashg'ulotlarining uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi ushbu muammolarni muvaffaqiyatli tarzda bartaraf etish imkonini beradi. Chunki, amaliy mashg'ulotlarda mavzu bo'yicha faqat nazariy misol va masalalargina emas, balki iqtisodiy mazmundagi masalalarni yechish talabalarda fanga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Quyida talabalarga matematik fanlarni qator yillar davomida o'qitish natijasida to'plangan tajribaning asosiy jihatlariga to'xtalib o'tilganda matematik fanlardan amaliy mashg'ulotlarni o'qitishni quyidagi uslubiy ketma-ketlikdagi bosqichlarda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Birinchi bosqichda talabalar o'tilgan yangi mavzuga qiziqish bilan qarab, bundan kelib chiqqan holda berilgan masala va misollarni mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida yechishga harakat qiladilar. Talabalarda zaruriy bilimlar yetishmasa, o'qituvchi ularga ko'rsatma beradi. Bunday holatda o'qituvchi talabalarga misol va masalalarni yechishda qo'llaniladigan usullarni nazariy jihatdan asoslab beradi.

Ikkinchi bosqich yangi nazariy bilimlarni amaliyotga maqsadli yo'naltirish bosqichi deb ataladi. Bunda o'qituvchi dastlab o'tilgan yangi mavzuni ishlab chiqarish va iqtisodiyotga oid masalalarni yechishga ilmiy asosda tatbiq etish usullarini bayon etadi. O'qituvchi misol sifatida mavzuga mos biror texnikaviy yoki iqtisodiy masala yoki jarayonning matematik tahlilini keltirib o'tadi. Endi talaba masalaning qanday yechimini qidirayotganligini biladi. U bu mavzuni shunchaki qiziqqani uchun emas, balki kelajakda o'z sohasiga qay tarzda qo'llash mumkinligini ma'lum darajada bilib oladigan bo'lgani uchun o'zlashtiradi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi — talabada olgan bilimlarini turli texnikaviy va iqtisodiy masalalarni yechishga maqsadli yo'naltira olish ko'nikmalarini shakllantirish va uni olingan yechimni iqtisodiy-matematik tahlil qilishga o'rgatishdan iboratdir. O'qituvchi asosiy e'tiborni mavzuga mos texnikaviy va iqtisodiy masalalar tanlashga va o'tilgan mavzuning imkoniyatlarini ochib berishga qaratishi lozim bo'ladi.

Uchinchi bosqichda talabalar avvalgi bosqichlarda hosil qilgan malaka va ko'nikmalarini mustahkamlaydilar hamda shularga asoslangan holda mustaqil ravishda iqtisodiy mazmundagi masalalarni yechishga olgan bilimlarini qo'llay boshlaydilar. Shuning

uchun ham bu bosqich olingan bilimlardan samarali foydalanish bosqichi deb ataladi. Bu bosqichda talabalar matematikani iqtisodiy fanlar bilan uyg'unlashgan holda o'rgana borib, o'zlarining iqtisodiy-matematik malaka va ko'nikmalarini yanada takomillashtiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarga matematika yo'nalishidagi fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar yuqoridagi ketma-ketlikda o'tilganda, ularda:

- 1) mavzu bo'yicha nazariy bilimlar yanada mustahkamlanadi;
- 2) matematikadan olgan bilimlarni ishlab chiqarish va iqtisodiyotga tatbiq etish ko'nikmalari shakllanib, matematik tafakkuri yanada rivojlanadi;
- 3) bo'lg'usi mutaxassisliklari bo'yicha muammo yoki jarayonlarni matematik tahlil qilish hamda mavjud iqtisodiy-matematik adabiyotlarni mustaqil o'rganish bo'yicha malakalar yanada oshadi.

Albatta, bunday muammolarni hal qilish uchun mavjud o'quv adabiyotlaridan unumli foydalangan holda har bir yangi mavzuning asosiy mazmunini iqtisodiy-matematik tilda talabalarga ochib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matematikani o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati juda kattadir. Murakkab formulalar, jadvallar va chizmalarni talabalarga (tarqatma materiallarni berish bilan birgalikda) multimedia vositalari yordamida namoyon etish va tushuntirish dars jarayonini ancha jadallashtiradi, talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularning ijodiy imkoniyatlarini ko'paytiradi.

Kelajakda talabalarga talab darajasida bilim berish uchun ushbu yo'nalish bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni yaratish, o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish, talabalarning statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini o'zlashtirishida yangi informatsion texnologiyalarni qo'llash borasida uslubiy va amaliy ishlar olib borish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni inobatga olib, talabalarning matematik tafakkurini rivojlantirish, iqtisodiy masalalarni yechishda matematik usullardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda juda katta ahamiyat kasb etishini e'tirof qilish mumkin.

**“INFOTMATIKA VA RAQAMLI TEXNALOGIYALARI”FANIDAN WEB
SAHIFAGA RO’YHAT VA JADVAL JOYLASHTIRISH MAVZUSIGA OID WEB
DASTURLASHDA RO’YHAT(FORMA) VA JADVALDAN FOYDALANISHNING
AMALIY JIHALLARINI O’RGATISH**

Movlonov Isfandiyor Muradulla o’g’li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali talabasi

Isfandiyormavlonov806@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada web sahifaga ro‘yhat (forma) va jadval joylashtirishning amaliy va nazariy jihatlari yoritilgan. Web sahifa orqali foydalanuvchi ma‘lumotlarini yig‘ish, ularni saqlash va tartiblangan holda ko‘rsatish imkoniyatlari HTML, CSS va JavaScript texnologiyalari yordamida tushuntirilgan. Shuningdek, server tarafdagi dasturlash asoslari, foydalanuvchi bilan interaktiv aloqalar va bu tizimlarning qo‘llanilish sohalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Maqola talaba, dasturchi va web sahifa yaratish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *HTML, CSS, JavaScript, Forma(ro‘yhat), Jadval, Foydalanuvchi interfeysi, Web dasturlash, Interaktiv dizayn, Ma‘lumotlar yig‘ish va ko‘rsatish.*

Kirish. Zamonaviy internet texnologiyalari taraqqiyoti bilan web dasturlash inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bugungi kunda har qanday tashkilot, kompaniya yoki ta‘lim muassasasi o‘z faoliyatini raqamlashtirishga intilmoqda. Bu jarayonda web sahifalar asosiy vositalardan biri hisoblanadi, chunki ular orqali foydalanuvchi bilan bevosita aloqaga kirishish, ma‘lumot almashish va interaktiv xizmatlar ko‘rsatish mumkin.

Web sahifa foydalanuvchiga ma‘lumotni kiritish, qidirish, o‘zgartirish yoki ko‘rish imkoniyatlarini beradigan platformadir. Bunday imkoniyatlar ayniqsa ro‘yxatdan o‘tish (forma) va jadval kabi asosiy HTML elementlari orqali amalga oshiriladi. Forma yordamida

foydalanuvchidan ma'lumot olinadi, jadval esa ushbu ma'lumotlarni tartibli tarzda ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Ushbu maqolada web sahifaga forma va jadval joylashtirish bo'yicha amaliy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. HTML orqali sahifa tuzilmasi yaratiladi, CSS yordamida dizayn chiroyli va qulay holga keltiriladi, JavaScript esa foydalanuvchi bilan interaktiv aloqa o'rnatish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, server taraf (masalan, PHP yoki Python) yordamida foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlashning asosiy usullari ham yoritiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – web sahifa orqali foydalanuvchi bilan ishlashning asosiy elementlari bo'lgan forma(ro'yhat) va jadvalni yaratish va ularni bir-biriga bog'lash bo'yicha amaliy bilimlarni berishdir.

Amaliy ishlash prinsipi. HTML — bu sizning mavzuingizning asosiy va ajralmas qismi, chunki:

1. Forma (ro'yxat) va jadvalni yaratish uchun HTML kerak bo'ladi.

Siz foydalanuvchidan ma'lumot olishni (ism, email, telefon) <form> tegidan, jadvalda ko'rsatishni esa <table> tegidan foydalanib amalga oshirasiz.

2. HTML — web sahifaning skeleti.

U holda siz web sahifada nima qayerda joylashadi, qanday tuzilishga ega bo'ladi — bularning hammasi HTML orqali belgilanadi.

3. CSS va JavaScript faqat HTML asosida ishlaydi.

HTML elementlari bo'lmasa, ularni bezatish (CSS) yoki interaktiv qilish (JavaScript) imkonsiz.

HTML siz yaratmoqchi bo'lgan web sahifadagi ro'yxat va jadvalning asosiy tuzilmasini tashkil qiladi. Bu texnologiyasiz hech qanday web interfeys yaratilmaydi.

CSSning mavzuga aloqasi:

. Dizayn va vizual ko'rinish:

HTML orqali yaratilgan forma va jadval elementlari dastlab oddiy va jozibador emas. CSS yordamida ular chiroyli bezatiladi — masalan, fon rangi, chegaralar, shriftlar, tugma uslublari.

Foydalanuvchi tajribasi (UX):

CSS yordamida web sahifa foydalanuvchiga qulay ko‘rinadi: elementlar tartib bilan joylashadi, jadval sarlavhalari ajralib turadi, forma elementlari mos o‘lchamda bo‘ladi.

3. Moslashuvchanlik (Responsive design):

yordamida web sahifa turli ekran o‘lchamlariga moslashtiriladi. Masalan, telefon va kompyuter ekranida bir xil sifatda ishlaydi.

4. Animatsiya va interaktivlik:

CSS orqali tugma bosilganda rangning o‘zgarishi, jadval ustunlariga hover effekti kabi oddiy animatsiyalar qo‘shiladi.

CSS — bu HTML orqali yaratilgan ro‘yxat va jadvalni foydalanuvchi uchun estetik, qulay va zamonaviy qilish vositasidir. Shuning uchun u sizning amaliy ishingizda asosiy rol o‘ynaydi.

JavaScript — sizning mavzuingizdagi forma va jadval o‘rtasidagi interaktivlikni ta‘minlovchi asosiy texnologiya hisoblanadi. Quyida uning mavzu bilan qanday aloqasi borligi tushuntirilgan:

JavaScriptning mavzuga aloqasi: Ma‘lumotlarni qayta ishlash (forma orqali):

Foydalanuvchi forma orqali ism, email kabi ma‘lumotlarni kiritadi. JavaScript ushbu ma‘lumotlarni qabul qilib oladi, tekshiradi (validation), va keyingi bosqichga uzatadi.

Jadvalga avtomatik qo‘shish: JavaScript yordamida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma‘lumotlar sahifa yangilanmasdan jadvalga qo‘shiladi. Ya‘ni, foydalanuvchi “Jo‘natish” tugmasini bosganda, natija darhol ko‘rinadi.

Interaktivlik: Tugmani bosganda ogohlantirish chiqarish, xatoliklarni ko‘rsatish (masalan, email noto‘g‘ri kiritilganda), qatorni o‘chirish yoki tahrirlash kabi funksiyalar ham JavaScript orqali amalga oshiriladi.

Dinamik funktsiya yaratish: JavaScript yordamida foydalanuvchi bilan real vaqtda aloqa o‘rnatiladi — bu web sahifani statik emas, dinamik qiladi.

JavaScript — web sahifadagi forma orqali kiritilgan ma’lumotlarni avtomatik tarzda jadvalga qo‘shish va foydalanuvchiga interaktiv imkoniyatlar yaratish uchun ishlatiladi. Bu texnologiyasiz sizning loyihangiz oddiy statik sahifa bo‘lib qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Web sahifalarni yaratish, foydalanuvchi bilan muloqot qilish va interaktiv interfeyslar ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab manbalar mavjud. Bu adabiyotlar asosan HTML, CSS, JavaScript kabi asosiy web texnologiyalarni o‘rgatish bilan birga, ularni real web ilovalar yaratishda qanday qo‘llashni ham tushuntiradi.

Eng asosiy va keng tarqalgan manbalardan biri bu Jon Dakettning “HTML and CSS: Design and Build Websites” nomli kitobidir. Ushbu asar HTML va CSS asoslarini sodda va tushunarli tilda o‘rgatadi, jumladan forma elementlari va ularning dizaynini yaratish bo‘yicha amaliy misollar keltiriladi. Muallif foydalanuvchi uchun qulay interfeyslar ishlab chiqish bo‘yicha muhim maslahatlar beradi.

Bundan tashqari, “JavaScript and jQuery” (muallif: Jon Dakett) asarida forma orqali olingan ma’lumotlar bilan ishlash, ularni tasdiqlash (validation), va natijalarni jadvalga chiqarish kabi funksional imkoniyatlar tahlil qilingan. Ushbu adabiyot foydalanuvchi bilan real vaqtda interaktiv aloqa o‘rnatish usullarini chuqur yoritadi.

O‘zbek tilidagi manbalarga murojaat qilinganda esa, web dasturlash asoslari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Web dasturlash asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmada HTML formalar, jadval tuzish, ularni CSS yordamida bezatish va JavaScript orqali interaktivlik qo‘shish bosqichma-bosqich ko‘rsatilgan.

Yana bir muhim manba bu – MDN Web Docs (Mozilla Developer Network) bo‘lib, u web texnologiyalar bo‘yicha eng ishonchli va doimiy yangilanib boradigan rasmiy dokumentatsiya manbaidir. Unda har bir element, jumladan `<form>`, `<input>`, `<table>`, va `<tbody>` kabi teglar to‘liq izohlangan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar web sahifa tuzish jarayonida forma va jadvalni yaratish va ularni foydalanuvchi bilan samarali aloqada ishlatish uchun zarur bo'lgan barcha nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga oladi.

Amaliy ishga o'tamiz: HTML da web sahifa yaratamiz:

Hyper – Giper

Text – Matnli

Markup – Markerlash

Language – Tili

HTML buyruqlari: “Teg”lar yoki “Deskriptor”lar deyiladi.

Teglar juft va juftmas teglarga bo'linadi.

Teglar < va> belgilar orasida yoziladi.

Masalan: <body>,<head>, va h.k.

Har bir juft teg o'zining boshlanuvchi va yakunlovchi teglaridan tashkil topadi. Hamda uning ta'sir doirasi uning yakunlovchi tegigacha davom etadi.

Masalan: <body>...</body>, <center>...</center>, <head>...</head> va h.k.

Biz quyidagi teglar bilan tanishamiz:1.<html> - juft teg, 2.<head> - juft teg, 3.<title> - juft teg, 4.<body> - juft teg, 5. <h1>,<h2>...<h6> - juft teglar,6.
 - juftmas teg.

HTML da dastur tuzish uchun alohida biron-bir dastulash tili talab etilmaydi.

Buning uchun har bir kompyuterda mavjud bo'lgan bloknot, sublime text h.k foydalanish mumkin.

Kompyuterimizga mavjud bo'lgan bloknot dasturiga kiramizda web sahifa yaratishni boshlaymiz.

Masalan:

<html>

```
<head>
<title>Mening 1-web sahifam</title>
</head>
<body>
<h1>Bugundan men ham web-dasturchiman</h1>
<h2>Siz ham HTMLni o'rganing</h2>
<h3>Boshqalarga ham o'rgating</h3>
</body>
</html>
```

Kiritgan Matnimiz oddiy matn bo'lib turibdi, buni biz web sahifaga aylantirish uchun файл menusiga kirib va bu yerda сохранить buyrug'ini tanlaymiz, hosil bo'lgan quydagi oynada tanlashimiz bo'lgan quydagi husisyatlar mavjud, dastlab web sahifamizni qayerga saqlashimizni kursatishimiz kerak.

Buning uchun D deskda yangi fayl yaratib uni 1- web sahifam deb nomlaymiz, va shu fayl ichiga kirib keyin e'tibor qiladigan jihatimiz имя файла fayl nomini ixtiyoriy nom berishimiz mumkin. Masalan mening web sahifam lekin nom yozilgandan keyin nuqtadan keyin html kurinishda bo'lishi shart сохранить bo'limini tanlaymiz.

Endi qilgan ishimizni мой компьютер ga kirib D diskga kirib faylni topamiz 1-web sahifam kirib mening web sahifam bu yerda biz html fotmatda saqlaganimiz uchun ushbu hujjatni google chrome browserda ochish tayyorgalligini ko'rib turibdi.

Ishga tushiramiz va bizni web sahifamiz tayyor.

Ro'yxatlar tushunchasi

Ro'yxatlar web sahifalarda tartiblangan yoki tartiblanmagan shaklda ma'lumot berish uchun ishlatiladi. HTML tilida ro'yxatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Tartiblanmagan ro'yxat (ul – unordered list)

Tartiblangan ro'yxat (ol – ordered list)

Ta'rif ro'yxati (dl – definition list)

Ro'yxat yaratish

da ro'yxat yaratish sintaksisi:

Tartiblanmagan ro'yxat

```
<ul>
```

```
<li>Birinchi element</li>
```

```
<li>Ikkinchi element</li>
```

```
<li>Uchinchi element</li>
```

```
</ul>
```

Natija:

Birinchi element

Ikkinchi element

Uchinchi element

Tartiblangan ro'yxat

```
<ol>
```

```
<li>Birinchi element</li>
```

```
<li>Ikkinchi element</li>
```

```
<li>Uchinchi element</li>
```

```
</ol>
```

Natija:

1. Birinchi element

2. Ikkinchi element

3. Uchinchi element

Ta'rif ro'yxati

<dl>

<dt>HTML</dt>

<dd>Web sahifalar yaratish uchun til</dd>

<dt>CSS</dt>

<dd>Web sahifalarning ko'rinishini boshqarish</dd>

</dl>

Jadvallar web sahifalarda tartibli ma'lumotlarni keltirish uchun ishlatiladi. HTML da jadval yaratish uchun <table> tegi ishlatiladi.

Jadval yaratish sintaksisi:

Kod yozamiz

```
<table border="1">
```

```
<tr>
```

```
<th>Ism</th>
```

```
<th>Yosh</th>
```

```
<th>Kasb</th>
```

```
</tr>
```

```
<tr>
```

```
<td>Ali</td>
```

```
<td>25</td>
```

```
<td>Dasturchi</td>
```

```
</tr>
```

```
<tr>
  <td>Olim</td>
  <td>30</td>
  <td>Dizayner</td>
</tr>
</table>
```

Natija:

Ism	Yosh	Kasb
Ali	25	Dasturchi
Olim	30	Dizayner

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida web sahifaga forma va jadval joylashtirish bo'yicha amaliy yondashuvlar o'rganildi. Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Nazariy tahlil – Web dasturlashga oid adabiyotlar, darsliklar, maqolalar va onlayn resurslar o'rganilib, forma va jadval elementlarining tuzilishi va funksiyasi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Eksperimental usul – HTML, CSS va JavaScript texnologiyalaridan foydalanilgan holda real web sahifa yaratildi. Foydalanuvchidan ma'lumot olish va bu ma'lumotni jadvalda aks ettirish mexanizmi amaliy tajribada sinovdan o'tkazildi.

Tahlil va sinov – Yaratuvchi forma va jadval elementlarining o'zaro ishlash mexanizmi turli foydalanuvchi ssenariylari asosida test qilindi. Foydalanuvchidan kiritilgan ma'lumotlar to'g'ri va xavfsiz qayta ishlanishi tekshirildi.

Vizual dizayn usuli – Web sahifaning tashqi ko'rinishini yaxshilash uchun CSS yordamida zamonaviy dizayn uslublari qo'llanildi. Bu foydalanuvchining sahifadan qulay foydalanishini ta'minladi.

Texnik vositalardan foydalanish – Kod yozish uchun VS Code, Sublime Text muharriri, ma'lumotni saqlash uchun JavaScript obyektlari va (zarurat bo'yicha) lokal serverlardan foydalanildi.

Ushbu metodologiyalar orqali mavzuga doir asosiy muammolar tahlil qilinib, ularning yechimlari amaliy tarzda taklif qilindi. Natijada foydalanuvchi uchun qulay, funksional va interaktiv web sahifa yaratish mumkinligi isbotlandi.

Tahlil va natijalar

Ushbu ish doirasida web sahifaga foydalanuvchilar ro'yxatini kiritish va uni jadvalda aks ettirish funksiyasi amalga oshirildi. Loyiha HTML, CSS va JavaScript texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqildi.



Quyida

amaliy jarayon tahlili va erishilgan natijalar keltiriladi:

Foydalanuvchi interfeysi yaratildi

HTML yordamida sahifada forma (ro'yxatdan o'tish qismi) va jadval tuzildi. Forma orqali foydalanuvchidan ism, telefon raqami, email kabi ma'lumotlarni kiritish imkoniyati yaratildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash

JavaScript orqali forma orqali kiritilgan ma'lumotlar qayta ishlanib, sahifadagi jadvalga avtomatik tarzda qo'shilishi ta'minlandi. Har bir yangi yozuv sahifani yangilamasdan jadvalga real vaqt rejimida chiqdi.

Vizual ko'rinish va qulaylik

CSS yordamida forma va jadvalga dizayn berildi. Ranglar, shriftlar, oralig'lar, tugmalar uslubi moslashtirilib, foydalanuvchi uchun qulay interfeys yaratildi.

Xatoliklarni aniqlash va oldini olish

JavaScript orqali kiritilayotgan ma'lumotlarga oddiy validatsiya (tekshiruv) qo'llandi. Masalan, email noto'g'ri kiritilsa, foydalanuvchiga ogohlantirish ko'rsatiladi.

Test natijalari

Web sahifa Google Chrome, Mozilla Firefox va Microsoft Edge kabi brauzerlarda sinovdan o'tkazildi. Barcha funksiyalar to'g'ri ishladi. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan har bir yozuv aniq va to'liq jadvalga qo'shildi.

Yakuniy xulosa

Web sahifaga foydalanuvchi tomonidan ma'lumot kiritish va ularni real vaqt rejimida jadvalda ko'rsatish funksiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu amaliy loyiha ro'yxatga olish tizimlari, buyurtma shakllari, kontakt formalar kabi ko'plab web tizimlar uchun foydali model bo'la oladi.

Xulosa va takliflar

Ushbu kurs ishi davomida web sahifaga foydalanuvchi ma'lumotlarini kiritish uchun forma va ularni real vaqt rejimida jadvalda aks ettirish texnologiyasi ishlab chiqildi. HTML, CSS va JavaScript vositalari orqali sahifaning strukturasi, dizayni va funkcionalligi to'liq amalga oshirildi.

Web sahifaga foydalanuvchi ma'lumotlarini kiritish va ularni ko'rish imkoniyati foydalanuvchiga qulay interfeys orqali taqdim etildi.

JavaScript orqali sahifa interaktiv holatga keltirildi: ma'lumotlar sahifa yangilanmasdan jadvalga qo'shildi.

CSS yordamida oddiy va tushunarli dizayn yaratilib, sahifaning vizual ko‘rinishi yaxshilandi.

Loyiha asosida oddiy ro‘yxatga olish tizimining asosiy mexanizmlari sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Takliflar: Loyihani yanada takomillashtirish uchun ma’lumotlarni vaqtincha emas, balki doimiy saqlash (masalan, localStorage yoki server orqali) funksiyalarini qo‘shish mumkin.

Jadvalga ma’lumotni tahrirlash va o‘chirish imkoniyatlari kiritilishi tavsiya etiladi.

Responsiv dizayn (turli ekran o‘lchamlari uchun moslashuvchanlik) qo‘shilsa, mobil qurilmalarda ham qulay foydalanish ta’minlanadi.

Kiritilgan ma’lumotlarni eksport qilish (masalan, Excel yoki PDF formatida) imkoniyati foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Duckett, Jon. HTML and CSS: Design and Build Websites. Wiley, 2011.
2. Freeman, Elisabeth, and Eric Freeman. Head First HTML and CSS. O'Reilly Media, 2012.
3. Flanagan, David. JavaScript: The Definitive Guide. O'Reilly Media, 2020.
4. MDN Web Docs — <https://developer.mozilla.org>
5. W3Schools — <https://www.w3schools.com>
6. Xolmirzayev S.S. Web dasturlash asoslari. Toshkent: Innovatsiya, 2021.
7. Karimov U.K. Veb-dasturlashning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.
8. Bootstrap documentation — <https://getbootstrap.com>

OILADAGI YAKKA FARZANDLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turgunova Gulru Todjiboyevna

International school of finance technology and science instituti

Psixologiya va pedagogika kafedrası v.b. dotsenti

Psixol.f.b.f.d.(PhD)

Oiladagi vaziyat, o'z shaxsiga ortiqcha diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik kabilar yakka farzandlarda o'ziga ishonch hissini va o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi. Yakka farzandlarning o'z tashqi qiyofalarini yuqori baholashlari ota-onalarning farzandlari tashqi qiyofasiga katta e'tibori, oiladagi moddiy farovonlik bilan shartlangan bo'lishi mumkin. Bolalikda o'z tashqi qiyofasiga nisbatan shakllantirilgan munosabat o'spirinlikdagi "Men obrazi"ning barqaror komponentiga aylanadi. O'z qobiliyatlarini yuqori baholash yakka farzandlarning o'quv faoliyati va intellektual sohadagi muvaffaqiyatlari bilan belgilab berilishi ehtimol[1].

Yakka farzandlar to'ng'ich farzandlarga nisbatan ko'proq psixik buzilishlarga moyil hisoblanadilar. Ular egotsentrik va yordamga muhtojroq bo'lib voyaga yetadilar. Kichik oila farzandlari individualizatsiya jarayonida ota-onalariga ko'proq bog'liq bo'ladilar.

G.T.Xomentauskas yakka farzandlarning shaxs xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi. Uzoq vaqt davomida yakka farzand faqat voyaga yetganlar bilan muloqotda bo'ladi, bu esa unda zaiflik, noto'kislik hissini, o'ziga ishonmaslik, egotsentrizm – haddan ziyod diqqat-e'tibor, mehr-muhabbat, xayrixohlik, g'amxo'rlik tufayli atrofdegilarni manipulyatsiya qilish usullarini o'zlashtiradilar[2]. Aka-uka va opa-singillari yo'qligi sababli shaxslararo muloqot tajribasi, o'zini boshqalar bilan solishtirish imkoniyatining mavjud emasligi o'zini noyob, unikal, qadrlı deb o'zini noadekvat baholashga turtki bo'ladi. Tengdoshlari bilan muomalaning yetishmasligi boshqa bolalar bilan faol muloqot izlashlariga sabab bo'ladi. Yakka farzandli oilalarda bolalar ko'proq diqqat-e'tiborga, mehr-muhabbatga sazovor bo'ladilar, ota-onalar ularga ko'proq vaqt, moddiy va ma'naviy zahiralarni sarflashlari tufayli yakka farzandlarning shaxs sifatida kamol topishi va qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqoriroq imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Ekstraversiya, neyrotizm kabi shaxs xususiyatlarining shakllanishi oilaning katta-kichikligi, farzandlarning ko'p-kamligiga bog'liq emas ekan. Ko'p farzandli va yakka

farzandli oilalarning farzandlarida ushbu ko'rsatkichlar bir xil bo'lib, asosan bolalarning yosh xususiyati bilan shartlanadi.

Yakka farzandlarning shaxsi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:[3]

Birinchidan, ularda katta farzand bilan raqobat mavjud bo'lmaganligi sababli, ularni raqobat, o'zaro ta'sirlashuv kabilar orqali qo'yilgan maqsadga erishish uchun motivlashtirish biroz murakkab hisoblanadi. Bu kabi tajribaning yakka farzandlarda yo'qligi asosiy omil sanaladi. [2].

Yakka farzandlarning moddiy farovonlik jihatidan imtiyozi mavjud, chunki unga ota-onasi diqqat-e'tiboriga sherik bo'lishi mumkin bo'lgan raqobatdosh oila a'zolari yo'q. Ota-onalar ko'pincha yakka farzandlariga yetarlicha mablag', diqqat-e'tibor, mehr-muhabbat bilan ta'minlayotganliklari sababli unda qondirilmagan ehtiyojlar mavjud emas, natijada bular bola shaxsining shakllanishiga ijobiy ta'sir etishi darkor degan fikrda bo'ladilar. Biroq aksariyat vaziyatlarda yuqoridagilar aksincha tantiq, injiq, qaysar, o'zinikini o'tkazadigan xudbin, egostik shaxsning shakllanishiga olib keladi [3].

Yakka farzandlarning boshqa bolalar bilan yaqin munosabatlar o'rnatish imkoniyati bo'lmasligi mumkin, natijada kelajakda bu narsa ijtimoiy munosabatlarda ishonmaslik, odamovilik, o'zaro muomala va munosabatlarga kirisha olmaslikka olib kelishi ehtimol. Yakka farzandlar o'yinqaroq emas, ular ko'pincha guruh, jamoaviy o'yinlarga qaraganda individual o'yinlarni xush ko'rishadi. Ular individual o'yinlarni afzal ko'rganliklari tufayli boshqa ijtimoiy rollarni o'zida sinab ko'rish imkoniyatidan mahrumdirlar [1].

Shunga qaramasdan yakka farzandlarning opa-akasi, uka-singlisi bor tengqurlariga nisbatan intellektual salohiyati yuqoriroqligini qayd etish zarur. Yakka farzandlar ota-onasining diqqat-e'tibori, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga loqaydmasliklari sababli gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini tengdoshlariga nisbatan vaqtliroq o'zlashtiradilar. Bu bolalarning nutqi lug'aviy boyligi bilan ajralib turadi. Yakka farzandlar voyaga yetganlar bilan tezroq muloqotga kirishadi, ular bilan tengma-teng muomalada bo'ladilar, o'z fikrlarini ifoda etishdan tortinmaydilar hamda o'z fikr-mulohazalarini erkin himoya qila oladilar. Nutqlari yaxshi rivojlanganligi sababli ular kattalarning so'zlashuv uslubi va mavzularini tengqurlariga nisbatan vaqtliroq o'zlashtirib oladilar.

Yakka farzandlar o'zini o'zi yuqori baholashlari bilan ajralib turadilar. Ularning emotsiyalari barqarorroq bo'lib, bu narsa aka-uka, opa-singlisi bilan raqobat yo'qligi tufayli

kam hayajonlanishi bilan shartlanadi [3]. Yakka farzandning o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyati yuqoriroq hisoblanadi.

Ammo shuni ham qayd etish zarurki, yakka farzand ota-onasi tomonidan kuchli otaliqqa olinadi, ortiqcha g'amxo'rlik ko'rsatiladi, asrab-avaylanadi, natijada ularda stressli vaziyatlarni yengish hamda murakkab muammolarni xal etishda qo'shimcha muammolarni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Баландина, Л.Л. Особенности взаимоотношений с сиблингами и сверстниками у детей из многодетных и однодетных семей / Л.Л. Баландина.
2. Ткачева, В.В. Гармонизация внутрисемейных отношений: папа, мама, я - дружная семья. Практикум по формированию адекватных внутрисемейных отношений / В.В.Ткачева. - М.: Гном и Д, 2010. - 160 с.
3. Фонарева, А.М. Развитие личности ребенка / А.М. Фонарева. - М.: Прогресс, 2011. - 272 с

SOCIAL PROBLEMS PRESENTED IN STEPHEN KING'S NOVELS THE DEAD ZONE AND THE GREEN MILE

Sharipova Guljahon Saparniyoz kizi

*1st year master's student of the Foreign languages and literature faculty, University of
Economics and Pedagogy*

E-mail: sharipovaguljahon0@gmail.com

Scientific advisor: **Turaeva Dilfuza Daminovna**

PhD., assoc.prof. of the University of Economics and Pedagogy

Abstract. Stephen King's *The Dead Zone* (1979) is often celebrated for its supernatural suspense, yet beneath its thrilling surface lies a profound commentary on American society. This article explores the novel's depiction of political corruption, mental health, and the ethical dilemmas of foresight, arguing that King uses his protagonist's psychic abilities as a lens through which to critique systemic injustices and societal fears during the Cold War era. Drawing on sociological and literary theory, the article demonstrates how King transforms genre fiction into a powerful medium for social critique.

Key words: Stephen King, *The Dead Zone*, social problems, politics, ethics, mental health, American society, Cold War.

Introduction. Stephen King's novels often transcend the horror genre by delving into deeper social and psychological issues. *The Dead Zone*, written in the late 1970s, is no exception. Set in a period marked by political disillusionment, post-Vietnam War trauma, and growing mistrust in government institutions, the novel tackles issues such as the abuse of political power, mental health stigma, and the moral responsibility of individuals with extraordinary knowledge. This article aims to analyze how King presents these problems, using his protagonist Johnny Smith's psychic abilities as both a narrative device and a metaphor for societal foresight.

Methods. The study employs a literary-sociological approach, combining close textual analysis with sociopolitical contextualization. Relevant scenes from *The Dead Zone* are interpreted through the lens of American political culture in the 1970s, and critical literature on King's work, including scholarly articles and interviews, are used to support

interpretations. The analysis draws from secondary sources in psychology and political theory to connect narrative developments with broader social themes.

Results. Political Corruption and Populist Danger: Greg Stillson, the antagonist, embodies the rise of dangerous populism. His charismatic yet authoritarian demeanor recalls real-world political figures who manipulate public fear for personal gain. King constructs Stillson as a sociopath whose charm conceals fascistic intentions. In one pivotal scene, Stillson uses a child as a human shield during an assassination attempt - a shocking symbol of moral bankruptcy in politics. His campaign rhetoric, filled with nationalism and threats, mirrors tactics employed by demagogues throughout history.

Stillson's tactics include blackmail, inciting violence among his followers, and threatening journalists - all tactics that serve to undermine democratic norms. His success highlights how the electorate can be seduced by superficial charisma and fearmongering, especially in times of socio-economic instability. King draws a disturbing parallel to the real threat of authoritarianism in democratic societies.

Mental Health and Social Isolation: Johnny's coma and subsequent psychic awakening symbolize society's treatment of mental and physical difference. Upon waking, he is alienated not only due to his powers but also because of the fear and skepticism of those around him. Even those who once loved him - like Sarah, his former fiancée - grow distant. The isolation Johnny experiences reflects broader stigmatization of those with neurological or psychological abnormalities.

Throughout the novel, Johnny is alternately idolized, investigated, and vilified. At one point, the media sensationalizes his story, turning him into a spectacle. He is treated more as an anomaly or threat than a human being. This dehumanization mirrors the real-world treatment of trauma survivors and those with disabilities - who often lack institutional support and are misrepresented in popular discourse.

Ethical Responsibility and the Burden of Knowledge: King poses a central ethical question: if one could prevent future atrocities, is it justifiable to commit a morally reprehensible act? Johnny's decision to assassinate Stillson is framed not as heroism, but as a tragic necessity. His moral dilemma resonates with debates about preemptive action in geopolitics, especially in the context of Cold War brinkmanship.

Johnny's visions - particularly the one in which Stillson initiates nuclear war - are deeply allegorical. They emphasize not only the stakes of political decisions but also the

loneliness of moral clarity. Johnny consults doctors, religious figures, and friends, seeking validation, but ultimately realizes that he alone can prevent catastrophe. His personal sacrifice is both heroic and profoundly tragic.

A notable scene that exemplifies this is when Johnny chooses to test his moral limits by shaking Stillson's hand to confirm his vision. The physical act of touch becomes an ethical threshold. From a literary perspective, this moment underscores the interface between private morality and public consequence.

Media and Exploitation: Another layer of King's social critique in *The Dead Zone* involves media sensationalism. Reporters follow Johnny relentlessly, misreporting his story and distorting facts. This reflects the increasing tabloidization of media in the 1970s and the public's appetite for scandal over substance. The media becomes complicit in Johnny's alienation, prioritizing profit over ethics.

King suggests that the media, far from being a neutral observer, often exacerbates the very social problems it reports on. By turning Johnny into a commodity, the press dehumanizes him, stripping away nuance from his story. This mirrors broader concerns about the erosion of public trust in journalism.

Discussion. King's *The Dead Zone* offers a nuanced reflection on the fears and moral ambiguities of the late 20th century. The Cold War nuclear threat is symbolized through Johnny's visions, and Stillson becomes an archetype of reckless political ambition. The novel critiques how American society responds to the unknown - with fear, suppression, and sometimes violence. Johnny, a tragic hero, is misunderstood not only because of his abilities but also because he dares to act on truths society would rather ignore.

Moreover, the novel invites discussion about the limits of democracy when charismatic demagogues manipulate media and public opinion. King's portrayal of media sensationalism surrounding Johnny also critiques how trauma is commodified and exploited.

King also explores the tension between individual agency and systemic control. Johnny's attempt to change the future is a powerful assertion of personal ethics against deterministic fatalism. But the cost is high: isolation, misunderstanding, and death. The novel argues that heroism often goes unrecognized, especially when it disrupts comfortable illusions.

Conclusion. *The Dead Zone* is more than a supernatural thriller—it is a sociopolitical parable. Through Johnny Smith's tragedy, King reflects on the burden of knowledge, the

danger of political extremism, the social marginalization of those who do not conform, and the complicity of media in shaping public perception. These themes remain disturbingly relevant in contemporary political discourse, proving King's enduring significance as a cultural commentator.

Future research could explore how the novel compares with other Cold War-era dystopian fiction and examine how King's narrative anticipates contemporary debates about surveillance, misinformation, and populism.

List of references:

1. King, S. (1979). *The Dead Zone*. Viking Press.
2. Magistrale, T. (2003). *Stephen King: America's Storyteller*. Praeger.
3. Collings, M. R. (1985). *The Many Facets of Stephen King*. Starmont House.
4. Alexander, L. (1984). "Fate, Free Will, and the Burden of Knowledge in *The Dead Zone*." *Journal of Popular Literature*, 12(3), 29-42.
5. Mamatqulov, B. (2021). "Amerika adabiyotida siyosiy obrazlar: Stiven King ijodiga nazar." *O'zbek adabiyoti va madaniyati*, 5(1), 23–30.
6. Yusupova, N. (2022). "XX asr Amerikan adabiyotida ijtimoiy muammolar aks ettirilishi." *Filologiya masalalari*, 3(2), 45–52.
7. Karimova, G. (2020). "Fantastik asarlar va real ijtimoiy muammolar: Stiven King asarlarining o'zbekcha talqini." *Til va Adabiyot*, 4(3), 75–84.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001- 3007.
9. Бахтиёрова, М. (2024). Atoqli otlarning umumnazariy muammolari. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(6), 40-45.
10. Ismoilov, A., & Bakhtiyorova, M. (2024). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3(7), 26-29.
11. Alisher o'g'li, I. A., & Bakhtiyorovna, B. M. (2024, May). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 10, pp. 748-752).
12. BAKHTIYOROVA, M. (2024). ONOMASTIK KONSEPT TUSHUNCHASI. *UzMU xabarlari*, 1(1.4), 288-292.

13. Камолова, Р. Ш., & Бахтиярова, М. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ КОННОТАЦИИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, ОПИСЫВАЮЩИХ ПОГОДУ. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 30-33.
14. Baxtiyorova, M. (2023). ONOMASTIKONLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 464-469.
15. Baxtiyorovna, B. M. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ONOMASTIKONLARNING CHOG'ISHTIRMA SEMANTIK TAHLILI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
16. Baxtiyorova, M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ASAR QAHRAMONLARI NOMLARINING MATN "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI VOLUME 3, ISSUE 01, 2025. YANUARY ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869 221 YARATISHDAGI ISHTIROKI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 268-273.
17. Bakhtiyorovna, B. M. (2022). Discursive-pragmatic nature of anthroponyms. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(9), 110-114.
18. Bakhtiyarova, M. B. (2021). VERBALIZATION OF THE CONCEPT" ONIM" IN LINGUOCOGNITOLOGY. Ростовский научный вестник, (3), 11- 12.
19. Baxtiyorova, M. B. (2020). ANTROPONIMLARNING SHAKLLANISHIDA MORFEMALARNING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI. Студенческий вестник, (36-3), 96-98.
20. Bakhtiyorova, M. (2019). THE EFFECT OF USING MNEMONICS. Студенческий вестник, (22-8), 63-65.
21. Pulatova, S., & Bakhtiyorova, M. (2019). THE STRUCTURALSEMANTIC ANALYSIS OF THE WORDS RELATED TO" SPORTS" IN PRESENT DAY ENGLISH. Студенческий вестник, (22-8), 69-71.
22. Bakhtiyorova, M., & Djumabayeva, J. (2017). WRITERS MAKE NATIONAL LITERATURE, WHILE TRANSLATORS MAKE UNIVERSAL LITERATURE. Студенческий вестник, (10), 55-56.
23. Bakhtiyorova, M., & Elmurodova, F. (2017). THE PRINCIPLES OF SEMANTICS. Студенческий вестник, (10), 52-54.

24. Bakhtiyorova, M., & Elmurodova, F. (2017). PAPERS IN ENGLISH. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК, 10, 52
25. Mamadiyorova Mariyam Kosim kizi, & Bakhtiyorova Maftuna Bakhtiyorovna. (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN CONTEMPORARY MEDIA AND THEIR IMPLICATIONS FOR VOCABULARY TEACHING. Journal of Universal Science Research, 3(1), 89–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14674390>
<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/9454>
26. Mamadiyorova , M. ., & Bakhtiyorova , M. . (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH (BASED ON MEDIA MATERIALS) AND THEIR ROLE IN TEACHING VOCABULARY. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 2(1), 187–191. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/43009>
27. Mamadiyorova , M. ., & Bakhtiyorova , M. . (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH (BASED ON MEDIA MATERIALS) AND THEIR ROLE IN TEACHING VOCABULARY. (2025). Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 3(1), 217-221. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/9503>

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH
DASTURIGA MOS IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI**

Islomova Feruza

International school of finance technology and science instituti 2-kurs psixologiya
yo'nalishi 03 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Baqoyeva Zarina Rayimovna**

Psixologiya va pedagogika kafedrası o'qituvchisi Telefon: +(99890) 062-81-82.

zbakaeva69@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashdan oldin ushbu dasturlar topshiriqlariga yaqin bo'lgan vazifalarni ishlatish orqali o'quvchilardagi ijodiy fikrlashni shakllantirish usullari, mavjud muammolar va ularga yechim ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilib beriladi. *Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning o'ziga, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, kasb mahoratlariga ham bog'liqligi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, TIMSS, PISA, o'qituvchi, pedagog, o'quvchilar, ijodiy fikrlash, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ
ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНОЙ
ПРОГРАММОЙ ОЦЕНИВАНИЯ**

Абстрактный. В статье перед подготовкой учащихся начальных классов к международным оценочным программам на основе научной литературы анализируются методы формирования творческого мышления учащихся путем использования задач, близких к задачам этих программ, существующие проблемы и пути их решения. Проанализированы реформы, реализуемые в сфере образования, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от самих учителей, их личностных и профессиональных качеств, профессиональных навыков.

Ключевые слова: международные оценочные программы, PIRLS, TIMSS, PISA, учитель, педагог, учащиеся, творческое мышление, учащиеся начальных классов.

METHODS OF TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO CREATIVE THINKING IN ACCORDANCE WITH THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Abstract. In the article, before preparing primary school students for international evaluation programs, methods of forming creative thinking in students by using tasks close to the tasks of these programs, existing problems and solutions to them are analyzed based on scientific literature. The reforms implemented in the field of education are analyzed and it is shown that the effectiveness of these reforms largely depends on the teachers themselves, their personal and professional qualities, and professional skills.

Key words: international assessment programs, PIRLS, TIMSS, PISA, teacher, pedagogue, students, creative thinking, primary school students

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yurtimizdagi ta'lim tizimini jahon andozalariga moslashishga va bizdagi ta'limni jahon tan olishiga xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlari o'z funksiyalariga ko'ra bir nechta turlarga ajratiladi. Ular quyidagilar:

PISA o'quvchilarning o'qish matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar savotxonlik darajasini baholaydi. Bu ulkan islohat va tadqiqotlar o'quvchi yoshlarning ijodiy, tanqidiy fikirlashlarning egallagan (olgan) bilimlarni hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil mashq va misollar orqali baho berish va kelajakda bu ko'nikmalar orqali rivojlantirishga zamin yaratadi.

PISA- (inglizcha-Programmer for international Student Assessment) – turli davlatlar 15-yoshli maktab o'quvchilarining, (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) savotxonligini baholash dasturi. Bu dastur har 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi, unda o'quvchilar bilim sifati fanlar bo'yicha monitoring o'tkaziladi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Dastur 1997-yilda ishlab chiqarilgan bo'lib, 2000-yilda birinchi marotaba qo'llanilgan. PISA dasturidagi Ona tili o'qish darslarida foydalanilgan, o'quvchilarni mantiqiy fikirlashga, turli xil xikoya matnlar bilan ishlashda e'tibor, sinchkovlik talab qiladigan vazifalar mashqlarni qo'llash o'quvchilarda hayotga intellektual qarashiga xizmat qiladi.

PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study') - Bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi;

• Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni patda uning alohida qismlarini bir -biri bilan bog'liq xolda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini izohlash uchun matnga tayana oladi.

• Yuqori daraja (550ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

• O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

• Quyi daraja (400 ba) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Bu boradagi ilk qadam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarorida o'z aksini topdi. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markaz tashkil etildi; va shu bilan birgalikda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi.

2021-yilda yurtimizda bir qancha maktablar tanlab olinib PIRLS xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki ta'minlandi.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydigan tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unda ilk bor qatnashgan O'zbekiston 57 davlat orasida o'rtacha balldan pastroq natijani qayd etib, 49-o'rinni egalladi.

Bunday past natijaning sabablaridan biri boshlang'ich ta'limdagi har bir ishtirokchi, yani, o'quvchi va o'qituvchilar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligida edi. Ushbu natijadan keyin boshlang'ich ta'limda bir qator islohotlar boshlandi. Jumladan, barcha darsliklar yangilandi va o'qituvchilar malakalari oshirilmoqda. Ammo, hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar mavjud.

Ushbu maqolada ilmiy va statistik ma'lumotlarga tayanib xalqaro baholash dasturlarida yuqori natija ko'rsatish uchun quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqdik:

1. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni ta'minlash uchun xalqaro baholash dasturlaridagi topshiriqlarga yaqin bo'lgan vazifalarni o'z ichiga olgan qo'llanmalar ishlab chiqish va ularni turli to'garaklar ko'rinishida boshlang'ich ta'limga jalb qilish;

2. Yurtimizdagi barcha oa-onalarni ham ushbu dastur bilan tanishtirish uchun teleko'rsatuvlar tashkil etish;
3. Oliy ta'limning boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan dasturlarni ham xalqaro baholash dasturlari standartlariga moslashtirish va dars soatlarini ko'paytirish.

Bugungi global va tahlikali zamonda eng munosib yo'lni topishga faqat ilm orqali yetish mumkin. Bu borada yurtimizning har bir fuqarosida mustaqil fikrlashi va saviyasini oshirishda kitobxonlikni ta'minlash lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
4. I.Abdirimova Z.Boymurodova, Xalqaro baholash tizimining asosiy xususiyatlari va ta'lim sohasidagi ahamiyati. "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar" mavzusidagi konferensiya materiallari to'plami. Chirchiq. 2023. 1425-1427 betlar.

BULUTLI TEXNALOGIYALAR: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

*Annaqulov O'lmasjon Ilhomjonovich
Qarshiyev Samandar Zayniddinovich*

SamDu Urgut filiali matematika va informatika yo'nalishi

Tel: +998902891828

Email: ulmasjonannaqulov@gmail.com

Annatsiya: Mazkur maqola inson hayotida bulutli texnologiyalarning o'rni, imkoniyatlari hamda inson hayotiga qanday ta'sir qilishi, rivojlanib borayotgan yurtimizda ushbu texnologiyalar orqali qanday ishlar olib borayotgani haqida bayon qilingan. Bulutli texnologiyalar zamonaviy IT infratuzilmasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ularga masofaviy kirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *Google Drive, Dropbox, OneDrive, IaaS (infratuzilma), PaaS (platforma), SaaS (dasturiy ta'minot), ma'lumotlarni saqlash, IT.*

Kirish. Bulutli texnologiyalar zamonaviy IT infratuzilmasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ularga masofaviy kirish imkonini beradi. Bugungi kunda korxonalar ushbu texnologiyalar yordamida o'z operatsiyalarini samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniga ega.

Bulutli texnologiyalar tushunchasi

Bulutli texnologiyalar nima?

Tayyoradi: Tohirov Behzod Nasriddinovich

Bulutli texnologiyalar – bu internet orqali ma'lumotlarni saqlash, ularga ishlov berish va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkonini beruvchi IT yechimlarining to'plamidir.



Ular odatda quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ma'lumotlarni saqlash

- Google Drive, Dropbox, OneDrive kabi xizmatlar yordamida fayllarni internetda saqlab, istalgan qurilmadan foydalanish mumkin.
- Fizik xotira qurilmalariga ehtiyoj kamaymoqda.

2. Kollektiv ish (hamkorlikda ishlash)

- Google Docs, Microsoft 365 kabi xizmatlar orqali bir nechta odam bir vaqtning o'zida bir fayl ustida ishlay oladi.
- Bu ish samaradorligini oshiradi va masofaviy ishga keng yo'l ochadi.

3. Biznes uchun qulayliklar

- Kompaniyalar serverlarga katta mablag' sarflamasdan, bulutli serverlardan foydalanib tizimlarini yuritishmoqda.
- AWS (Amazon Web Services), Microsoft Azure, Google Cloud kabi platformalar bunga imkon bermoqda.

4. Xavfsizlik va ishonchlilik

Bulutli texnologiya qanday ishlaydi?

Bulutli texnologiya turli xil dasturlar orqali internet orqali saqlash imkonini beradi. Virtual xotira bilan ma'lumotlaringiz onlayn saqlanadi. Shunday qilib, sizga qattiq disklar kabi jismoniy saqlash joylari kerak emas. Shuningdek, istalgan vaqtda ma'lumotlaringizga kirishingiz mumkin. Bulutli texnologiya API yoki amaliy dasturlash interfeysi tomonidan

ta'minlanadi va shuningdek, uchta toifadagi xizmatlarni taqdim etadi: IaaS (infratuzilma), PaaS (platforma), SaaS (dasturiy ta'minot).

Bulutli texnologiya nima qiladi?

Bugungi kunda har bir foydalanuvchi va kompaniya, xoh u jismoniy, xoh korporativ bo'lsin, bulutli texnologiyalardan foydalanadi. Bulutli texnologiya, ayniqsa faol internet foydalanuvchilari uchun zaruratga aylandi. Bulutli texnologiya tufayli saqlash, dasturiy ta'minot, hisoblash xizmatlari, holatni tiklash va foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi kabi ko'plab xizmatlar virtual Internet orqali amalga oshiriladi. U nafaqat shaxslar o'rtasida, balki muassasalar o'rtasida ham tez-tez qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash muassasalaridan tortib xavfsizlik kompaniyalarigacha, har bir tashkilot o'z ish joylarini yaxshilash va mijozlariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish uchun bulutli texnologiyadan foydalanadi. Bulutli texnologiyaning afzalliklari nimada?

Bulutli texnologiyaning eng katta afzalligi shundaki, siz hech qanday diskni talab qilmasdan ma'lumotlaringizni saqlashingiz va istalgan vaqtda istalgan qurilmadan kirishingiz mumkin. Telefoningiz yoki kompyuteringizda katta hajmdagi hujjatlaringiz juda ko'p joy egallashidan xavotirlanishingiz shart emas. Siz shunchaki elektron pochta manzilingiz va parolingizni kiritish orqali boshqa qurilmalardagi rasmlaringiz, videolaringiz va boshqalarga bir zumda kirishingiz mumkin. Yana bir afzalligi shundaki, bulut texnologiyasi hech qanday o'rnatishni talab qilmaydi. Odatda, bu ilovalar mobil qurilmalaringizda oldindan o'rnatilgan bo'ladi. Agar yo'q bo'lsa, uni Google Play yoki AppStore'dan osongina yuklab olishingiz mumkin. Shunday qilib, bulut texnologiyasidan hech qanday muassasaga ulanmasdan foydalanishingiz mumkin. Korporativ kompaniyalar tomonidan bulutli texnologiyadan foydalanish ularni katta xarajatlardan qutqarishi mumkin. Shunday qilib, kompaniyalar dasturiy ta'minotni o'rnatish yoki ma'lumotlar markazini o'rnatish kabi faoliyat uchun qo'shimcha pul to'lashlari shart emas. Bundan tashqari, ma'lumotlaringiz bulutda zaxiralanadi. Shunday qilib, telefoningiz yoki kompyuteringizga biror narsa yuz bersa, ma'lumotlaringizni yo'qotmaysiz. Shu munosabat bilan aytishimiz mumkinki, bulutli texnologiya xavfsizlikni oshiradi.

Bulutli texnologiya ma'lumotlaringizni ehtimoliy tahdidlardan ham himoya qiladi. Bundan tashqari, fayllaringizni xohlaganingiz bilan baham ko'rishingiz mumkin. Sizing ruxsatingizsiz hech kim fayllaringizga kira olmaydi. Internetga ulangan bo'lsangiz ham, istalgan vaqtda va istalgan joyda ma'lumotlaringiz va hisoblash resurslaringizga kirishingiz

mumkin. Bulutli texnologiya HDDlarga qaraganda ko'proq saqlash joyini ta'minlaydi. Ehtimol, bulutli texnologiyaning yagona kamchiligi shundaki, siz ma'lumotlaringizga faqat internetga ulanganda kirishingiz mumkin. Chunki ma'lumotlaringiz internetdagi virtual xotira bilan himoyalangan. Shuning uchun, agar siz turgan joyda internetga ulanmagan bo'lsangiz, ma'lumotlaringizga kira olmaysiz. Biroq, fayllarni oflayn rejimda ko'rish imkonini beruvchi turli ilovalar tufayli siz ushbu fayllarni qurilmangizga yuklab olishingiz va Internetga kirish imkoningiz bo'lganda ularni oflayn rejimda ishlatishingiz mumkin.

Xulosa

Har tomonlama rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar zaminida Bulutli texnologiyalar hozirgi zamon axborot infratuzilmasining asosiy ustuniga aylanmoqda. Ular foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlariga istalgan joydan va istalgan qurilmadan xavfsiz va tezkor kirish imkonini beradi. Ayniqsa, pandemiyadan so'ng masofaviy ish va o'qish shakllari keng yoyilgani sababli bu texnologiyalarning ahamiyati yanada oshdi. Bulutli xizmatlar ta'lim, tibbiyot, biznes, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab sohalarda ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalar xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Umuman olganda, bulutli texnologiyalar inson hayotini raqamlashtirish va soddalashtirishda muhim o'rin tutadi hamda kelajakda bu jarayon yanada kengayishi kutilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlanov Aziz Bagbekovich. (2024). *Bugungi kunda bulutli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, afzalligi va kamchiliklari*. Intellectual Education: Technological Solutions and Innovative Digital Tools, Vol. — Bulutli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni, afzalliklari va kamchiliklari haqida tahlil.
2. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Nortojoyeva Iroda Oybek qizi. (2024). *Bulutli texnologiyalarda axborot xavfsizligini ta'minlash*. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. — Bulutli hisoblash tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari va yechimlari.
3. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Ismatullayeva Mahinur. (2024). *Bulutli texnologiyalarni sohalar bo'yicha qo'llash*. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. — Ta'lim, tibbiyot, logistika, bank va biznes sohalarida bulutli texnologiyalarning qo'llanilishi.

4. Maxmudova Maloxat Axmatovna. (2024). *Bulutli xizmat ko'rsatish platformalarining ta'lim jarayonida foydalanishning ahamiyati*. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, Vol. 2, No. 1. — Ta'lim jarayonida bulutli xizmat ko'rsatish platformalarining samaradorligi va afzalliklari.

5. Aliyev Azamat, Rasuleva Maprat. (2023). *O'zbekiston bank tizimlarida bulutli texnologiyalardan foydalanish jihatlari*. Евразийский журнал академических исследований, Vol. 3, No. 4. — O'zbekiston bank tizimlarida bulutli texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlanish istiqbollari.

O'QUVCHILARNI MA'NAVIIY AHLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI SHAKLLARI VA USULLARI

Xalbayeva Nasiba Raxmanovna

Osiyo Xalqaro Universiteti 1- bosqich magistrant

nastyarakhmanovna24@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sabirova Nasiba Ergashevna

Annotatsiya: Mazkur ishda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axloqiy nazorat va o'z-o'zini baholashning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shaxsning axloqiy jihatdan yetuk bo'lib voyaga yetishi uning o'zini nazorat qilishi va harakatlariga ongli baho bera olishiga bog'liq. Ishda ichki va tashqi axloqiy nazorat tushunchalari, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish usullari va ularning tarbiyadagi ahamiyati keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axloqiy nazorat, o'z-o'zini baholash, ichki nazorat, vijdon, shaxsiy rivojlanish, ma'naviy tarbiya, tashqi baho, mas'uliyat, tarbiyaviy usullar.

Аннотация: В данной работе рассматривается роль и значение нравственного контроля и самооценки в духовно-нравственном воспитании учащихся. Формирование морально зрелой личности напрямую связано с её способностью к самоконтролю и осознанной оценке собственных поступков. В работе подробно анализируются понятия внутреннего и внешнего нравственного контроля, а также методы формирования навыков самооценки и их значение в воспитательном процессе.

Ключевые слова: Нравственный контроль, самооценка, внутренний контроль, совесть, личностное развитие, духовное воспитание, внешняя оценка, ответственность, воспитательные методы.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda mustahkam ma'naviy asoslar va sog'lom axloqiy qarashlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga milliy qadriyatlar, odob-axloq me'yorlarini singdirish – ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Bu jarayon o'quvchining shaxsiy kamoloti, ijtimoiy hayotga moslashuvi va vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu nafaqat axloqiy me'yorlarni o'rgatish, balki yoshlarning ichki dunyosini boyitish, ularni hayotda mustaqil to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, ijobiy fazilatlarni chuqur anglashga yo'naltirishdir. Tarbiyaning bu yo'nalishini samarali amalga oshirish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi.

Tarbiyaning shakllari:

1. Sinfдан tashqari ishlar – tarbiyaviy soatlar, turli mavzulardagi davra suhbatlari, ma'naviyat kunlari, sport musobaqalari, teatr tomoshalari orqali o'quvchilarning ongiga axloqiy me'yorlar singdiriladi.

Bugungi globallashuv davrida o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlar asosida ongini va tafakkurini boyitish ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishidir. Ushbu jarayonda sinfdan tashqari ishlar muhim o'rin tutadi.¹

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi: Ma'naviy tarbiya — bu o'quvchilarda axloqiy mezonlarni, jamiyatda mavjud bo'lgan ezgu g'oyalarni anglash, ularni ongli ravishda o'z hayotiga tadbiiq etish jarayonidir. Axloqiy tarbiya esa yaxshi-yomonni farqlash, odob-axloq qoidalariga rioya qilishga o'rgatishdir.

Sinfдан tashqari ishlarning ahamiyati: Sinfдан tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

shuningdek, ma'naviy olamini boyitishda katta ahamiyatga ega. Ular orqali darsda berilmagan, biroq hayotiy jihatdan muhim bo'lgan tarbiyaviy masalalarni yoritish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari: Ma'naviy-ma'rifiy kechalar (masalan, "Odob – inson ziynati" kechasi) Axloqiy mavzularda davra suhbatlari. Vatanparvarlikka oid tadbirlar (bayramlar, xotira kunlari). Kitobxonlik haftaliklari. Tarbiyaviy ekskursiyalar (muzey, tarixiy joylar). Ijtimoiy loyihalar (mehr-shafqat aksiyalari, ijtimoiy ko'mak loyihalari)

Samarali usullar: Suhbat va bahs-munozaralar – o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Rolli o'yinlar va sahnalashtirish – o'zini boshqa birov o'rniga qo'yib ko'rish imkonini beradi. Hayotiy misollar orqali tarbiya – real voqealar asosida o'rgatish ko'proq ta'sir qiladi. Axloqiy muammolar ustida fikrlash – darsdan tashqari turli muammoli holatlar ustida o'quvchi mustaqil qaror chiqarishga undaladi. Yaxshi xulq uchun rag'bat – o'quvchilarning ezgu ishlari ochiq e'tirof etiladi.

O'qituvchi va ota-onaning hamkorligi: Ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi bilan ota-onaning uzviy hamkorligiga bog'liq. Sinfdan tashqari ishlar orqali ular o'zaro aloqani kuchaytirib, birgalikda farzandga to'g'ri yo'l ko'rsatishlari mumkin. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida sinfdan tashqari ishlar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyatlar ularning qalbi va ongida ezgulik urug'larini qadash, hayotga sog'lom qarashni shakllantirish, milliy g'urur va yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda muhim vositadir. O'qituvchilar, ota-onalar hamda jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirda bu ishlar yanada samarali bo'ladi.²

2. Oila va maktab hamkorligi – ota-onalar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar, maslahatlar orqali farzand tarbiyasida yagona yondashuv ta'minlanadi. Yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda oila va maktabning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola shaxs sifatida avvalo oilada shakllanadi, maktab esa bu tarbiyani davom ettiruvchi va yo'naltiruvchi muassasadir. Agar ota-ona va o'qituvchi bir yoqadan bosh chiqarib, yagona maqsad sari harakat qilsa, farzandning tarbiyasi yanada samarali bo'ladi.

² Jo'rayev N. Pedagogika va psixologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2016.

Aksincha, bu ikki muhit o'rtasida uzilish yoki kelishmovchilik bo'lsa, bola ruhiyatida ikkilanma holatlar yuzaga keladi. Shu bois bugungi kunda maktab bilan oilaning doimiy muloqoti va hamkorlikdagi faoliyati har qachongidan muhimroqdir.³

3. Ijodiy faoliyat – o'quvchilarni adabiy ijodga, rasm chizishga, sahna ko'rinishlari tayyorlashga jalb etish orqali ularning ma'naviy olami boyitiladi. Inson tafakkurining eng yuksak ko'rinishlaridan biri bu – ijoddir. Ijodiy faoliyat kishining o'z fikrini, his-tuyg'ularini, dunyoqarashini noyob shaklda ifoda etishiga imkon beradi. Har bir insonning qalbida yaratuvchanlikka bo'lgan ichki ehtiyoj mavjud bo'lib, bu ehtiyoj to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatda katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlodning ijodiy salohiyatini erta aniqlab, uni rivojlantirish orqali ularda mustaqil fikrlash, yangilikka intilish, o'ziga bo'lgan ishonch kabi fazilatlar shakllanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish, unga sharoit yaratish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Tarbiyaning usullari:

1. Suhbat va munozaralar – o'quvchilar bilan axloqiy mavzularda ochiq muloqot olib borish, turli hayotiy vaziyatlarga nisbatan fikr bildirishga undash orqali mustaqil dunyoqarash shakllantiriladi.

Suhbat — bu tarbiyachining o'quvchi bilan yuzma-yuz muloqot orqali axloqiy, ma'naviy yoki ijtimoiy mavzularda fikr almashishi bo'lib, o'quvchining ichki dunyosiga bevosita kirib borish imkonini beradi. Bu usul yordamida o'quvchilarga kerakli axborot beriladi, ularning dunyoqarashi kengaytiriladi, muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatiladi.

Suhbat usulining afzalliklari: Har bir o'quvchiga alohida yondashish imkonini beradi. O'quvchilarning ichki kechinmalari, muammolari aniqlanadi. Tarbiyachi va o'quvchi o'rtasida ishonchli muhit shakllanadi. Suhbat mavzulari: odob, halollik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, do'stlik, ijtimoiy xulq.

Munozara — bu o'quvchilarning biror mavzuda bahs yuritishi, o'z fikrini isbotlashga harakat qilishi orqali amalga oshiriladigan tarbiya usulidir. Bu usul orqali bolalarda fikr almashish, e'tiroz bildirish madaniyati, dalillash, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

³ To'raqulov O. Shaxs va tarbiya. – T.: "Yangi asr avlodi", 2021

Munozaraning tarbiyaviy ahamiyati: O'quvchilar faol ishtirok etadi. Har bir fikr muhokama qilinadi. Shaxsiy qarashlar ochiq ifodalanadi. Fikr xilma-xilligi orqali bag'rikenglik tarbiyalanadi.

Munozara uchun mavzular: "Yaxshi do'st qanday bo'ladi?", "Telefon foydami, zarar?", "Odob — axloqning asosi", "Ko'p kitob o'qishning foydasi".

Suhbat va munozaralarning uyg'unligi: Amaliyotda ko'pincha bu ikki usul birgalikda qo'llaniladi. Dastlab tarbiyachi mavzuni kirish suhbatida ochib beradi, so'ng o'quvchilar fikr bildiradi va munozara shaklida davom etadi. Bunday yondashuv orqali bolalarda axloqiy ong va tafakkur bir vaqtda rivojlanadi. Suhbat va munozara usullari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali bolalarning nutqi, fikrlashi, savol-javob madaniyati, mustaqil fikri shakllanadi. Eng muhimi, bu usullar bolani tinglashga, tushunishga va hurmat qilishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bu usullarni o'z faoliyatida samarali qo'llasa, yosh avlodda barkamol shaxsiy fazilatlar barpo etiladi. Suhbat va munozara usullari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali bolalarning nutqi, fikrlashi, savol-javob madaniyati, mustaqil fikri shakllanadi. Eng muhimi, bu usullar bolani tinglashga, tushunishga va hurmat qilishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bu usullarni o'z faoliyatida samarali qo'llasa, yosh avlodda barkamol shaxsiy fazilatlar barpo etiladi.

2. Shaxsiy namunaviylik – o'qituvchi va kattalarning namunasi tarbiyaning eng samarali vositalaridan biridir. O'quvchi ko'proq ko'rgan, guvoh bo'lgan holatlardan o'rnak oladi. Tarbiya jarayonida o'qituvchi yoki tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, xulqi va hayotiy qarashlari o'quvchilar uchun kuchli psixologik ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun ham tarbiyada shaxsiy namunaviylik alohida o'rin tutadi. Bolalar faqat darsda emas, balki o'qituvchining yurish-turishi, gap-so'zi, muomalasi orqali ham tarbiyalanadi. Ular ko'pincha aytilgan nasihatdan ko'ra, ko'rgan amaliy misoldan ko'proq ta'sirlanadi. Shu bois har bir tarbiyachi avvalo o'zini tarbiyalashi, o'z harakatlari orqali ibrat bo'lishi zarur.

Shaxsiy namunaviylik nima?

Shaxsiy namunaviylik — bu tarbiyachining o'z xulqi, yurish-turishi, gapirgan so'zi va qilgan amali bilan boshqalarga ijobiy namuna bo'lishidir. Bu jarayonda tarbiyachi faqat bilim beruvchi emas, balki hayotiy ibrat ko'rsatuvchi shaxs sifatida ishtirok etadi.

Shaxsiy namunaviylikning tarbiyadagi o'rnini: O'quvchi o'qituvchining qilayotgan amallariga qarab o'rnak oladi. Og'zaki nasihatdan ko'ra, amaliy namuna kuchliroq ta'sir qiladi. O'qituvchining odobi, sadoqati, halolligi bolalar tomonidan bevosita kuzatiladi va ichki qabul sifatida shakllanadi.

Shaxsiy namunaviylikning asosiy ko'rinishlari: Gap bilan amal birligi — aytganini o'zi bajarishi. Halollik va adolatga sodiqlik. Doimo toza, intizomli va madaniyatli bo'lish. O'quvchilarga hurmat, sabr va mehr bilan yondashish. Har qanday vaziyatda o'zini tutish madaniyatini namoyon etish.

Shaxsiy namunaviylikni yo'qotish oqibatlari: Agar o'qituvchi yoki tarbiyachi o'zi aytayotgan gapga zid amal qilsa, bu o'quvchilarda ishonchsizlik, ikkiyuzlamachilik va befarqlikni vujudga keltiradi. Tarbiya so'zda emas, amalda ko'rilganda kuchli samara beradi. Shaxsiy namunaviylik — bu tarbiyaning asosi, ildizi va yuragi hisoblanadi. Qanchalik ko'p dars o'tilmasin, qanchalik chiroyli nasihatlar aytilmasin, agar u amalda ko'rinmasa, natija bermaydi. Har bir tarbiyachi yosh avlodga ibrat bo'lishi, ularga hayot sabog'ini o'z shaxsiy misoli orqali ko'rsatishi kerak. Chunki eng kuchli ta'lim — bu namunadir.

3. Rag'batlantirish – maqto'v, sovrin, faxriy yorliqlar orqali o'quvchilarning ijobiy xatti-harakatlari mustahkamlanadi. Insoniyat tarixida tarbiyaning eng kuchli vositalaridan biri bu — rag'batlantirishdir. Rag'bat orqali insonning ichki ehtiyojlari, intilishlari uyg'onadi, unga ishonch va kuch bag'ishlanadi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda rag'batlantirish usuli muhim o'rin egallaydi. Har bir bolaning ichki olami nozik va sezgir bo'lib, uning harakatlari, yutuqlari va ijobiy xatti-harakatlari e'tirof etilsa, bu bola uchun katta ruhiy tayanch bo'ladi. Shu sababli rag'batlantirish tarbiyaning ajralmas va samarali usullaridan biri sifatida qaraladi.

Rag'batlantirish nima?

Rag'batlantirish — bu o'quvchi yoki farzandning yaxshi xulqi, yutug'i, harakati uchun og'zaki, yozma yoki moddiy shaklda e'tirof etilishi, maqtalishi va qo'llab-quvvatlanishidir. Rag'batlantirishning turlari: Og'zaki rag'bat: maqto'v, rahmat aytish, ijobiy fikr bildirish.

Yozma rag'bat: faxriy yorliq, diplom, maktub yoki e'lonlar orqali.

Moddiy rag'bat: sovg'a, mukofot, qo'shimcha imkoniyatlar yaratish.

Axloqiy rag'bat: obro'-e'tibor, jamoat oldida tan olinish, mas'uliyat topshirish.

Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati: Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Ijobiy xulq-atvor mustahkamlanadi. Rag'bat kutilgan natijani ko'paytiradi, bolani harakatga undaydi. O'quvchining jamoadagi faolligi oshadi. Salbiy xatti-harakatlar kamayadi, o'z-o'zini boshqarish shakllanadi.

Rag'batlantirishda muvozanat: Rag'bat o'z o'rnida va adolatli bo'lishi kerak. Har bir bola mehnatiga yarasha baholanishi lozim. Nohaq yoki haddan tashqari ko'p rag'bat esa o'quvchini keraksiz ustunlik yoki loqaydlikka olib kelishi mumkin. Rag'batlantirish — bu o'quvchi qalbiga ijobiy ruh bag'ishlaydigan, uning salohiyatini ochib beradigan kuchli tarbiyaviy vositadir. To'g'ri tashkil etilgan rag'bat tizimi o'quvchini intilishga, yutuqqa, yaxshi xulqqa undaydi. Har bir o'qituvchi, ota-ona va tarbiyachi bu usuldan ongli va adolatli foydalansa, natija albatta ijobiy bo'ladi. Ezgulikni e'tirof etish — yana ko'proq ezgulik sari yetaklaydi.

4. Axloqiy nazorat va o'z-o'zini baholash – o'quvchilarda o'z xatti-harakatlariga tanqidiy qarash, xulqini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti uzluksiz tarbiya va o'zini anglash jarayonida shakllanadi. Bu jarayonda axloqiy nazorat va o'z-o'zini baholash muhim o'rin tutadi. Inson o'z xatti-harakatlarini baholay olmasa, uni to'g'rilash va yuksaltirishga qodir bo'lmaydi. Axloqiy nazorat esa tashqi va ichki nazorat orqali amalga oshadi. Tashqi nazorat — bu jamiyat, ota-ona yoki o'qituvchining bahosi bo'lsa, ichki nazorat — bu insonning o'z vijdoni, ongli qarorlar asosidagi bahosidir. Aynan shu ichki baholash qobiliyati shakllangan shaxs ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, halol va irodali bo'ladi.⁴

Axloqiy nazorat nima?

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ-4312-son, 2019 yil 3 may. "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida".

Axloqiy nazorat — bu insonning o‘z xatti-harakatlarini jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, odob-axloq me‘yorlari asosida kuzatib borishi, boshqarishi va to‘g‘rilashidir. Tashqi axloqiy nazorat: ota-ona, ustoz, jamoa tomonidan beriladigan baho va tahlil. Ichki axloqiy nazorat: insonning vijdoniga tayanib o‘zini kuzatishi va baholashi.

O‘z-o‘zini baholashning ahamiyati. O‘z-o‘zini baholash — bu o‘z fikrlari, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, ijobiy yoki salbiy tomonlarini aniqlash va ulardan xulosa chiqarishdir. Bu odat bolada mas‘uliyat hissini shakllantiradi. Har bir ishga ongli yondashish tuyg‘usini beradi. Mustaqil qaror qabul qilish va o‘zini to‘g‘rilashga o‘rgatadi.

O‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish yo‘llari: Darslardan so‘ng o‘z faolligini yozma tahlil qilish. Yutuq va kamchiliklarini o‘zlari aytib berish. O‘zining kunlik xatti-harakatlarini tahlil qilib borish (kundalik yuritish). Guruhdagi faoliyatda o‘z o‘rnini baholash. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar vositasida tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, ma‘naviy mavzudagi videoroliklar, interaktiv o‘yinlar, onlayn munozaralar orqali o‘quvchilarning qiziqishi ortadi va ular faol ishtirok etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda uzluksiz, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv zarur. An‘anaviy va innovatsion usullar uyg‘unligi, maktab-oila jamiyati hamkorligi orqali har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Axloqiy nazorat va o‘z-o‘zini baholash shaxs kamolotining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jihatlar orqali o‘quvchi o‘z harakatlarini tahlil qilishni, xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishni, ichki irodasini mustahkamlashni o‘rganadi. Tarbiya jarayonida bu ko‘nikmalarni shakllantirish muhim vazifa bo‘lib, ular o‘z-o‘zini boshqaruvchi, mas‘uliyatli, vijdonli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘qituvchi va ota-onalar bu jihatlarga e‘tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. Jo‘rayev N. Pedagogika va psixologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2016.
3. Qodirova M. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.

4. To‘raqulov O. Shaxs va tarbiya. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ–4312-son, 2019 yil 3 may. “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”.

THE ROLE OF DIGITAL PEDAGOGY IN DEVELOPING 21st CENTURY SKILLS IN SECONDARY EDUCATION

Kadirova Nodira Kamilovna

Teacher of the Department of Applied Sciences of the 3rd English Faculty

E-mail: kodirovanodira0@gmail.com

Phone: 97-726-22-52

Annotation. This article examines the transformative role of digital pedagogy in fostering 21st century skills among secondary school students. As education systems worldwide adapt to technological advancements and the demands of the digital age, integrating digital tools and methods into pedagogy has become essential. The paper explores how digital pedagogy defined as the thoughtful integration of digital technologies with pedagogical strategies enhances skills such as critical thinking, creativity, collaboration, communication, digital literacy, and problem-solving. Drawing from empirical studies and global education frameworks, the article highlights how virtual learning environments, educational apps, gamification, and online collaboration platforms contribute to deeper student engagement and the development of transferable competencies. Furthermore, it investigates the challenges educators face in implementing digital pedagogy, including the digital divide, lack of professional training, and resistance to change. Practical recommendations are offered for policymakers, curriculum developers, and educators to ensure the effective incorporation of digital tools into secondary education. The study ultimately argues that digital pedagogy is a pivotal instrument for preparing students for success in an increasingly complex and interconnected world.

Keywords: digital pedagogy, 21st century skills, secondary education, digital literacy, educational technology, innovation.

Introduction. In the rapidly evolving landscape of education, the integration of digital pedagogy has emerged as a central strategy for cultivating 21st-century skills among secondary school students. As technological advancements continue to reshape the demands of the global workforce and society, educational systems are under increasing pressure to

equip learners with competencies that go beyond rote memorization and standardized testing¹. These skills include critical thinking, creativity, collaboration, communication, digital literacy, and problem-solving all of which are essential for students to thrive in the complex, interconnected, and information-rich world of the 21st century.

Digital pedagogy, defined as the deliberate use of digital tools and platforms in combination with sound pedagogical principles, offers innovative opportunities for educators to redesign the teaching and learning process. Rather than merely incorporating technology for its own sake, digital pedagogy emphasizes purposeful integration that aligns with instructional goals and learner needs. In secondary education, where students are at a formative stage of intellectual and social development, such integration can be particularly impactful². Through virtual learning environments, interactive software, gamification techniques, and online collaborative projects, students are encouraged to take ownership of their learning, engage in meaningful inquiry, and connect with peers beyond geographical boundaries. Moreover, digital pedagogy fosters student agency and autonomy, enabling personalized learning experiences that adapt to individual learning styles and paces.

However, the implementation of digital pedagogy is not without challenges. Disparities in access to technology (the digital divide), lack of teacher training, resistance to pedagogical change, and concerns about screen time and information overload remain significant barriers. These obstacles necessitate systemic support, including professional development for teachers, infrastructure investment, and evidence-based policy reforms³. Furthermore, educators must develop digital pedagogical content knowledge to effectively balance subject matter expertise, technological tools, and student-centered methodologies. This article explores the role of digital pedagogy in developing 21st century skills in secondary education by analyzing current research, case studies, and global frameworks. It aims to provide a comprehensive understanding of how digital approaches can enhance teaching and learning while preparing students for the demands of the future.

¹ Voogt, J., & Roblin, N. P. A Framework for 21st Century Competencies. – OECD, 2012. – p. 1–44.

² Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. – Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 2010. – p. 255–284.

³ Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – UK, Bloomsbury Academic, 2016. – p. 1–272.

By highlighting both the potential and the practical considerations of digital pedagogy, the study underscores its relevance as a transformative force in modern education and as a cornerstone for the creation of inclusive, innovative, and future-ready classrooms⁴. The main body of this study explores how digital pedagogy actively contributes to the development of 21st century skills in secondary education by reshaping instructional methods, learning environments, and student-teacher interactions. At the core of digital pedagogy lies a shift from traditional, teacher-centered approaches to student-centered learning models that emphasize collaboration, creativity, and problem-solving⁵. These competencies widely recognized as fundamental for learners in the 21st century are difficult to cultivate through conventional lecture-based instruction alone. Digital tools and platforms provide dynamic, interactive spaces where students can engage in experiential learning, participate in authentic tasks, and collaborate in real-time with peers from diverse backgrounds. For instance, the use of online discussion forums, multimedia presentations, coding programs, and virtual labs offers students not only a chance to absorb content but also to apply knowledge in innovative and meaningful ways.

One of the most significant advantages of digital pedagogy is its ability to support personalized learning. Adaptive technologies can tailor educational content to the learner's pace, preferences, and prior knowledge, thereby enhancing motivation and academic performance. Students who struggle in traditional settings may benefit from differentiated resources such as instructional videos, gamified assessments, or interactive simulations that reinforce complex concepts. Moreover, digital pedagogy facilitates continuous formative assessment through real-time feedback and analytics, allowing teachers to monitor progress and adjust instruction accordingly. This iterative learning process helps students develop metacognitive skills, such as goal-setting, self-regulation, and reflection key components of lifelong learning. Collaboration is another essential pillar of 21st century skill development supported by digital pedagogy.

⁴ Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. – Teachers College Record, 108(6), 2006. – p. 1017–1054.

⁵ Redecker, C. The Future of Learning: Preparing for Change. – Luxembourg, Publications Office of the European Union, 2017. – p. 1–76.


Tools like Google Workspace, Microsoft Teams, and collaborative whiteboards allow students to co-create documents, exchange ideas, and solve problems collectively, often across cultural or linguistic boundaries⁶. Such collaborative environments simulate the globalized workforce and encourage students to practice communication, negotiation, and empathy skills vital for success in the modern world⁷. Additionally, digital pedagogy promotes digital literacy by teaching students how to navigate information critically, evaluate sources, and engage ethically with online content. This is particularly crucial in an era dominated by social media, misinformation, and rapidly evolving technologies. Despite its benefits, implementing digital pedagogy requires overcoming certain challenges. Not all students have equal access to devices or reliable internet, which can exacerbate existing educational inequalities.

Teachers may also face difficulties in effectively integrating technology due to limited training or resistance to change. Therefore, successful adoption of digital pedagogy hinges on systemic support, including investments in infrastructure, ongoing professional development, and leadership that promotes a culture of innovation and risk-taking. When these elements are in place, digital pedagogy becomes a powerful tool for preparing students to thrive in an unpredictable, fast-changing future, where adaptability, collaboration, and creativity are as critical as content knowledge.

Figure. Key 21st century skills fostered by digital pedagogy.

⁶ Anderson, T., & Dron, J. Three Generations of Distance Education Pedagogy. – *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 2011. – p. 80–97.

⁷ Dede, C. Comparing Frameworks for 21st Century Skills. – Harvard Graduate School of Education, 2010. – p. 1–12.



This pie chart illustrates the relative emphasis digital pedagogy places on developing various 21st century skills in secondary education. Collaboration and communication (30%) occupy the largest portion, reflecting the central role of technology in facilitating teamwork, peer interaction, and global engagement. Critical thinking and problem-solving (25%) are also heavily emphasized, as digital tools promote inquiry-based learning and real-world task engagement. Digital literacy (20%) follows closely, given the necessity of equipping students with skills to navigate and evaluate digital content critically. Creativity and innovation (15%) are supported through multimedia, design tools, and project-based learning that encourage original thought. Lastly, self-regulation and autonomy (10%) are fostered via adaptive platforms and personalized learning paths⁸. These proportions reflect both the pedagogical potential and observed practice in digitally integrated classrooms, highlighting how digital pedagogy holistically contributes to students' preparation for the demands of the 21st century knowledge economy.

The results indicate that digital pedagogy significantly enhances a broad spectrum of 21st century skills, with particular emphasis on collaboration, communication, and critical thinking. The integration of digital tools not only transforms traditional instruction but also

⁸ Hattie, J. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. – UK, Routledge, 2012. – p. 1–296.

empowers students to take an active, reflective, and creative role in their learning. The data suggest that when thoughtfully implemented, digital pedagogy serves as a catalyst for inclusive, skill-oriented education that prepares learners to succeed in an increasingly complex and technology-driven world.

Conclusion. In conclusion, digital pedagogy plays a transformative role in shaping secondary education by fostering essential 21st century skills such as critical thinking, collaboration, creativity, digital literacy, and learner autonomy. As demonstrated throughout this study, the thoughtful integration of technology into teaching practices does more than modernize the classroom it redefines the learning experience to be more inclusive, interactive, and student-centered. Digital tools provide opportunities for personalized learning, real-time feedback, global collaboration, and dynamic content delivery, all of which contribute to deeper engagement and long-term skill development. The data and literature reviewed confirm that students not only acquire subject knowledge more effectively through digital pedagogy, but also develop transferable competencies that are crucial for lifelong learning and future employment.

However, the successful implementation of digital pedagogy depends on multiple factors: equitable access to technology, teacher preparedness, administrative support, and culturally responsive instructional design. Challenges such as the digital divide, varying levels of digital literacy among educators, and resistance to pedagogical innovation must be addressed through targeted policy measures, infrastructure development, and sustained professional training. Moreover, a shift in educational culture is required one that values flexibility, experimentation, and learner agency.

Overall, this study affirms that digital pedagogy is not merely an optional supplement to traditional education but a necessary evolution in preparing students for an increasingly digital and interconnected world. By embracing this approach, educators and institutions can equip students with the tools they need to thrive in a future that demands adaptability, collaboration, and critical digital competence. As such, digital pedagogy should be positioned at the center of secondary education reform and innovation strategies globally.

REFERENCE:

1. Anderson, T., & Dron, J. Three Generations of Distance Education Pedagogy. – The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 2011. – p. 80–97.

2. Dede, C. Comparing Frameworks for 21st Century Skills. – Harvard Graduate School of Education, 2010. – p. 1–12.
3. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. – Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 2010. – p. 255–284.
4. Hattie, J. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. – UK, Routledge, 2012. – p. 1–296.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. – Teachers College Record, 108(6), 2006. – p. 1017–1054.
6. Redecker, C. The Future of Learning: Preparing for Change. – Luxembourg, Publications Office of the European Union, 2017. – p. 1–76.
7. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – UK, Bloomsbury Academic, 2016. – p. 1–272.
8. Voogt, J., & Roblin, N. P. A Framework for 21st Century Competencies. – OECD, 2012. – p. 1–44.

HALIMA XUDOYBERDIYEVANING "AYOL O'TIB BORAR" SHE'RI TAHLILI

Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hassos shoira Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodiga nazar tashlanadi. Uning she'riyati, badiiyati mavzu va uslubiy jihatdan tahlil qilinadi, xususan, "Ayol o'tib borar" she'rining badiiy mohiyati tahlil qilinib, uning ijtimoiy va adabiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Halima Xudoyberdiyeva, ayol, sevgi, matonat, lirika, ijodiy uslub, o'zbek she'riyati.

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и творчество чуткой поэтессы Халимы Худойбердиевой. Тематически и методологически анализируются ее поэзия и творчество, в частности, анализируется художественная сущность стихотворения "Приходит женщина", раскрывается его общественное и литературное значение.

Ключевые слова: Халима Худойбердиева, женщина, любовь, упорство, лирика, творческий стиль, узбекская поэзия.

Annotation. This article looks at the life and work of sensitive poet Halima Khudoyberdiyeva. Her poetry and art are analyzed thematically and methodologically, in particular, the artistic essence of the poem "A Woman Passes By" is analyzed, and its social and literary significance is revealed.

Keywords. Halima Khudoyberdiyeva, woman, love, tenacity, lyrics, creative style, Uzbek poetry.

Boyovutning otash qalbli qizi Halima Xudoyberdiyeva 1947-yilda tavallud topgan. Juda kichiklik paytidanoq Sharof Rashidovning e'tiborini qozongan shoiraning ilk to'plami talabalik yillarida "Ilk muhabbat" nomi ostida chop etiladi. Shundan so'ng uning "Oq olmalar", "Suyanch tog'larim", "Chaman", "Issiq qor", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "Bu

kunlarga yetganlar bor”, “Yuragimning og‘riq nuqtalari”, “Saylanma” kabi bir qator she‘riy to‘plamlari nashr etiladi. Shoirira uzoq yillar samarali qalam tebratadi. Uning o‘zigagina xos bo‘lgan uslubi, yo‘li bor edi. U o‘z she‘rlarida butun sharq ayollarining fikr-o‘ylarini jamlagan, xissiyotlarini kuylagan, desak xato bo‘lmaydi. Uning she‘rlarida haqiqiy o‘zbek ayolining qarashlari, ibo-hayosi, jasorati-yu qisman tortinchoqligi hatto rashki aks etadi. Halima Xudoyberdiyeva haqida sevimli shoiramiz Zulfiyaxonim shunday deydi: “His-tuyg‘u Halimada shu qadar yaxlit, shu qadar haqiqiy kattaki, ko‘zlarida oftob yonib, saraton kezadi qonida”.

Darhaqiqat, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyat olamiga keskin, olovli so‘zlari bilan kirib keldi. Uning o‘ktam ovozi ayollar yuragidagi dard-u quvonch, hasrat va bardosh, muhabbat va nafratdan xabar berdi. U ijod yo‘liga Zulfiya, Uvaysiy, Anna Axmatova kabilarga havas qilarak kirib keldi va ularning safidan joy oldi.

Quyida shoiraning “Ayol o‘tib borar” she‘ri bilan tanishamiz.

Sen so‘rama, men ham aytmayin

Kuraklarim singanini qars.

Shovqin solma, men uyg‘otmayin,

Yuragimda yotar bir yo‘lbars.

Baland bir o‘t yongan ichimni

Men sovitib yashashim kerak.

O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,

Men ovutib yashashim kerak.

Ayol o‘tib borar sho‘x yurib,

Shamollarda soch yoygan ayol.

Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib

*Sirdan mayin jilmaygan ayol!*¹

Ushbu she'r 4+5=9 tarzida turoqlangan va o'zbek she'riyatida keng tarqalgan barmoq tizimining sodda vaznida yozilgan. Misralar qat'iyatli, o'tkir jumlar bilan boyitilgan va birinchi qatoridan boshlab o'quvchi yoki tinglovchini o'ziga jalb qila oladi.

Adabiy ramzlar orasida *yo'lbars*, *burgut* va *ot* ulug'vorlik, ichki qudrat, shijoat belgisi hisoblanadi. Shu bois lirikada ushbu obrazlardan keng foydalaniladi. Bu ramzlardan erkak obrazlar uchun foydalanilsa, noodatiy tuyilmaydi, ammo ayol ushbu ramzlardan foydalanishi-g'ayrioddiy va etni jimirlatuvchi hodisa. Misralarni o'qiyotgan o'quvchi behosdan yo'lbars ruhiyatli ayolni tasavvur qiladi, uning shijoati, mag'rurligini xayol qiladi.

Bizning shoiramizning ham umri boshqa ziyoli qatlamlar kabi og'riqli kechadi. Sirdan muloyim va mayin ko'ringan yuz ifodasi ortida ne tug'yonlar jo'sh urayotgani kimsaga ma'lum bo'lmaydi. Shu bois she'rlarida biroz alam, biroz shiddat aks etadi.

"Sen so'rama, men ham aytmayin

Kuraklarim singanini qars..."

Kabi misralar shoiraaning qalbidagi mislsiz jarohatlar, og'riqlarning ifodasidir.

Ayollar cheksiz sabr-bardosh sohibalaridir. Joni mingga bo'linib ketsa ham yuzida tabassum bilan yashayveradilar. Dilidagilarni so'ramasa-aytmaydi, jarohatlari bilan kimsalarga yuk bo'lishni istamaydi, neki bo'lsa ichiga yutadi. Quyidagi misralar esa ushbu fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi:

"O'z-o'zimga sarflab kuchimni,

Men ovutib yashashim kerak..."

"O'z-o'zimga sarflab kuchimni" jumlasini rosmiyan o'zbek ayolining gaplari hisoblanadi. Shu zamongacha o'zbek ayoli alamini boshqa biridan olganini kim ko'ribdiki, bundan buyog'iga kim ko'radi?!

¹ Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. - T. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. B.6

She’rning oxirgi misralarida “*shamollarda soch yoygan ayol*” jumlasida mavjud. Bu esa har qanday to’siq, hayot zarbalariga qarshi tik tura oladigan, o‘z fikri va qadamlari ortida sobit tura oladigan matonatli ayol demakdir.

She’rlar turli kayfiyat va jarayonlarda bitiladi. Shu bois o‘quvchi bir shoirning she’rlarida minglab holatlarni uchratadi. H.Xudoyberdiyevaning ham she’rlari shunday: ba’zan muhabbat bilan hayqirsa, ba’zan azob bilan nola chekadi. Ammo har qaysi misrasida ham faqat ungagina tegishli bo‘lgan qandaydir ruhiyat hukmronlik qiladi.

O‘zbekiston xalq shoirasi, “Qiyalib yashamoq-yozug‘im mening”,-deya “yuragida yo‘lbars o‘kirib” ijod qilgan, hayot chorahalarida sinovlarga tik boqqan Halima Xudoyberdiyeva she’riyatimizning gultoji, ayollar qalbining kuylovchisi edi. O‘z xissiyotlarini qog‘ozga to‘kkan shoira butun ayollarning xissiyotlarini kuylab badiiy olamdan mustahkam o‘rin egalladi, she’rlarini abadiyga qalblarga muhladi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar.- T. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018. B.6
2. Halima ruhoniyyati - Xalq so'zi. <https://xs.uz/uz/post/halima-ruhoniyyati>
3. Halima Xudoyberdiyeva. She’rlar & Eng qora ish,eng toza ish — bizning ishimiz... | Xurshid Davron kutubxonasi
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html>
5. G.Eshniyozova. “Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida qo‘llanilgan leksik birliklar”. SCIENTIFIC PROGRESS. www.scientificprogress.uz 527-529-betlar.
6. M.Xalova, F.Sadinov. “Yuragida yo‘lbars yotgan ijodkor” <https://worldlyjournals.com>

**TEXNOLOGIYA VA 3D TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MILLIY KIYIM
YARATISH**

Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna

Termiz davlat universiteti talabasi

xujamurodova3009@gmail.com

ANNOTATSIYA: Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, 3D texnologiyalar, milliy libos dizaynida yangi innovatsion imkoniyatlar yaratmoqda. 3D modellashtirish, virtual reallik (VR) va qo'shimcha reallik (AR) kabi ilg'or texnologiyalar dizaynerlarga milliy kiyimlarni yaratish jarayonida an'anaviy naqshlar va uslublarni yangi formatda aks ettirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot texnologiyalarning milliy liboslar ishlab chiqarish va dizayni sohasiga ta'sirini o'rganib, ularning hunarmandchilik va moda sanoatidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 3D texnologiyalar milliy libos dizaynida aniqlik, kreativlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Virtual prototiplash liboslarni fizik ishlab chiqarishdan oldin ularni raqamli formatda sinovdan o'tkazish imkonini beradi, bu esa material isrofini kamaytirish va ekologik barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, 3D bosma texnologiyalari orqali murakkab naqshlar va strukturalar an'anaviy usullarga qaraganda ancha tez va arzon yaratilishi mumkin. Texnologiyalar asosida milliy liboslar yaratish, nafaqat ularning dizayni va ishlab chiqarish jarayonini innovatsiyalashga, balki ularni xalqaro moda maydoniga olib chiqishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari milliy madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali yangi kreativ yondashuvlar yaratish imkoniyatlarini yoritadi.

KALIT SO'ZLAR: Milliy libos dizayni, 3D texnologiyalar, virtual modellashtirish, raqamli moda, texnologik innovatsiyalar, AR va VR, ekologik barqarorlik, 3D bosma, milliy naqshlar, hunarmandchilik va texnologiya uyg'unligi.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, 3D texnologiyalar, moda va dizayn sohasida inqilobiy o'zgarishlar kiritib, milliy liboslar yaratish jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy kiyimlar har bir xalqning tarixiy-madaniy merosi, milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi muhim san'at namunasi bo'lib, ularning dizaynida an'anaviy elementlar bilan birga zamonaviy texnologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, 3D modellashtirish va 3D bosma texnologiyalari, milliy liboslarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonida yangi imkoniyatlar ochib, dizaynerlarga kreativ yondashuvlarni sinab ko'rish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va mahsulot sifatini oshirish imkonini bermoqda. An'anaviy hunarmandchilik va moda texnologiyalarining uyg'unlashuvi milliy libos dizaynida innovatsion yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Odatda milliy kiyimlar tikish, kashtachilik, ipak yoki paxta matolarini ishlov berish kabi murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayonlardan iborat bo'lgan. Biroq 3D texnologiyalar bu jarayonlarni ancha soddalashtirish bilan birga, yangi badiiy yondashuvlarni joriy etishga imkon yaratdi. Masalan, 3D modellashtirish dasturlari orqali dizaynerlar milliy liboslarning raqamli prototiplarini yaratib, ularning rang, shakl va naqshlarini virtual makonda sinab ko'rishlari mumkin. Bu esa ishlab chiqarishdan oldin libos dizaynini aniqlashtirish, material sarfini kamaytirish va ekologik muammolarni oldini olishga yordam beradi. Bugungi kunda moda sanoati barqarorlik masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. An'anaviy usullarda libos ishlab chiqarishda ko'p miqdorda mato isrof qilinadi, ishlab chiqarish jarayoni esa ko'p energiya talab qiladi. 3D texnologiyalar ushbu muammolarga echim sifatida qaralmoqda. 3D bosma texnologiyasi yordamida milliy liboslar ishlab chiqarishda murakkab naqshlar va detallar ancha tez va aniq shaklda yaratilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu texnologiya materialni isrof qilmaydi, bu esa barqaror moda konsepsiyasiga mos keladi. Shuningdek, virtual reallik (VR) va qo'shimcha reallik (AR) texnologiyalari ham milliy libos dizaynida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. VR texnologiyasi yordamida mijozlar milliy liboslarni sotib olishdan oldin ularni virtual muhitda sinab ko'rishlari mumkin, bu esa onlayn savdoda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. AR texnologiyasi esa milliy kiyimlarning naqshlari va tarixiy elementlarini interaktiv ravishda namoyish etish orqali ularning badiiy va madaniy ahamiyatini yanada

oshirishga yordam beradi. Milliy liboslarni 3D texnologiyalar asosida yaratish nafaqat ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va isrofni kamaytiradi, balki milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu usul dizaynerlarga cheklanmagan ijodiy imkoniyatlar yaratib, milliy naqshlar va liboslarning zamonaviy interpretatsiyalarini yaratishga yordam beradi. Shu boisdan, ushbu tadqiqot milliy libos dizaynida 3D texnologiyalarning o'rni, ularning amaliy qo'llanilishi va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqot 3D texnologiyalar va milliy liboslar dizayni o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish bilan birga, ushbu texnologiyalar orqali milliy kiyimlar ishlab chiqarishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari milliy modani global miqyosda ommalashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy moda sanoatida milliy brendlarni rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Milliy libos dizaynida 3D texnologiyalar va zamonaviy innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi natijasida milliy kiyimlarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonida yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Milliy liboslar har bir xalqning madaniy merosi va tarixiy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi san'at turi bo'lib, ularning zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirilishi milliy an'analarni saqlab qolish va ularni global moda sanoatiga moslashtirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda modada ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy libos ishlab chiqarish jarayonida katta miqdorda mato isrof qilinishi, qo'l mehnatining murakkabligi va ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi kabi muammolar mavjud. 3D texnologiyalar ushbu muammolarga yechim sifatida qaralib, liboslarni ishlab chiqarishda materialni tejash, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va ekologik muhitga ta'sirni kamaytirish imkonini beradi. 3D bosma texnologiyalari, virtual modellashtirish va qo'shimcha reallik (AR) kabi ilg'or usullar milliy liboslarning yangi talqinlarini yaratishga va ularni global bozorga olib chiqishga katta hissa qo'shadi. Milliy libos dizayni texnologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashishi natijasida hunarmandchilik an'analarni rivojlantirish, ularni saqlash va yosh avlodga yetkazish jarayoni ham yangi bosqichga ko'tariladi. Masalan, 3D modellashtirish yordamida dizaynerlar milliy

kiyimlarning murakkab naqsh va shakllarini sinchkovlik bilan ishlab chiqishlari mumkin, bu esa ularning sifatini oshirish va ishlab chiqarish muddatini qisqartirishga yordam beradi. Shu bilan birga, AR va VR texnologiyalari mijozlarga milliy liboslarni virtual muhitda sinab ko'rish, ularning badiiy jihatlariga interaktiv tarzda baho berish imkonini yaratadi. Milliy modaning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiruvchi omillardan biridir. Bugungi kunda O'zbekiston va boshqa mamlakatlar milliy dizayn unsurlarini jahon moda industriyasiga integratsiya qilishga intilmoqda. 3D texnologiyalar bu jarayonda muhim rol o'ynab, milliy kiyimlarni ishlab chiqarish va targ'ib qilishning yangi usullarini taklif etmoqda. Bu nafaqat milliy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi, balki milliy kiyimlar brendlashuvi, ularning xalqaro moda maydonida tanilishi va tijoriy salohiyatining oshishiga ham sabab bo'ladi. Shu sababli, milliy libos dizaynida 3D texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash masalasi nafaqat texnik va estetik, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuning o'rganilishi milliy madaniyatni zamonaviy moda bilan uyg'unlashtirish, texnologiyalar yordamida milliy brendlarni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA NATIJALARI

Ushbu tadqiqot milliy libos dizaynida 3D texnologiyalar va innovatsion usullarning qo'llanilishiga bag'ishlanib, zamonaviy modada milliy an'analar va texnologik yondashuvlarning integratsiyasini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va miqdoriy tahlil usullarini o'z ichiga oladi, jumladan, tarixiy tahlil, texnologik innovatsiyalarni o'rganish, dizaynerlar va mutaxassislar bilan intervyular, iste'molchilar afzalliklarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar hamda milliy liboslar dizayniga 3D texnologiyalar ta'sirini tahlil qilish. Tadqiqotning dastlabki bosqichida milliy liboslarning tarixiy rivojlanishi va ularning dizaynida texnologik yondashuvlar evolyutsiyasi o'rganildi. Shu maqsadda ilmiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, milliy kiyim namunalarining arxiv materiallari va san'atshunoslik tadqiqotlari tahlil qilindi. O'zbek milliy liboslarining naqshlari, rang uyg'unligi va shakl o'ziga xosligi o'rganilib, ularning zamonaviy modadagi talqinlari bilan taqqoslandi. Tadqiqotning keyingi bosqichida milliy libos dizaynerlari, moda texnologiyalari mutaxassislari va hunarmandlar bilan intervyular o'tkazildi. Intervyular jarayonida 3D texnologiyalar milliy kiyim dizayniga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, raqamli modellashtirish

va 3D bosma texnologiyalari orqali liboslar yaratishning afzalliklari va cheklovlari muhokama qilindi. Dizaynerlar texnologiyalar yordamida an'anaviy naqsh va bezak elementlarini virtual va fizik formatda yaratish imkoniyatlarini, shu bilan birga, ekologik barqarorlik masalalarini ham yoritib berdilar. Iste'molchilarning milliy liboslarga bo'lgan munosabatini o'rganish uchun so'rovnomalar o'tkazildi. Tadqiqotda yosh avlod va an'anaviy liboslarga qiziqish bildiruvchi iste'molchilar qatnashib, ularning milliy kiyimlarni sotib olishdagi ustuvor jihatlari, 3D texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan kiyimlarga munosabati va dizayndagi texnologik innovatsiyalarga bo'lgan ishonchi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyati milliy liboslarning zamonaviy talqinlari va texnologik jihatdan takomillashgan variantlarini ijobiy qabul qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 3D texnologiyalar milliy libos dizaynida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. 3D modellashtirish dasturlari dizaynerlarga kiyim prototiplarini ishlab chiqishda vaqtni tejashga, modellarni virtual formatda sinashga va material isrofini kamaytirishga yordam beradi. 3D bosma texnologiyasi esa murakkab naqshlar va an'anaviy bezaklarni aniq va tezkor ravishda tayyorlashga imkon yaratadi, bu esa milliy libos ishlab chiqarishda sifat va samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlanganki, virtual reallik (VR) va qo'shimcha reallik (AR) texnologiyalarining libos dizaynida qo'llanilishi mijozlarga milliy kiyimlarni sotib olishdan oldin virtual muhitda sinab ko'rish imkoniyatini taqdim etmoqda. Bu esa onlayn savdo hajmini oshirish, milliy modani kengroq auditoriyaga yetkazish va dizaynerlar uchun yangi biznes imkoniyatlarini yaratishga yordam bermoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 3D texnologiyalar milliy libos dizayni va ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ular milliy an'analarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy talablarga moslashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa kelajakda milliy liboslarni jahon moda maydoniga olib chiqish, ularni yanada innovatsion va kreativ formatda ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

XULOSA

Milliy libos dizaynida 3D texnologiyalarni qo'llash zamonaviy moda sanoatining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu yondashuv an'anaviy hunarmandchilik bilan innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatdiki, 3D texnologiyalar milliy kiyimlarni yaratish, ularning estetikasini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy liboslarning raqamli modellashtirilishi va virtual prototiplash usullarining rivojlanishi dizaynerlarga vaqt va material xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. 3D bosma texnologiyalaridan foydalanish esa murakkab naqshlar va detallarni yuqori aniqlikda yaratish imkoniyatini taqdim etadi. Bundan tashqari, qo'shimcha reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari milliy kiyimlarning interaktiv namoyishlarini ta'minlash orqali iste'molchilar bilan o'zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot davomida milliy liboslarga qiziqish bildirgan iste'molchilar orasida texnologik innovatsiyalar bilan boyitilgan liboslarga talabning oshib borayotgani aniqlangan. Ayniqsa, yosh avlod milliy merosni zamonaviy formatda ko'rishni istaydi va 3D texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan liboslarni ijobiy qabul qiladi. Bu esa milliy liboslarni jahon moda industriyasiga integratsiya qilish va ularning global bozor talablariga moslashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, milliy libos dizaynida 3D texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati faqat ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish va takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Bu texnologiyalar milliy madaniy merosni asrab-avaylash, hunarmandchilik an'analarini zamonaviy talqin qilish va ularni yangi avlod dizaynerlari uchun ilhom manbai sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida milliy liboslarning innovatsion dizayni va texnologik rivojlanishini chuqur o'rganish, ekologik barqarorlikni ta'minlovchi materiallar bilan birga qo'llash va raqamli modellar yordamida milliy kiyimlarni brendlashga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliyeva, N. (2021). *Raqamli texnologiyalar va milliy libos dizayni: Yangi imkoniyatlar*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
2. Berdiev, H. (2019). *O'zbek milliy kiyimlari va ularning zamonaviy interpretatsiyasi*. Toshkent: San'at nashriyoti.
3. Ganiev, S. (2020). *Markaziy Osiyo milliy kiyimlari va texnologik yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Welters, L. & Lillethun, A. (2018). *The Fashion Reader*. Bloomsbury Publishing.
5. Jackson, T. & Shaw, D. (2021). *Mastering Fashion Marketing and Digital Innovation*. Palgrave Macmillan.

6. Niessen, S., Leshkovich, A. M., & Jones, C. (2003). *Re-orienting Fashion: The Globalization of Asian Dress*. Berg Publishers.
7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi (2023). *Texnologiyalar va milliy liboslar dizayni: Tadqiqot natijalari*. Toshkent.
8. UNESCO (2021). *Intangible Cultural Heritage and Traditional Textiles in Central Asia*.
9. World Trade Organization (2022). *The Role of Digital Technologies in the Textile Industry*.
10. United Nations Industrial Development Organization (2021). *Sustainable Textile Production and 3D Printing in Fashion*.

TALABALARNING MUSTAQIL TIL O'RGANISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Jumatova Nasiba Saburovna

“University of Management and Future Texnologiyes”

“Filologiya va tillar” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: nasibajumatova68@gmail.com

***Annotatsiya:** Zamonaviy texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lib, til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. Ma'lumki, bugungu kunda zamonaviy texnologiyalar turli xil shakllarda mavjud bo'lib, ular til o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi*

***Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, axborot texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim, mustaqil ta'lim samaradorligi.*

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, xususan internet, mobil ilovalar va raqamli resurslar til o'rganishni yanada qulay va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar uchun mustaqil til o'rganish jarayoni ko'plab imkoniyatlar va yangi usullar bilan boyitilgan.

Til o'rganish jarayoni inson hayotidagi muhim bosqichlardan biridir. Til, nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyatni, tarixni va ijtimoiy aloqalarni anglash uchun zarur vositadir. Zamonaviy texnologiyalar esa ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lib, til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. Ma'lumki, bugungu kunda zamonaviy texnologiyalar turli xil shakllarda mavjud bo'lib, ular til o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi va bir qancha afzalliklarni taqdim etadi:

- Internet va onlayn resurslar: Bugungi kunda internetda turli xil til o'rganish resurslari mavjud. Viktorinalar, interaktiv testlar va video darslar orqali talabalar mustaqil ravishda bilimlarini oshirishlari mumkin.
- Mobil ilovalar: Duolingo, Babbel va Rosetta Stone kabi mobil ilovalar til o'rganishni yanada qulaylashtirmoqda. Ushbu ilovalar foydalanuvchilarga o'yinlar orqali til o'rganish

imkoniyatini taqdim etadi va bu jarayon o'rganuvchilar uchun juda qulaydir. Talabalar har doim va har joyda darslarni davom ettirishlari mumkin, bu esa motivatsiyani oshiradi.

- Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR): VR va AR texnologiyalari yordamida talabalar real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilishi mumkin. Masalan, VR yordamida boshqa mamlakatlarda sayohat qilish yoki yangi madaniyatlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
- Sun'iy intellekt (AI): AI texnologiyalari yordamida shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari yaratilmoqda. Masalan, AI asosidagi dasturlar foydalanuvchilarning o'rganish uslublarini tahlil qilib, ularga mos keladigan materiallarni taklif etishi mumkin.
- O'z-o'zini baholash: Turli dasturlar va ilovalar yordamida talabalar o'z bilimlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.
- Talabalarning motivatsiyasini oshirish: Interaktiv va qiziqarli materiallar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini oshirishga ko'proq qiziqish bildirishadi.
- O'quv jarayonini individualizatsiya qilish: Har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda materiallar tayyorlash imkoniyati mavjud. Bu esa har bir shaxsning individual rivojlanishini ta'minlaydi.
- Oson va qulay foydalanish imkoniyatlari: Mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida til o'rganish har qanday joyda va vaqtda amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar istalgan vaqtda darslarni davom ettirish imkoniyatiga ega.
- Interaktivlik va ko'pformatli materiallar: Zamonaviy texnologiyalar yordamida video, audio, matn va grafik materiallardan foydalanish orqali talabalar turli formatlarda bilim olishlari mumkin. Bu esa ularning tushunish darajasini oshiradi.

Til o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash jarayonida ba'zi qiyinchiliklar ham mavjudligini e'tibordan qochirmasligimiz zarur albatta:

- Raqamli bo'linish: Barcha odamlarning zamonaviy texnologiyalar bilan teng imkoniyatlarga ega emasligi muammo bo'lishi mumkin. Ba'zi hududlarda internetga kirish yoki zamonaviy qurilmalarga ega bo'lmaslik sababli o'quvchilar ta'lim olishda qiynalishi mumkin.
- Texnologiyalarga qaramlik: Zamonaviy texnologiyalarni haddan tashqari qo'llash an'anaviy usullarni unutishga olib kelishi mumkin. O'quvchilar faqatgina raqamli resurslarga tayanib qolishlari xavfi mavjud.

- Ma'lumotning ishonchliligi: Internetda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning barchasi ishonchli emas. O'rganuvchilar to'g'ri va sifatli manbalarni tanlashda ehtiyot bo'lishlari kerak. Zamonaviy texnologiyalar kelajakda til o'rganishga ta'sir ko'rsatishda davom etadi:
- Yangi texnologiyalar: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va boshqa yangi texnologiyalar yordamida til o'rganishni yanada samarali qilish mumkin.
- Shaxsiylashtirilgan ta'lim: AI yordamida har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlangan darslar taqdim etilishi kelajakda keng tarqalishi kutilmoqda.
- Global aloqalar: Zamonaviy texnologiyalar global aloqalarni kuchaytiradi, bu esa turli madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Odamlar boshqa mamlakatlardagi odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Yangiliklarga moslashuvchanlik: Tez-tez yangilanib turadigan resurslar orqali talabalar zamon bilan hamnafas bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqimizning "Intilganga to'le yor" maqoli asnosida tasnifimizni davom ettiradigan bo'lsak, zamonaviy texnologiyalar til o'rganish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ular nafaqat ta'lim jarayonini qulaylashtirmoqda, balki interaktiv va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. Talabalar uchun bu yangi imkoniyatlar mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va global miqyosda kommunikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ularning qo'llanilishi til o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o'z ehtiyojlariga mos materiallarni taqdim etadi va ta'lim jarayonini yanada qulaylashtiradi. Shu o'rinda bugungi kunda mustaqil til o'rganuvchilarini qo'llab -quvvatlab, ruhlantirib turish, kelajak avlodning dunyo sahnida o'z o'rniga ega bo'lishida qo'shgan katta hissamiz bo'ladi. Kelajakda sun'iy intellekt va global aloqalarning rivojlanishi bu jarayonni yanada kengaytirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging Technologies: Language Learning and Technology.
2. Warschauer, M., Healey, D. (1998). Computers and Language Learning: An Overview.
3. Kukulska-Hulme, A., Shield, L. (2008). An Overview of Mobile Assisted Language Learning.
4. Thorne, S., Black, R.W. (2007). Language and the Internet.

ZULFIYAXONIM ISROILOVA SHE'RLARINING QISQACHA TAHLILI

G'ulomova Gulsanam

Guliston davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Zulfiyaxonimning go'zal she'rlari, badiiy tasvir vositalardan foydalanish usullari, Ona vatanimiz taraqqiyoti, mamlakatimizga bo'lgan sadoqati masalalarini o'rganadi. Maqolada shoiraning hozirgi kundagi yoshlarga shukronalik hissini uyg'otuvchi misralari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilib o'tiladi. Komil inson bo'lish uchun dunyoviy bilimdan tashqari diniy bilim ham muhim ekanligi haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zulfiyaxonim, shukronalik hissi, dunyoviy bilim, ona vatanimiz taraqqiyoti, sadoqat, vafo, diniy bilim.

Abstract: This thesis examines Zulfiyakhanim's development of our Motherland and her devotion to our country. In the thesis, brief information is given about the verses that inspire the feeling of gratitude to the youth of today. In addition to worldly knowledge, religious knowledge is also covered.

Key words: Zulfiyakhanim, feeling of gratitude, worldly knowledge, development of our motherland, loyalty, faithfulness, religious, knowledge.

Zulfiya, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti aytgani kabi: "Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan..."¹ shaxsiyat egasidir. Shuning uchun ham u o'z shaxsiy hayoti qobig'ida qolishi mumkin emas edi. Shoira ayriliqdan o'zga hayotiy yo'nalishlarda ko'plab sevgi she'rlari, dostonlar, poetik manzaralar yaratgan ijodkordir. Darhaqiqat, betakror shaxsiyat egasi

¹Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" nomli asarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyasi."Info Capital Group", 2011

bo'lgan shoira Zulfiya ta'sirchan she'riyati bilan uzoq yillar millat yoshlariga sadoqat saboqlarini berishda davom etaveradi.

Taniqli shoira Zulfiya 1915-yilning 1-mart Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug'ildi. U 1935-1938-yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938-1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri lavozimida ishlab keldi. Mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'ziga xos she'riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan iste'dodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi. Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni anglatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil dergez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bililsh temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kinga ham muyassar bo'lavermas ekan..."

Mening onam o'zining ta'biricha, "usti butun –ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovoqidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbidamda ostonam hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol-onam uyg'otgan..."².

Eng avvalo, muhtarama Zulfiya opamizni katta-yu kichik adiblar qatori men ham chin dildan muborakbod etaman. Zulfiya opa deganda daf'atan ko'z oldimizda turfa chechaklar bilan ziynatlangan bir chamanzor namoyon bo'ladi. Bu gulzor go'zal she'riyatning muattar

²Mmp.tma.uz

bo'ylari bilan orolangandir. Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan, bu iqtidor shoiramizning nomini jahonga tanitgan oliy belgidir(Abdulla Oripov)³.

Bahor kuychisi Zulfiyaxonimning she'riyatida "Ona" timsoli ham beqiyos aks etgan. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoiraning "Ona", "Ona ko'ksi", "Mening mehribon onaginam" singari she'rlari vujudga kelgan. Shoiraning:

Onam! Sening issiq, aziz joningni,
Zarradek chog'imdan boshlab bilaman.
O'zim zarra-yu, lekin qoningni,
Yangilab jismingdan o'zni o'zganman.
Sen gul juvon hali mendan bexabar,
Bulutday go'daklar tortdi havasing.
Endi men sen desam qaynoq, muattar,

Hovrin his qilaman iliq nafasing...

Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

Shoiraning hayot qo'shig'i

Shoirlik nima? Ming yillardan qolgan bu savolga har bir davr o'z javobini berishga intiladi. Darhaqiqat, u hunarmi, san'atmi? Tafakkurni lol qiluvchi sehrmi? Va yo hech kim hech qachon anglab yeta bilmas mo'jizami? Bir zamonda shoirlikni jodu deb atadilar, odamlarni haq yo'lidan ozdirguvchi kufr dedilar. Boshqa bir zamonda uni payg'ambarlik darajasiga ko'tardilar. Bir davrda shoirlikni targ'ibotchilik-tashviqotchilik deb angladilar, boshqa bir davrda uni inson qalbi uchun, erk saodati uchun kurashmoq, jang qilmoq deb bildilar. Zamonlar o'tdi, dunyoqarashlar o'zgaradi, dinlar, maslaklar, g'oyalar almashti. Lekin shoir hamisha elning jigari bag'ridan bunyod bo'lgusi zurriyot, el xonadonining chirog'i, ertangi kunga yetguvchi sadosi bo'ldi. Xalqning, davrning xotiroti bo'lib dunyoga keldi.

Benazir ayol, buyuk ona hamda sadoqat va vafo timsoliga aylangan Zulfiya Isroilova inson qalb tug'yonlarining o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgani ham bizda

³ Darakchi..uz

boy taassurot uyg‘otdi. Uning dostonlari, balladalari, elegiyalari, nasriy she‘rlar, hikoya va ocherklari, publisistik maqolalari har qanday kitobxonni chuqur mushohada yuritishga chorlaydi. Aksariyat she‘rlari butun dunyo xalqlarini tinchlik va do‘stlik atrofida birlashtirishga da‘vat etadi. Urush yillaridagi vatanparvarlik hissi yo‘g‘rilgan she‘rlari insonni jasoratga undaydi. Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo‘ldi. U 1956-yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o‘tkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur “Mushoira”(1958)asarini yaratdi⁴.

Zero, ulug‘ shoira she‘rlaridan birida inson ruhining boqiyliqi, ezgulik va adolatning abadiyligi xususida so‘z yuritib, “Baxtim shu - o‘zbekning Zulfiyasiman” deya yozganida ham chuqur ma‘no mujassam.

Zulfiyasiman

Hamon e‘tiqodim –haqiqat haqdir,

So‘zlayman yuzimni tutib Ka‘baga

Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir,

Osuda o‘tadi ruhim abadga.

E‘zozlar, ardog‘lar uchun tashakkur,

Asli Siz oftobim, men ziyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,

Baxtim shul-O‘zbekning Zulfiyasiman.

Bu she‘rida Ona yurt, sevgi, bahor madhiga yo‘g‘rilgan bu satrlar nurlangan har bir ko‘ngil hamisha shunday samimiy izhorlarga mushtoq. Tug‘ilgan go‘shaga ko‘ngil rishtalari bilan bog‘lanib, shukronalik hissini tuyish ijodkor uchun qanchalik baxt bo‘lsa, kitobxon uchun ham farahlidir.

⁴Sobir Miraliyev “O‘zbek adiblari”

Shunday ekan, o'zbek ayollarining ko'rki sanalmish Zulfiyaxonimning yana bir she'riga qisqacha to'xtalib o'tsak:

Men o'tgan umrga...

Hayot kitobini bexos varaqlab,

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,

Suyish kerak bo'lsa –telbacha suydim,

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,

Yurak boyligidan qilmabman parvo.

Meni og'ushlagan hayot naq oftob,

Yangi qo'shiq talab unda har saboq.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,

Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash:

Suydim,

Erkalandim,

Ayrildim,

Kuydim,

Izzat nima-bildim.

Shu-da bir yashash!...

Yaxshi she'r mudrab yotgan ruhiyatni uyg'otadi. Tongning nafasidek ko'ngilga xush yoqadi, bu she'r ham kitobxonning murg'ak qalbida iliqlik tuyg'usini uyg'otadi.

SENSIZ

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga.
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga.

Zulfiyaxonim vafo va sadoqat ramziga aylangan o'zbek shoirasidir. Ushbu she'r butun umr o'z yoriga sodiq o'tgan ayol qalbi navolaridir. Unda yolg'izlik iztirobi va ayollik irodasi o'ziga xos tarzda samimiy ifoda etilgan. Demak, shoiraning navbatdagi she'ri uning sadoqatli ayol timsolini ochib beradi. Uning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon vafotidan keyin bu she'rni yozadi. Shoiraning she'rda tasvirlashicha, Hamid Olimjon olamdan o'tgan kuni uning tobuti qoshida tiz cho'kkanini va uni farzandlari qayta hayotga qaytarganligini tasvirlaydi. Ya'ni inson so'zi ko'nikuvchan degan ma'noni anglatishini yana bir bor eslatib o'tmoqchi. Kimningdir azasida qon-qon yig'layman, kimlarnidir to'yida yayrayman, xuddi ohu kabi demoqchi. Xulosa qilib aytganda, oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'uligini eslatib, bahorda ya'ni quvonchli kunlarda xursand bo'lib ketmaslikni, qayg'uli kunlarda xafa bo'lmaslikni uqtirmoqchi edi. Demak, inson zoti sabrli bo'lishini bu she'ri orqali bizga anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zulfiyaxonim bosib o'tgan yo'l shodlik, baxt va yo'qotishlar, do'stlar, ustoz-shogirdlar, qilingan ishlar va amalga oshmagan rejalar, safar taassurotlari bilan boy ko'ngil yo'li bo'ldi. U turmushning mashaqqatli va zalvorli yo'llarini kechib, o'rik gullari, ko'klam chechaklarining nafasoti, go'zalligidan ilhom olib, barchasini she'rga soldi. Shuning uchun ham she'rlari qalbimizda hanuzgacha jaranglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” nomli asarini oliy ta’lim mutaxsislarida o’qitish texnologiyasi.” Info Capital Group”,2011.
2. Mmp.tma.uz
3. Darakchi.uz
4. Sobir Miraliyev “O‘zbek adiblari”

YOSH FUTBOLCHILARNING FUNKSIONAL ASSIMMETRIYASINI HISOBGA OLGAN HOLDA TO'PNI BOSHQARISH TEXNIKASINI O'RGATISH.

Magistr: Bozorov Elbek Bahodir o'g'li

Ilmiy raxbar: dots. Shamsiyeva I.Q.

Navoiy davlat pedagogika institute

Kirish: Yosh futbolchilarda funksional assimetriya, ya'ni dominant va nondominant oyoqlar o'rtasidagi farq, to'pni boshqarish texnikasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Futbolchilarning ko'plab mashg'ulotlari faqat dominant oyoqqa qaratilgan bo'lib, nondominant oyoqni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu esa futbolchilarning o'yindagi texnik samaradorligini pasaytiradi.

Futbol sportida texnik harakatlarning mukammal o'zlashtirilishi o'yinchining jismoniy va funksional xususiyatlariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, 10–14 yosh oralig'idagi futbolchilar bilan ishlashda funksional assimetriya — ya'ni tananing chap va o'ng tomonlari orasidagi harakat va kuch farqlari —ni hisobga olish texnik mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi[1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat yosh futbolchilarda o'ngoyoq ustuvorligi kuzatiladi, bu esa chap oyoq bilan bajariladigan harakatlarning sustlashuviga olib keladi. Shu sababli, har ikki oyoqda teng ishlash ko'nikmasini shakllantirish texnik tayyorgarlikning muhim yo'nalishidir.

Mazkur tadqiqotda yosh futbolchilarning to'pni boshqarish texnikasini o'rgatish jarayonida assimetriya darajasi testlar orqali baholandi. Shuningdek, har ikki oyoqda to'pni olib yurish, uzatish va zarba berish mashqlari tizimli tarzda takrorlandi. Mashg'ulotlar individual yondashuv asosida tuzildi — har bir futbolchi uchun o'ziga xos murakkablik darajasi tanlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, funksional assimetriyani hisobga olgan holda olib borilgan mashg'ulotlar futbolchilarning texnik ko'rsatkichlarini 20–25% ga yaxshilagan. Shuningdek, chap oyoq bilan bajarilgan harakatlarning aniqligi va muvozanat darajasi ham oshdi[2].

Muammolar: FunkSIONAL assimetriya: Yosh futbolchilarda dominir oyoqning afzalligi va nondominant oyoqni kam ishlatish.

Mashg'ulotlardagi asimetriya: Futbolchilarning mashg'ulotlariga faqat dominant oyoqqa yo'naltirilgan mashqlar kiritilishi.

Tajriba yetishmasligi: Futbolchilar to'pni boshqarishda faqat dominant oyoqqa tayanishadi, nondominant oyoqni rivojlantirishga e'tibor berilmaydi.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari: Nondominant oyoqni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni joriy etish. Mashg'ulotlarda vaqtni samarali taqsimlash va ikkala oyoq bilan ham ishlashga imkon yaratish[3].

Futbolchilarga har ikki oyoq bilan ham to'pni boshqarishni o'rgatish.

Tanlangan yo'l: Nondominant oyoqni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni dasturga kiritish. Ushbu yo'l futbolchilarning texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash va ularni ko'p qirrali futbolchilarga aylantirishga imkon yaratadi. Bu yo'lning asosiy afzalligi shundaki, futbolchilar ikkala oyoq bilan ham samarali ishlay olishadi va o'yinda yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar.

Tanlangan yo'lning qulaylik jihatlari: Ko'p qirrali futbolchilarni tarbiyalash: Futbolchilar ikkala oyoq bilan ishlashga o'rgatiladi, bu ularning ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'yin samaradorligini oshirish: Nondominant oyoqni rivojlantirish o'yin davomida aniqlik va samaradorlikni oshiradi[4].

Raqobatbardoshlikni oshirish: Ko'p qirrali futbolchilar raqobatda ustun bo'lishadi, chunki ular har qanday vaziyatda to'pni boshqarish va qaror qabul qilishda yanada muvaffaqiyatli bo'lalilar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, yosh futbolchilar bilan ishlashda funksional assimetriyani e'tiborsiz qoldirmaslik zarur. Bu nafaqat texnik rivojlanishni, balki jarohat xavfini kamaytirishni ham ta'minlaydi. O'quv mashg'ulotlariga funksional testlar asosida yondashish zamonaviy sport pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Yosh futbolchilarning funksional assimetriyasini bartaraf etish uchun nondominant oyoqni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni joriy etish zarur. Bu yondashuv futbolchilarning texnik mahoratini oshiradi, o'yin samaradorligini yaxshilaydi va ularni

raqobatbardosh, ko'p qirrali futbolchilarga aylantiradi. Nondominant oyoqni rivojlantirish futbolchilarga o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirish va o'yinda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sportni rivojlantirish bo'yicha qarorlari. O'zbekiston Milliy Arxivi, 2023.
2. Abdullayev A.X. *Sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish*. Toshkent, 2020.
3. Karimov R.T. *Futbolchilarning funksional tayyorgarligi asoslari*. Samarqand, 2021.
4. Abernethy B., Hanrahan S.J. *The Biophysical Foundations of Human Movement*. Human Kinetics, 2005.

XALQARO MIGRATSIYA STATISTIKASINING IQTISODIY AHAMIYATI VA TAHLILI

Mirzayeva Shirin Nodirovna

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

"Real iqtisodiyot" kafedrasida assistenti, mustaqil tadqiqotchi

Muallifning elektron manzili: mirzayevashirin502@gmail.com

ORCID raqami: <https://orcid.org/0009-0005-0035-636X>

Muallifning uyali aloqa raqami: +998905020271

Sattorova Sevinchbonu Ikrom Qizi

O'zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

"Inson resurslarini boshqarish" yo'nalishi talabasi

Muallifning elektron manzili: ikromovna1601@gmail.com

Muallifning uyali aloqa raqami: +998 934714060

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro migratsiya jarayonlarini statistik tahlil qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri va mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Muallif xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy ko'rsatkichlari, migratsiya oqimlari, ular aholi bandligi, valyuta tushumlari va mehnat bozori uchun ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, BMT, XMT va XMTSh kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishonchli statistik ma'lumotlar shakllantirish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro migratsiya, statistika, mehnat bozori, valyuta tushumlari, bandlik, aholi harakati.

Аннотация. В данной статье рассматривается статистическая оценка процессов международной миграции, их социально-экономическое влияние и роль в экономике стран. Автор анализирует основные показатели международной трудовой миграции, миграционные потоки и их влияние на занятость населения, валютные поступления и рынок труда. Также подчеркивается необходимость создания достаточных статистических данных международными организациями (ООН, МОТ, МОТШ).

Ключевые слова: международная миграция, статистика, рынок труда, валютные поступления, занятость, миграция населения.

Abstract. This article explores the statistical analysis of international migration processes, their socio-economic impact, and their role in national economies. The author analyzes key indicators of labor migration, migration flows, and their influence on employment, remittances, and the labor market. The article emphasizes the need for complete and reliable data provided by international organizations such as the UN, ILO, and IOM.

Keywords: international migration, statistics, labor market, remittances, employment, population movement.

Kirish. Globalizatsiya sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi keng ko'lamga ega bo'lib, uni statistik nazorat qilish va tahlil etish dolzarb masalaga aylangan. Iqtisodiy o'sish, demografik o'zgarishlar va mehnat bozoridagi nomutanosibliklar xalqaro migratsiyani jadallashtirmoqda. Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish esa mukammal statistik ma'lumotlar bazasiga bog'liq.

Maqsad: xalqaro migratsiya statistikasi tuzilishi, ko'rsatkichlari va tahlil imkoniyatlarini o'rganish.

Vazifalar:

- Xalqaro migratsiyani ifodalaydigan asosiy statistik ko'rsatkichlarni aniqlash;
- Xalqaro tashkilotlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazish;
- O'zbekiston misolida migratsiya oqimlarining iqtisodiy ta'sirini baholash.

Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik va strukturaviy tahlil, taqqoslash usullari, shuningdek IOM, UN DESA, World Bank ma'lumotlariga asoslangan yondashuvlar qo'llanilgan.

Asosiy qism. Xalqaro migratsiya, ya'ni bir davlatdan boshqa davlatga odamlarning ko'chib o'tishi, zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar sababli migratsiya jarayoni jahon bo'ylab keng tarqalgan va uni tahlil qilish, uning iqtisodiy ta'sirini tushunish, davlatlar va mintaqalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy ahamiyati nafaqat migrantlar o'zi, balki ularning ko'chib kelgan va ketayotgan davlatlari uchun ham keng qamrovli ta'sirga ega.

Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy ta'sirini tushunish uchun, birinchi navbatda, uning asosiy komponentlariga e'tibor qaratish lozim: ishchi kuchi migratsiyasi, qochqinlar va

boshpana izlovchilar, talabalar va boshqa turdagi migrantlar. Migrantlar turli sabablarga ko'ra boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tadilar: yaxshiroq ish imkoniyatlari, ta'lim, siyosiy barqarorlik va boshqa ijtimoiy-farmoniy omillar.

Iqtisodiy jihatdan, xalqaro migratsiyaning muhim aspektlaridan biri — ishchi kuchining global bozoriga qo'shilishi. Migrantlar o'zlarining mehnat kuchlarini yangi mamlakatlar iqtisodiyotiga qo'shadi, bu esa ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, ko'plab rivojlanayotgan davlatlar, migrantlarning o'z vatanlariga yuborayotgan pul mablag'lari (remittans) hisobiga o'z iqtisodiyoti uchun katta foyda ko'radilar. Masalan, Hindiston, Nepal, Filippin kabi mamlakatlar uchun remittanslar muhim iqtisodiy manba hisoblanadi.

Xalqaro migratsiya ishchi kuchining global bozorini kengaytiradi, bu esa ishlash imkoniyatlarini va ish haqlarini global miqyosda ta'sir qiladi. Migrantlar ko'pincha ishlab chiqarishning muayyan sohalarida, masalan, qurilish, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida ishlaydi, bu esa ularning qatnashgan mamlakatlar iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etadi.

Migrantlar tomonidan o'z yurtlariga yuborilgan pul mablag'lari (remittanslar) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy foyda keltiradi. Bu mablag'lar aholining xarid qobiliyatini oshiradi, ta'lim va tibbiyot xizmatlaridan foydalanishni yaxshilaydi, shuningdek, yangi biznes va ish o'rinlarining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Xalqaro migratsiya qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning tezlashishiga olib kelishi mumkin. Masalan, migrantlar, ko'pincha past maoshli ishlarni bajaradilar, lekin bu ularning ijtimoiy integratsiyasi va yangi iqtisodiy tizimlarga qo'shilishi orqali yanada samarali va yuqori daromadli sohalarda ishlash imkoniyatini yaratadi.

Migratsiya yangi ijtimoiy va demografik o'zgarishlarga olib keladi. Migrantlar yangi ijtimoiy tizimga qo'shib, yangi madaniyatlar, an'analar va qadriyatlar olib keladi, bu esa qabul qiluvchi davlatda iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Biroq, xalqaro migratsiyaning iqtisodiy ta'siri ham ba'zi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Qabul qiluvchi mamlakatlar uchun, migrantlarning mavjud ishchi kuchiga ta'siri, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Ayniqsa, migratsiya to'g'risida noto'g'ri siyosatlar yoki noaniqliklar mavjud bo'lsa, bu ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. U ko'plab mamlakatlar uchun nafaqat ishchi kuchi manbai, balki remittanslar orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Biroq, migratsiyaning ijtimoiy va siyosiy oqibatlar ham bor, shuning uchun uning boshqarilishi va tahlil qilinishi juda muhimdir. Xalqaro migratsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlarini hisobga olgan holda, mamlakatlar samarali siyosatlarini ishlab chiqishlari va o'z iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda bu jarayonni boshqarishlari zarur.

Xalqaro migratsiya statistikasi quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni qamrab oladi:

- A. Migratsiya oqimlari (kiruvchi va chiquvchi);
- B. Valyuta tushumlari (remittanslar);
- C. Migrantlarning yoshi, jinsi va malaka darajasi;
- D. Migratsiya balansi (mamlakatlar kesimida).

Jadval 1.

2024 yilda asosiy migratsiya oqimlari (mln kishi)

Mintaqa	Kiruvchilar	Chiquvchilar	Balans
Yevropa	89.4	41.1	+48.3
Osiyo	87.8	108.7	-20.9
Afrika	10.3	42.4	-32.1
Lotin Amerikasi	11.8	35.9	-24.1
MDH (jumladan O'zbekiston)	4.7	7.4	-2.7

Jadval 2.

Valyuta tushumlari (2024, milliard AQSH dollari)

Mamlakat	Remittenslar hajmi	YAIMdagi ulushi
Hindiston	129.6	3.5%
Meksika	63.4	4.2%
O‘zbekiston	12.3	15.8%
Qirg‘iziston	3.4	30.7%
Tojikiston	4.1	36.2%

Xulosa tariqasida o‘tkazilgan tadqiqot xalqaro migratsiya statistikasi nafaqat demografik jarayonlarni tushunishda, balki iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Hozirgi davrda mehnat migratsiyasi ko‘plab mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun valyuta tushumlarining muhim manbai bo‘lib qolmoqda. Ushbu tushumlar iqtisodiyotning iste‘mol, qurilish, xizmatlar va investitsiya sektorlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, migratsiya oqimlarini aniqlik bilan o‘rganish va baholash zaruriy hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar (IOM, UN DESA, ILO, World Bank) tomonidan taqdim etilayotgan ma‘lumotlar global miqyosdagi migratsion tendensiyalarni kuzatish imkonini beradi. Biroq, har bir davlat, jumladan O‘zbekiston ham, o‘zining milliy statistik tizimini mustahkamlashi, ma‘lumotlarni xalqaro mezonlarga mos ravishda yig‘ishi va tahlil qilishi kerak. Bu esa, siyosiy qarorlar qabul qilishda aniqlikni oshirib, strategik rejalar tuzishga xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий веб-сайти – <https://stat.uz>
2. Халқаро меҳнат ташкилоти (ILO) ҳисоботлари – <https://www.ilo.org>
3. Халқаро миграция ташкилоти (IOM) маълумотлари – <https://www.iom.int>
4. The World Bank. Migration and Remittances Data – <https://www.worldbank.org>
5. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA) – <https://www.un.org/development/desa>

6. Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. (2014). *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World*.
7. Stark, O. (1991). *The Migration of Labor*. Basil Blackwell.
8. Бобожонов, Ш.Р. “Меҳнат миграцияси ва унинг иқтисодий жараёнларга таъсири”, Тошкент: Иқтисодиёт, 2020.
9. Абдурахмонов К.Х., Раҳимов Н.Р. “Иқтисодиёт назарияси”, Тошкент, 2018.
10. Маматкулов Ш.А. “Миграцион жараёнлар ва уларнинг иқтисодий таҳлили”, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти илмий журналлари, 2021.
11. IMF (International Monetary Fund) Reports on Remittances and Economic Outlook – <https://www.imf.org>
12. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) Migration Outlook – <https://www.oecd.org>
13. NODIROVNA M. S. SOCIAL POLICY: OBJECTIVES AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2023. – Т. 4. – №. 7. – С. 1-9.
14. Мирзаева Ш. Н. НОВЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОФЕССИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 668-679.
15. Абдукаримов Ф. Б. А., Мирзаева Ш. Н. МАЛЫЙ БИЗНЕС-КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 657-667.
16. Абдукаримов Б. А. А., Мирзаева Ш. Н. РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 648-656.
17. MIRZAEVA SHIRIN NODIROVNA. (2023). THE IMPORTANCE OF INVESTING IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE IN OUR COUNTRY. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(6), 153-160. Retrieved from <https://cajtmf.centralasianstudies.org/index.php/CAJITMF/article/view/534>
18. Курбанова Р., Мирзаева Ш., Хакимов Д. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗМЕРЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-

гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/4. – С. 204-216.

19. Шарипов Т. С., Мирзаева Ш. Н. СОСТОЯНИЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В СФЕРЕ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 27-45.

20. Мирзаева Ш. Н. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДДЕРЖКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 46-56.

21. Nodirovna M. S. Banks and Development of Banking Services in the Republic of Uzbekistan //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 21-30.

22. Nodirovna M. S. Foreign Experience in Supporting Entrepreneurship and Business Activity of Women //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 654-665.

23. Saidakhmedovich S. T., Nodirovna M. S. The State of Implementation of Innovative Projects in the Service Sector in Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 375-391.

24. Nodirovna M. S. Creation of an Additional Product in the Service Process in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 635-643.

25. Nodirovna M. S. Problems of Development of the Service Sector in the Context of Digital Changes in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 626-634.

26. Мирзаева Ш. Н. ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 662-671.

27. Nodirovna M. S. Improving the Mechanisms For Managing Service Processes in Service Enterprises in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 644-652.

28. Nodirovna M. S. Trading Enterprises and Banking Services in the Republic of Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 227-234.

29. Nodirovna M. S. Ways to Develop Banking Services in the Republic of Uzbekistan //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 18-24.

30. Nodirovna M. S., Ugli S. T. T., Abduazizovich A. I. WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF GOVERNMENT SERVICES IN THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 23. – C. 29-37.

31. Mirzayeva S. N. Prospects for the Development of Small Business and Entrepreneurship in the Digital Economy //American Journal of Economics and Business Management. – T. 5. – C. 3.

32. Nodirovna M. S. FINANCING OF INVESTMENT ACTIVITIES IMPORTANCE OF SOURCES //Section A-Research paper Article History: Received. – 2022. – T. 12.

33. Nodirovna M. S. Banks and Development of Banking Services in the Republic of Uzbekistan. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2 (6), 21–30. – 1910.

34. Nodirovna M. S. Foreign Experience in Supporting Entrepreneurship and Business Activity of Women. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal Volume2, Issue 5 Year2023 ISSN: 2835-3013 <https://univerpubl.com/index.php/synergy> <https://scholar.google.com/citations>.

35. Mirzaeva S. N. et al. Innovative Enrichment of Service Enterprises Based on the Location of the Regions of Uzbekistan //AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT.

36. Mamanova G. B., Sultonov S. A., Mirzaeva S. N. Improvement of Economic Mechanisms for State Support of Private Entrepreneurship (Samarkand Region) //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences.

37. Nodirovna M. S., Mamasoliyevna K. C., Ugli S. J. U. The composition of the income of service workers and ways of its improvement (on the example of educational institutions) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 213-218.

38. Nodirovna M. S. FOREIGN TO THE SECTORS OF ECONOMY OF UZBEKISTAN ATTRACTING INVESTMENTS. biogecko.co.nz

**TURMUSH QURISH YOSHIDAGI YIGIT VA QIZLARDA OTA-ONALIK
ROLINI ANGLASHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Niyazmetova Munira Ibragimovna

TDPU tadqiqotchisi

Munira_niyzametova@gmail.com


tel: +998 97 770 97 96

Shaxs rivojlanishida muhim bosqich bo'lgan ota-onalik rolini o'zlashtirish jarayoni shaxsdan hayotda katta o'zgarishlar qilishini talab qiladi. Odatda ota-ona bo'lish shaxs o'z-o'zini anglash jarayonini tezlashtiradi hamda turli xil mas'uliyatlarni paydo qiladi. Ushbu jarayon bo'lajak ota-onalarda bolani tarbiyalash, uni parvarish qilish, sog'ligiga e'tiborli bo'lish singari mas'uliyatlarni yuklashdan tashqari, o'z hayoti, motivlari, qiziqishlarini o'zgartirishni talab qiladi. Ota-onalik rolini anglash birinchi navbatda shaxsiy identifikatsiyaning shakllanishi bilan belgilanadi. Bunda inson faqat o'zining shaxsiy manfaatlari, maqsadlari, xohish istaklari bilan emas, balki boshqalar uchun, jumladan, farzandlari uchun mas'ul ekanligini his eta boshlaydi. Shu bilan birga, hayotda yangi maqsadlar va vazifalar belgilanadi. Bunda bolaning har tomonlama rivojlanishi, barkamol inson qilib voyaga yetkazilishi uchun yangi maqsadlar qo'yiladi. Ota-onalik rolini anglashning muhim psixologik jihatlaridan yana biri bu empatiya qobiliyatining rivojlanishi - boshqalarni hissiy tushunish va qabul qilish hisoblanadi. Bu xususiyat asosida ota-ona bola rivojlanishining har bir bosqichlarida to'g'ri yondashuvlarni tanlash va ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra, turmush qurish yoshidagi yigit va qizlarning ota-onalik rolini anglashi ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar bu masalani keng yoritib, ota-onalikni anglashda psixologik yetuklikning ahamiyatini ta'kidlaydi [1]. Ota-onalik jarayoni shaxs hayotida tub o'zgarishlarni keltirib chiqarib, o'z-o'zini anglashni tezlashtiradi va shaxsni mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi [2]. Bu esa, Eriksonning psixosozial rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasiga tayanadi — unda shaxsning o'z ijtimoiy rolini anglab yetishi muhim o'rin tutadi [3]. Bo'lajak ota-onalarda bolaning sog'lom rivoji, parvarishi, tarbiyasi bilan birga, o'z ehtiyojlarini ikkinchi darajaga qo'yish zaruriyati yuzaga

keladi. Bu holat shaxsda yangi motivatsiyalar, empatik qobiliyatlar va ijtimoiy intilishlarning shakllanishiga olib keladi [4]. Empatiya — bolaning hissiy holatini anglash, unga to'g'ri yondashuvni tanlash va mos ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan psixologik komponent hisoblanadi [5]. Bu esa ota-onaning o'z bolasiga nisbatan barqaror hissiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Ota-onaning vazifalaridan biri bolaga xavfsizlik hissini berishdir — bu jismoniy, psixologik va emotsional xavfsizlikni o'z ichiga oladi. Abraham Maslou nazariyasiga ko'ra, xavfsizlik inson ehtiyojlar iyerarxiyasida bazaviy bosqich hisoblanadi [6]. Shuningdek, ota-onalik roli jamiyatdagi muhim ijtimoiy rol sifatida baholanib, o'zida rejalash, boshqarish va moslashuvchanlik kabi murakkab kompetensiyalarni mujassam etadi [7]. Ota-onalik roli ko'plab ijtimoiy rollarni bir vaqtning o'zida bajara olish qobiliyatini talab etadi. Buning natijasida, psixologik bosim va stress holatlari yuzaga keladi, shuning uchun oilaviy muvozanatni saqlash ota-onalarning muhim kompetensiyasiga aylanadi [8]. Shu bilan birga, oilaviy rollarning muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi, ya'ni turmush o'rtoqlar o'rtasida vazifalarning bo'linishi va o'zaro yordam ijobiy natijalarga olib keladi. Bu haqda zamonaviy ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda ham ijobiy tajribalar keltirilgan [9]. Boshqalarni (oila a'zolarini) himoya qilish va qo'llab quvvatlash xususiyati ham muxim va zaruriy shaxs sifati hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ota-ona birinchi navbatda, bolaning ham jismoniy, ham psixologik ham emotsional xavfsizligini ta'minlashi, bolaning har bir hatti-harakatlarini, rejalarini maqsad va intilishlarini qo'llab quvvatlashi lozim. Shu asosda ota-ona bola rivojlanishi uchun mustahkam asoslarini yaratib, unda o'ziga ishonchni oshirishi va mustaqil qaror qabul qilishiga ko'maklashishi zarur.

Oila ichidagi rollar xususiyati ota-ona o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro tushunish, oila ichidagi o'zaro rol taqsimoti ham ijtimoiy-psixologik jihatdan muhimdir. Ota-onalar birbiriga yordam berish va qo'llab-quvvatlash orqali o'zlarining ota-onalik rolini samarali amalga oshirishi mumkin. Yuqoridagi tahliliy fikrlar asosida tadqiqot ishida ishtirok etgan respondentlarni ota-onalik rolini anglash bo'yicha darajalari M.S. Yermixinning "Anglangan ota-onalik" so'rovnomasi (R.V. Ovcharova raxbarligi ostida tuzilgan) orqali o'rganildi.



1-rasm. R.V.Ovcharova va M.S.Yermixinaning "Anglangan ota-onalik" so'rovnomasi bo'yicha respondentlarning o'rtacha ko'rsatkichlari

Bunda ota-onalik pozitsiyalari shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich uylanmagan erkaklarda 17, uylangan erkaklarda 22, turmushga chiqmagan qizlarda 16, turmush qurgan ayollarda 21 ni tashkil qilmoqda. Ota-onaning his tuyg'ulari shkalasi bo'yicha uylanmagan erkaklarda 20, uylangan erkaklarda 23, turmushga chiqmagan qizlarda 21, turmush qurgan ayollarda 22, ota-onaning mas'uliyati shkalasi bo'yicha uylanmagan erkaklarda 21, uylangan erkaklarda 25, turmushga chiqmagan qizlarda 20, turmush qurgan ayollarda 24, oilaviy qadriyatlar shkalasi bo'yicha uylanmagan erkaklarda 19, uylangan erkaklarda 23, turmushga chiqmagan qizlarda 21, turmush qurgan ayollarda 24, oilaviy tarbiya uslubi shkalasi bo'yicha uylanmagan erkaklarda 17, uylangan erkaklarda 24, turmushga chiqmagan qizlarda 23, turmush qurgan ayollarda 25, ota-onalik munosabati shkalasi bo'yicha uylanmagan erkaklarda 24, uylangan erkaklarda 24, turmushga chiqmagan qizlarda 24, turmush qurgan ayollarda 25 ni tashkil qilmoqda.

Natijalardan ma'lum bo'ladiki, hali oila qurmagan yigit qizlarda ota-onalik rolini anglashning muhim tarkibiy qismi hisoblanuvchi ota-onalik mas'uliyati bo'yicha natijalari past bo'lib, bu ularning mustaqil hayotlarida ota-onalari bilan munosabatlarida ayrim cheklanishlar borligini anglatadi. Oilali ya'ni uylangan va turmush qurgan ayol va erkaklarda oilaviy qadriyatlar, oilaning mas'uliyati, ota-onalikning tarbiya uslublarini qabul qilish bilan bog'liq masalalarda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda. Bu ularning

oiladagi rolini, aynan ota-onalik rolini mustahkam ekanligiga ishora qiladi. Ota-onalik his tuyg'ulari hamda ota-onalikning umumiy munosabatlari shkalalari bo'yicha barcha respondent guruhlarida ijobiy yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan. Bu aynan oilaning bu jihatlarni yaxshi qabul qilishi va tushinishini, ularga ijobiy munosabatda ekanligini anglatadi.

Anglangan ota-onalik shkalasi bo'yicha, olingan natijalarni guruhlar va jinslar o'rtasidagi ahamiyatli farqlarni tekshirish maqsadida Mann-Uitni mezonidan foydalandik. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. R.V.Ovcharova va M.S.Yermixinaning "Anglangan ota-onalik" so'rovnomasi bo'yicha respondentlarning jins tafovutlari (Mann Uitni mezon bo'yicha)

Shkalalar	Jins	N	O'rtach a qiymat	Ranglar summasi	Z	p (ishonch darajasi)
Ota-onalik pozitsiyalari	erkaklar	157	140,68	22087,50	-,967	,334
	ayollar	132	150,13	19817,50		
Ota-onalik his tuyg'ulari	erkaklar	157	150,01	23552,00	-1,117	,264
	ayollar	132	139,04	18353,00		
Ota-onalik mas'uliyatlari	erkaklar	157	151,67	23812,50	-1,487	,137
	ayollar	132	137,06	18092,50		
Oilaviy qadriyatlar	erkaklar	157	138,64	21766,50	-1,421	,155
	ayollar	132	152,56	20138,50		
Oilaviy tarbiya uslubi	erkaklar	157	131,10	20583,00	-3,101	,002**
	ayollar	132	161,53	21322,00		
Ota-onalik munosabati	erkaklar	157	138,20	21697,50	-1,514	,130
	ayollar	132	153,09	20207,50		

Ota-onalik pozitsiyalari ($Z=-,967$; $p>0,05$), ota-onalik his-tuyg'ulari ($Z=-1,117$; $p>0,05$), ota-onalik mas'uliyatlari ($Z=-1,487$; $p>0,05$), oilaviy qadriyatlar ($Z=-1,421$; $p>0,05$), ota-onalik munosabati ($Z=-1,514$; $p>0,05$) shkalalarida ishonchli farqlar kuzatilmadi. Faqatgina oilaviy tarbiya uslubi shkalasida ishonchli jins tafovutlari kuzatildi ($Z=-3,101$; $p>0,01$). Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ota-onalik pozitsiyalari, hissiyotlari, mas'uliyati, qarashlari, qadriyatlar o'rtasida ishonchli jins tafovutlari kuzatilmadi. Biroq, oilaviy tarbiya

uslubi shkalasi bo'yicha ishonchli farqlar aniqlandi. Bu erkak va ayol respondentlar oilaviy tarbiya uslubi bo'yicha sezilarli darajada farqlanuvchi yondashuvlarga ega. Odatda ayollar farzand tarbiyasida yumshoq, mehribon, qo'llab-quvvatlovchi bo'lishni afzal ko'rishadi. Erkaklarda bu borada ko'proq talabchanlik, qattiqqo'llik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Shuningdek, oilada muloqot uslubi, intizom va nazorat, rag'bat va jazoga nisbatan munosabatlardagi farqlanishlar bu kabi holatga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu farqlarning sabablari sifatida oilada stereotiplar va jinsga xos yondashuvlarning ta'sirini keltirish mumkin. Quyidagi jadvalda respondentlarning guruhlar bo'yicha anglangan ota-onalik testining guruhlar o'rtasidagi ahamiyatli farqlarini tekshirib ko'ramiz. Natijalar tahlilini guruhlarimiz soni 2 dan ortiq bo'lganligi sababli Kruskal-Uollis noparametrik mezonidan foydalandik.

2-jadval. R.V.Ovcharova va M.S.Yermixinaning "Anglangan ota-onalik" so'rovnomasi bo'yicha respondentlar guruh tafovutlari (Kruskal-Uollis mezon bo'yicha)

Shkalalar	Guruhlar	N	O'rtacha qiymat	H	P
Ota-onalik pozitsiyalari	uylanmagan erkak	85	141,99	1,041	,791
	uylangan erkak	72	139,14		
	turmushga chiqmagan ayol	71	151,70		
	turmushga chiqqan ayol	61	148,14		
Ota-onalik his tuyg'ulari	uylanmagan erkak	85	154,42	4,076	,253
	uylangan erkak	72	144,81		
	turmushga chiqmagan ayol	71	148,78		
	turmushga chiqqan ayol	61	126,61		
Ota-onalik mas'uliyatlari	uylanmagan erkak	85	165,56	9,095	,028*
	uylangan erkak	72	135,28		
	turmushga chiqmagan ayol	71	145,46		
	turmushga chiqqan ayol	61	126,35		
Oilaviy qadriyatlar	uylanmagan erkak	85	136,43	8,201	,042*
	uylangan erkak	72	141,25		
	turmushga chiqmagan ayol	71	136,83		
	turmushga chiqqan ayol	61	172,64		

Oilaviy tarbiya uslubi	uylanmagan erkak	85	136,20	10,583	,014*
	uylangan erkak	72	125,08		
	turmushga chiqmagan ayol	71	164,83		
	turmushga chiqqan ayol	61	157,32		
Ota-onalik munosabati	uylanmagan erkak	85	131,12	6,229	,101
	uylangan erkak	72	146,56		
	turmushga chiqmagan ayol	71	142,75		
	turmushga chiqqan ayol	61	166,28		

Tahlil natijalariga ko'ra ota onalik pozitsiyalari ($H=1,041$; $p>0,05$), ota-onaning his tuyg'ulari ($H=4,076$; $p>0,05$), ota-onalik munosabati ($H=6,229$; $p>0,05$) shkalalari bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonchli farqlar kuzatilmadi. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, mazkur jihatlar bo'yicha respondentlarning qarashlari, munosabatlari bir-biriga juda yaqin bo'lib, sezilarli farq kuzatilmagan. Bu holat ota-nalik rolini anglashda oila qurgan yoki oila qurmaganligidan qat'i nazar umumiy pozitsiyalar, hissiyotlardagi o'xshashlik va boshqa munosabatlarda bir xillikni anglatadi. Biroq, ota-onalik mas'uliyati ($H=9,095$; $p<0,05$), oilaviy qadriyatlar ($H=8,241$; $p<0,05$), oilaviy tarbiya uslubi ($H=10,583$; $p<0,05$) shkalalari bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Ota-onalik mas'uliyati shkalasida kuzatilgan ishonchli farqlar respondentlarning ota-onalik mas'uliyatini qabul qilishi, uni amalda nomoyon etishi borasida turli qarashlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Oila qurgan respondentlar bolaning hayoti va tarbiyasiga bevosita mas'ul ekanligini bilishadi, ularda bola tarbiyalash bilan bog'liq real tajribalar mavjud. Shuningdek, ota-onalik mas'uliyati respondentlarning turli ijtimoiy (yashash sharoiti, jamiyatdagi mavqei, tarbiyalanganlik darajasi, ma'lumotlilik darajasi), madaniy va boshqa psixologik (temperamenti, xarakteri) omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Oilaviy qadriyatlar shkalasi bo'yicha respondent guruhlar o'rtasidagi sezilarli farqlarning kuzatilishi oilani tushunish, oila bilan bog'liq vazifalarni qabul qilish kabi masalalarda oila qurish bilan bog'liq tajribalarning mavjudligi ya'ni, oilali respondentlar: turmushga chiqqan ayollar va uylangan erkaklarda bu borada qarashlar yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Oilaviy tarbiya uslubi borasidagi qarashlardi farqlar ham respondentlarning oilaviy tajribasi, shaxsiy tarbiya uslublari yoki turli ijtimoiy ko'rsatmalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ota-onalik rolini anglash shaxs rivojlanishida muhim bosqichlardan biri sanaladi. Ota-onalik rolini anglash shaxsning o'zini anglashiga ham ijobiy

ta'sir ko'rsatadi. Bu ularning mas'uliyatni his qilishi, o'zaro empatiya kabi sifatlarni shakllantirishi bilan harakterlanadi. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, ota-onalik roli, birinchi navbatda, emotsional rivojlanganlik va ijtimoiy kompetensiyalarga asoslanadi. Bu orqali ota-ona farzand rivojlanishining har bir bosqichida bolaning emotsional holatlarini hisobga olishni, uning extiyojlarini to'g'ri baholay olishini anglatadi.

Ota-onalik roli erkak va ayollarning oilaviy pozitsiyalari bilan bevosita aloqador. Bu pozitsiyalar shakllanishi yosh davrlariga qarab o'zgarib boradi, ya'ni yosh ulg'ayib borishi ota-onalik roliga bo'lgan munosabatlarda ham barqaror pozitsiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, ota-onalik roliga atrof-muhitning o'ziga xos ta'siri mavjud bo'lib, ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi uni o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Oila va oila bilan bog'liq qadriyatlarga munosabat erkak va ayollarning oilaviy holatiga ko'ra farqlanadi. Oilali ayol va erkaklar oila qadriyatlarini yuqori baholashadi, oila mas'uliyatini, turmush o'rtoq bilan munosabatlarning nozik tomonlarini tajribalari asosida yaxshi bilishadi. Uylanmagan yigitlar va turmushga chiqmagan qizlarning bu boradagi qarashlarida asosan tasavvurlar va ota-onasidan ko'rganlariga tayanishadi. Shuningdek, farzand tarbiyasi, hissiy-qo'llab quvvatlash, oila ta'minoti kabi masalalarda oilali erkak va ayollar orasida ayrim tafovutlar ham kuzatiladi.

Foydalanilgana dabiyotlar ro'yxati

1. Волкова Н.П. Возрастная психология: Учебник. — М.: Академия, 2018. — 432 с.
2. Филиппова Г.Г. Психология семьи. — СПб.: Питер, 2016. — 288 с.
3. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. — М.: Прогресс, 1996. — 336 с.
4. Зимбардо Ф., Герриг Р. Психология. — СПб.: Питер, 2019. — 720 с.
5. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога. — М.: Владос, 2020. — 480 с.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Евразия, 2008. — 352 с.
7. Беличева С.А. Социально-психологические аспекты родительства. — М.: Смысл, 2015. — 290 с.
8. Крайг Г., Бокум Д. Психология развития. — СПб.: Питер, 2020. — 992 с.
9. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. — М.: Институт психологии РАН, 2010. — 312 с.

**O'SMIR SHAXSINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINING PSIXOLOGIK
XUSUSSIYATLARI**

Turgunova Gulru Todjiboyevna

International school of finance
technology and science instituti
Psixologiya va pedagogika
kafedrası (PhD) v.b. dotsent

Ermatova Mahliyo Nurmuxamed qizi

International school of finance
technology and science instituti
Psixologiya yo'nalishi
2 bosqich talabasi

Anotatsiya. O'smirlilik davri inson rivojlanishining eng murakkab va nazorat qilish qiyin bosqichlaridan biridir. Shu sababli o'smirlilik davrida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga egadir. Kommunikativ muloqotning rivojlanishiga ta'lim jarayoni katta hissa qo'shib, o'smirning dunyoqarashini ham kengaytiradi. Ushbu maqolada o'smir shaxsi va uning kommunikativ muloqot qobiliyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, muloqot, o'smir, shaxs, ta'lim jarayoni, axborot,

Hozirgi vaqtda o'smir shaxsining kommunikativ muloqot qobiliyatini oshirish uni rivojlantirisha dolzarb ahamiyatga egadir. Boisi texnika-texnologiya asrida o'smirlarning aksariyat qismi kommunikativ muloqot qobiliyatini yoqotib, virtual olamda anonim muloqotga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida o'smirning sog'lom fikrli, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Kommunikativ muloqot jarayonida faol axborot almashinuvi mavjud. Kommunikativ muloqotning ahamiyati muloqotning har bir ishtirokchisi uchun alohida rol o'ynaydi. Kommunikatsiya jarayonida odamlar nafaqat bilim almashadilar, balki dunyoqarashlarini

rivojlantirishga intiladilar. Bu faqat ma'lumotni qabul qilish emas, balki bir birlarini tushunish, anglash hamdir. Shuning uchun har bir muloqot jarayonida muloqot va bilish faoliyati birlikda namoyon bo'ladi [1].

Muloqotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan insonning kommunikativ qobiliyatiga bog'liq bo'lib, u asosan odamlar o'rtasidagi muloqot tajribasi va bevosita o'zaro ta'sir sharoitida shakllanadi.

Aksariyat o'smirlar past darajadagi muloqot qobiliyatiga ega. Bu hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishidagi og'ishlarga, ijtimoiy o'zaro munosabatlarning buzilishiga, o'ziga ishonchsizlikka olib keladi shu munosabat bilan hozirgi vaqtda o'smirlar bilan tarbiyaviy ishning asosiy yo'nalishi quyidagi muammolarga qaratilib kelinmoqda:[2]

- shaxslararo munosabatlar;
- insoniy muloqot qobiliyatlari;
- jamiyatga moslashish.

O'smirning tengdoshlari bilan o'zaro munosabati, uning xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi bo'lganligi sababli, muloqot qobiliyatlarining sahlklanishiga katta e'tibor qaratilishi lozim.

Muloqot qobiliyatlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:[3]

- raqibni idrok etish va tushunish qobiliyati (sotsiiallashuv darajasida);
- o'z munosabatingizni ko'rsatish va tanqidni qabul qilish qobiliyati;
- suhbatdoshning qo'zg'atuvchi xatti-harakatlariga javob berish qobiliyati;
- hamdardlik va qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- boshqa odamlarning hamdardligi va yordamini qabul qilish;
- boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati.

Bundan tashqari shuni e'tirof etish lozimki, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish (muloqot ko'nikmalari, tinglash, o'z nuqtai nazarini muhokama qilish va o'z pozitsiyasini

himoya qilish qobiliyati) o'quvchining hayotdagi o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi belgilash va ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiladi.

Ta'lim jarayonida muloqot universal aloqa vositasi hisoblanib nutq orqali amalga oshiriladigan bilim va ko'nikmalar, fikrlar va boshqalarni uzatish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Shaxsning muloqot qobiliyatining ortib borayotgan roli, uning guruhda, jamoada o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati dialog texnologiyalari orqali samarali rivojlanishi mumkin. Ushbu texnologiyalar sinfda amalga oshiriladi. Nutq madaniyati kommunikativ madaniyatning bir qismi sifatida to'g'ridan-to'g'ri sinfda amalga oshiriladigan muloqot, ommaviy nutq va muammolarni muhokama qilish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.. Darsdagi asosiy tarbiyaviy maqsad - har bir o'quvchi dars jarayonida ishtirok etadigan, o'smir uchun bilim manbai o'z hayotiy tajribasi bo'lgan dialogik o'zaro ta'sir orqali qulay sharoitlarni yaratishdir. O'smirlar bilan axborot-profilaktika ishlarini olib borish ushbu yo'nalishdagi samaradorlikka ishonish imkonini beradi. Kommunikativ faoliyatni tashkil etishning yana bir samarali shakli trening bo'lib, unda rolli o'yinlar, munozaralar va boshqalar qo'llaniladi. Ushbu trening ishining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:[1]

- hissiy stressni kamaytirish;
- boshqa odamning hissiy holatini tushunish qobiliyatini va o'z fikrini yetarli darajada ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish odatlarini rivojlantirish;
- xulq-atvorni o'yin bilan tuzatish: haddan tashqari kuchlanish va xavotirni yo'q qilish; samarali, konstruktiv harakatlarga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni yo'q qilish;
- ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish.

Shaxs sifatida rivojlantirishdagi o'smirlikdagi qiyinchiliklar, shuningdek, yolg'izlik, bezovtalik, noaniqlik tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lib, ular muloqot qilish, tengdoshlari bilan guruhlashish istagiga olib keladi, ularning kompaniyasida ular o'z-o'zidan, faollik va o'zlarining ahamiyatini tan olishadi. Shu munosabat bilan, ijtimoiy yo'naltirilgan o'zaro ta'sirni o'smirlar o'rtasidagi o'z-o'zidan guruhlarining o'zaro ta'sirini yo'q qilishga (yoki ehtiyojni kamaytirishga) yordam beradigan ijtimoiy foydali faoliyatga qaratilgan jamoaviy ijodiy faoliyat orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Zero, o'smirlarda muloqot

ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi yosh avlodning rivojlanish darajasiga yuqori talablar qo'yadigan jamiyatda talabalarni ijtimoiylashtirishda dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E. G 'oziyev. Muomala psixologiyasi. T. 2001.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102993/13.mavzu.Muloqot.htm>

INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI YOSHLARGA O'RGATISH UCHUN
FOYDALI TIZIMLAR

Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi
mazurbekrustamjonov@gmail.com
Ilmiy rahbar: Xodjiyeva Zumrad Mahmudjonovna

USEFUL SYSTEMS FOR TEACHING ENGLISH GRAMMAR TO YOUNG
PEOPLE

Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li
Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages
mazurbekrustamjonov@gmail.com
Scientific supervisor: Khodjiyeva Zumrad Makhmudjonovna

Annotation: This article explores modern, effective, and innovative methods of teaching English grammar. It analyzes the communicative approach, the contextual method, the use of technology, the differentiated approach, and game-based methods in grammar instruction. Alongside theoretical perspectives, the article also provides practical recommendations.

Keywords: English language, grammar, methodology, communicative approach, technologies, game-based method, interactive learning.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini o'rgatishning zamonaviy, samarali va innovatsion metodlari yoritiladi. Grammatikani o'rgatishda kommunikativ yondashuv, kontekstual metod, texnologiyalardan foydalanish, differensial yondashuv va o'yinli metodlar tahlil qilinadi. Maqolada nazariy qarashlar bilan birga amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, grammatika, metodika, kommunikativ yondashuv, texnologiyalar, o'yinli metod, interaktiv ta'lim.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ta'lim, biznes va texnologiya sohasi uchun muhim vositaga aylangan. Til o'rganish jarayonida ingliz grammatikasi muhim komponent bo'lib, u muloqotning aniqligi, mantiqiyligi va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Biroq, grammatikani o'quvchi yoshlarga o'rgatish qiyin bo'lishi mumkin, chunki u nazariy bilim va amaliy qo'llash o'rtasidagi o'ziga xos bo'lgan muvozanatni talab qiladi. Shu sababli, ingliz grammatikasini o'rgatishda metodik yondashuvlar mutassil tarzda takomillashib bormoqda. Dastlab, ingliz grammatikasining asosiy tushunchalari, masalan, jumlarlar tuzilishi va zamonlardan foydalanishni aytib o'tish mumkin. O'rganuvchi yoshlar murakkabroq grammatik qoidalarni o'rganishdan oldin ushbu tushunchalarni chuqur o'zlashtirib olishlari muhimdir.

Aslini olib qaraydigan bo'lsak, grammatikani o'rgatishda **kommunikativ** (ya'ni, "o'zaro aloqa qilish", "bo'lishish") **yondashuv** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tibor faqatgina mavjud qoidalar va lug'atni yodlab olishga e'tibor qaratishdan ko'ra, real hayotiy vaziyatlarda tildan foydalanishga urg'u beradi. Yosh o'rganuvchilarni turli interaktiv o'yinlar, bahslar va munozaralar kabi amalga oshishi mumkin bo'lgan mazmunli kommunikativ faoliyatga jalb etish orqali ular grammatikani o'rganishlari va bir vaqtning o'zida nutq va tinglash salohiyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Kommunikativ yondashuv asosida ingliz grammatikasini izchil qo'llash orqali o'quvchilarning real hayotda muloqotga kirishish malakasi shakllantiriladi. Bu metodda grammatika funksional til vositasi sifatida o'rgatiladi. Jumladan, "Present Perfect" zamoni o'quvchilarning hayotiy tajribalari haqida suhbatlashish orqali o'rgatiladi: "Have you ever been abroad?" kabi savollar bilan til amaliyotga tatbiq etiladi.

Shuningdek, grammatikani **kontekst** asosida o'rgatish — ya'ni uni haqiqiy matnlar, hikoyalar, maqolalar, muloqotlar doirasida tushuntirish — o'quvchining idrokini yengillashtiradi. Aynan, mana shunday o'ziga xos bo'lgan kontekstlar orqali o'rgatish ham yoshlarda grammatikani tez holatda o'rgana bilishi yuzaga keladi hamda o'quv jarayonini yanada qiziqarli va dolzarb qilishga imkon beradi.

Grammatikani samarali holatda o'qitishda **texnologiya integratsiyasi** ingliz tilini o'rganuvchi yoshlar uchun o'qib-o'rganish tajribasini oshirishi mumkin. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar orqali grammatikani o'rganish keng qo'llanilmoqda. Interaktiv grammatika ilovalari, onlayn mashqlar va multimedia resurslari iqtidorli yoshlarda grammatik tushunchalarni mashq qilishning turli va qiziqarli usullarini taqdim etishi mumkin,

bu esa o'quv jarayonini yanada dinamik va qiziqarli qiladi. Namuna sifatida aytish mumkinki, Quizlet, Kahoot, Duolingo, Grammarly, YouTube va TED Talks. Shu kabi zamonaviy texnologiyalar individual yondashuv, tezkor fikr-mulohaza va erkin takrorlash imkonini beradi.

Shu o'rinda bir holatni aytib o'tish mumkinki, **differensial yondashuv** ham mavjud. Bu holatda izlanuvchi har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasi, imkoniyati va o'rganish uslubi bir-biridan farq qiladi. Bunda esa pedagog har bir o'quvchiga nisbatan alohida, yakkama-yakka tarzda ishlash hamda ularga berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarni turli darajada, bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirish kerak. Shu yo'l bilan biz imkoniyati turlicha bo'lgan yoshlarga ingliz grammatikasi bo'yicha metodologik uslublarni namoyish etishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ingliz tili grammatikasini o'rgatishda bir xil yondashuvdan foydalanish yetarli emas. Ustozlar zamonaviy metodlar bilan an'anaviy metodlarni uyg'unlashtirib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashgan holda grammatika darslarini olib borishlari kerak. Bu borada interaktiv metodlar, zamonaviy texnologik vositalar, kommunikativ vazifalar, kontekstual materiallar va differensial yondashuv asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu usullarning kombinatsiyasini qo'llash orqali o'qituvchilar til o'rganuvchi yoshlarda grammatikani chuqurroq tushunishga yordam beradigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Khodjjeva, Z. (2024). Using principles of assessment to redesign written examinations. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 261-265.*
2. *ZBM Gulnora Ulashevna Ochilova. The importance of teaching and learning vocabulary. International Scientific Research Journal (WoS), 1029-1033, 2022*
3. *МШ Бахриддинова. Роль художественного текста в обучении иностранному языку как источника культурной информации. Хориййу лингвистика ва лингводидактика Foreign Linguistics and ..., 2023*
4. *U Normuhammad. A look at the history of biographical works or moses. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024*
5. *AK Uchkunovich. Mastering the art of writing: skills, strategies, and success. Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific ..., 2023*

6. Zumrad, K. (2024). *Analyzing the Factors of Grammar Mistakes Made by Uzbek Students and Ways to Improve Them. International Journal of Formal Education, 3(5), 215–218.*
7. MS Bakhridinova. *Advantages and disadvantages of using authentic text. International conference on educational innovations and applied sciences, P ..., 2022*
8. NX Ubaydullayev. *The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. Current research journal of philological sciences 2 (07), 36-39, 2021*
9. OG Ulashevna. *A Brief History of Study of Kinship Terms. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 4 ..., 2024*
10. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education.*
11. Ur, P. (2012). *Grammar Practice Activities: A Practical Guide for Teachers (2nd ed.). Cambridge University Press.*
12. U Normuhammad. *Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar. Miasto Przyszłości 55, 279-280, 2024*
13. GU Ochilova. *Teaching vocabulary to english for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. Colloquium-journal, 57-58, 2021*
14. Thornbury, S. (1999). *How to Teach Grammar. Longman.*
15. D Sadullaeva, M Bakhridinova. *Learning culture through literary text. International Conference exploring global perspectives in language teaching ..., 2024.*
16. Shukurova, U. A., & Gaffarova, S. S. (2022). *Indicators Of Free Radical Oxidation Of Oral Fluid In Patients With Lichen Plus Of The Mucosus Cavity Of The Mouth. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 862-865.*
17. Mekhrojovna, D. S., & Erkinovna, K. F. (2025). *Characteristic features of the semantics of color in the phraseology of the Uzbek language. EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(2), 131-136.*

THE IMPACT ON SOCIAL MEDIA IN HUMAN LIFE

Egamova Shahnoza Nuriddin qizi

Gmail: shahnozaegamova474@gmail.com

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Scientific supervisor: Sattarova Dildora Ikramboyevna

Annotation: In today's fast-paced world, social media plays a crucial role in everyone's life, influencing both the positive and negative aspects of their daily balance. This article explores the effects of social media on all age groups. It highlights several negative consequences such as mental health issues, anxiety, low self-esteem, sleep disorders, high stress, and even depression. On the other hand, it also sheds light on its benefits, such as connecting with family and friends, accessing educational resources, and staying updated in different fields. Additionally, the article explains how excessive use of social media may affect memory and concentration, while suggesting how to use these platforms in a healthy and balanced.

Keywords: Social media, mental health, depression, anxiety, memory, communication, fake news, stress, concentration, education, connectivity, cyber safety, digital habits, sleep disorders.

Аннотация: В современном быстром мире социальные сети играют важную роль в жизни каждого человека, оказывая как положительное, так и отрицательное влияние на баланс жизни. В данной статье рассматриваются все аспекты использования социальных сетей людьми всех возрастов, включая негативные эффекты, такие как проблемы с психическим здоровьем, тревожность, низкая самооценка, нарушения сна, высокий уровень стресса и депрессия. Также обсуждаются положительные стороны, такие как возможность поддерживать связь с семьей и друзьями, доступ к образовательным ресурсам и получение новой информации в различных областях. Статья также подчеркивает, как чрезмерное использование социальных сетей может повлиять на память и концентрацию, и предлагает рекомендации по сбалансированному и здоровому использованию этих платформ.

Ключевые слова: Социальные сети, психическое здоровье, депрессия, тревожность, память, общение, фейковые новости, стресс, концентрация, образование, связь, кибербезопасность, цифровые привычки, расстройства сна.

Annotatsiya: Zamonaviy tezkor dunyoda ijtimoiy tarmoqlar har bir inson hayotida muhim rol o'ynaydi va hayot balansiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada barcha yoshdagilar orasida ijtimoiy tarmoqlarning barcha jihatlari, jumladan, ruhiy salomatlik muammolari, bezovtalik, o'z-o'ziga ishonchsizlik, uyqu buzilishlari, yuqori stress va depressiya kabi salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy va do'stlar bilan bog'lanish, ta'lim resurslariga ega bo'lish va turli sohalardagi yangi ma'lumotlarni olish kabi ijobiy tomonlari ham ko'rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish xotira va diqqatga qanday ta'sir qilishi ham yoritilgan hamda ushbu platformalardan muvozanatli va sog'lom foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, ruhiy salomatlik, depressiya, bezovtalik, xotira, muloqot, yolg'on yangiliklar, stress, diqqat, ta'lim, aloqa, kiberxavfsizlik, raqamli odatlar, uyqu buzilishi.

Introduction. In today's digital age, social media has become an inseparable part of human life, influencing nearly every aspect of daily living. From maintaining personal relationships to gaining access to news and educational content, it plays a crucial role in modern communication. However, while social media offers many advantages, it also brings about several challenges that can negatively impact mental and physical well-being. Excessive screen time, exposure to unrealistic portrayals of life, and the constant need for validation have led to increased cases of anxiety, low self-esteem, and even depression, especially among younger generations. Additionally, fake news and privacy threats raise serious concerns about online safety. Despite these downsides, social media remains a powerful tool for creativity, learning, and global connection. This article aims to explore both the benefits and drawbacks of social media usage, offering insights into how it affects human life and providing suggestions for maintaining a healthy balance in the digital world.

Negative Effects of Social Media: In recent years, the usage of social media has rapidly increased, offering opportunities in various fields. However, it also brings serious negative consequences. This section explores how constant use of online platforms affects human life both mentally and physically. Mental health issues, memory loss, stress, and anxiety are among the common problems caused by overuse. Constant scrolling and

switching between apps trains the brain to expect fast content, reducing the ability to focus and weakening memory retention. Exposure to an overwhelming amount of information makes it harder to store and recall important details. Moreover, using phones and computers late at night can lead to sleep disorders, eye strain, and vision decline. Many people passively consume information without deep thinking, just scrolling or liking posts. Without deeper mental processing, memories are not stored effectively in the brain.

Moreover, the effect of social media is various such as if youngsters more face problems related to mental problems, they can get excess stress from news for adults. Another reason is that spread of fake news are the disadvantage site of online platforms which have negative impact on people's consideration. Cyber attacks and the safety of personal information – revealing personal data on social media can be dangerous. Many hackers use people's photos and personal details to make money or threaten them with menacing information. Modern occupations and opportunities – social media has created many opportunities such as online businesses, freelancing, and the chance to build personal or professional brands.

Positive Effects of Social Media: On the other hand, social media has many beneficial aspects that positively impact people of all ages. Firstly, it helps individuals stay connected with family and friends, even from a distance. It also supports education by providing valuable information and resources in various fields. Secondly, social media serves as a creative outlet for many people to express themselves through writing, photography, videos, and art. It allows users to find communities that share similar interests, which can create a sense of belonging and emotional support. When used properly, social media can motivate, inspire, and educate individuals across the world.

Solutions for Balanced Usage: There are many simple and affordable ways to use social media wisely without facing harmful consequences. First of all, people should learn to use it in a balanced and mindful way. Setting time limits for daily use can prevent overuse and protect mental health. It is also helpful to keep phones away and turn off notifications before sleeping, which can improve sleep quality and reduce eye strain. Moreover, using online platforms mainly for educational or creative purposes makes the experience more meaningful. Finally, spending more time engaging in real-life interactions and physical activities can reduce stress levels and improve overall well-being.

Conclusion. In conclusion, many people today suffer from the consequences of not knowing how to use mobile phones and similar gadgets in a proper way. Unfortunately, this

issue has become a global problem, affecting both mental and physical health. Despite this, social media still plays an essential role in our lives—it helps us stay connected, learn, and grow. The key is to use it wisely. By developing better digital habits and limiting screen time, people can benefit from social media without falling into its harmful traps. Balanced use can ensure that social media becomes a tool for good, not harm.

References

1. Smith, J. (2022). The Impact of Social Media on Mental Health. *Journal of Psychology*, 15(3), 45-60.
2. МШ Бахридинова. Роль художественного текста в обучении иностранному языку как источника культурной информации. *Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika Foreign Linguistics and ...*, 2023
3. GU Ochilova. Teaching vocabulary to english for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. *Colloquium-journal*, 57-58, 2021
4. NX Ubaydullayev. The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. *Current research journal of philological sciences 2 (07)*, 36-39, 2021
5. D Sadullaeva, M Bakhriddinova. Learning culture through literary text. *International Conference exploring global perspectives in language teaching ...*, 2024
6. AK Uchkunovich. Mastering the art of writing: skills, strategies, and success. *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific ...*, 2023
7. Johnson, L. (2021). Social Media and Memory: Cognitive Effects. *Cognitive Science Review*, 12(2), 112-128.
8. Brown, A. (2020). Balancing Social Media Use in Daily Life. *Tech and Society*, 8(4), 75-89.
9. U Normuhammad. A look at the history of biographical works or moses. *International Journal of Pedagogics 4 (12)*, 232-234, 2024
10. OG Ulashevna. A Brief History of Study of Kinship Terms. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 4 ...*, 2024
11. Davis, M. (2023). Cybersecurity Risks on Social Media Platforms. *Journal of Digital Safety*, 5(1), 23-38.
12. ZBM Gulnora Ulashevna Ochilova. The importance of teaching and learning vocabulary. *International Scientific Research Journal (WoS)*, 1029-1033, 2022.

13. Shukurova, U. A., & Gaffarova, S. S. (2022). Indicators Of Free Radical Oxidation Of Oral Fluid In Patients With Lichen Plus Of The Mucosus Cavity Of The Mouth. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 862-865.
14. U Normuhammad. *Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar*. *Miasto Przyszłości* 55, 279-280, 2024
15. MS Bakhridinova. Advantages and disadvantages of using authentic text. *International conference on educational innovations and applied sciences*, P ..., 2022.
16. Mekhrojovna, D. S., & Erkinovna, K. F. (2025). Characteristic features of the semantics of color in the phraseology of the Uzbek language. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(2), 131-136.
17. Джалилова, С., & Хамидова, Ф. (2025). Роль цвета в формировании национальной картины мира: узбекский и испанский языки в сравнении. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 3(1), 380-384.

**O'ZBEK TILIDA FITONIMLARNING MORFOLOGIK VA FONETIK
XUSUSIYATLARI.**

**МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ И ФОНЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
ФИТОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.**

**MORPHOLOGICAL AND PHONETIC CHARACTERISTICS OF PHYTONYMS
IN THE UZBEK LANGUAGE.**

Suyunova Kamola Uchqun qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

yo'nalish 4-kurs

+998-94-785 01 28

suyunovakamola2003@gamil.com

Annotatsiya;Ushbu ishda o'zbek tilidagi fitonimlarning (o'simlik nomlarining) morfologik va fonetik xususiyatlari o'rganiladi. Fitonimlar xalq tilida va adabiy matnlarda keng qo'llanilib, ularning tuzilishi, shakllanish yo'llari, tovush tarkibi tilshunoslik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Ishda fitonimlarning tarkibiy qismlari, ular tarkibida uchraydigan affikslar, morfemalar va tovush o'zgarishlari tahlil qilinib, ularning semantik yuklamasi ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, fitonimlarning xalq og'zaki ijodi, maqol, matal va folklor namunalaridagi o'rni haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar;fitonim, o'simlik nomlari, morfologiya, fonetika, morfemika, tovush o'zgarishi, semantika, xalq og'zaki ijodi, o'zbek tili.

Абстрактный;В данной работе изучаются морфологические и фонетические характеристики фитонимов (названий растений) в узбекском языке. Фитонимы широко используются в фольклорных и литературных текстах, а их структура, способы образования и звуковой состав имеют большое значение с лингвистической точки зрения. В работе анализируются компоненты фитонимов, встречающиеся в них аффиксы, морфемы и звуковые изменения, а также рассматривается их семантическая нагрузка. Обсуждается также роль фитонимов в устном народном творчестве, пословицах, поговорках, фольклорных образцах.

Ключевые слова; фитоним, названия растений, морфология, фонетика, морфемика, изменение звука, семантика, народная литература, узбекский язык.

Abstract; This work studies the morphological and phonetic characteristics of phytonyms (plant names) in the Uzbek language. Phytonyms are widely used in the vernacular and literary texts, and their structure, formation methods, and sound composition are of great importance from the point of view of linguistics. The work analyzes the components of phytonyms, the affixes, morphemes, and sound changes that occur in them, and also considers their semantic load. It also considers the role of phytonyms in folk oral literature, proverbs, sayings, and folklore samples.

Keywords: phytonym, plant names, morphology, phonetics, morphemics, sound change, semantics, folk art, Uzbek language.

Kirish; O‘zbek tilidagi fitonimlar morfologik jihatdan turli xil tuzilishga ega bo‘lib, ular so‘z yasash modellari, leksik birliklarning shakllanishi va qo‘shimchalanish qonuniyatlarini o‘zida mujassam etgan til birliklaridir. Fitonimlarning morfologik xususiyatlarini o‘rganish orqali nafaqat ularning tuzilishini, balki nomlashdagi milliy uslub va tildagi so‘z yasash tendensiyalarini ham aniqlash mumkin. Fitonimlar odatda oddiy (tub), yasama, birikmali va qisqartma shakllarda bo‘lishi mumkin. Ularning hosil bo‘lishida esa affiksial (qo‘shimchalar orqali), sintaktik (so‘z birikmalari asosida), semantik va leksik vositalar keng qo‘llaniladi.

Asosiy qisim; Avvalo, oddiy (tub) fitonimlar haqida so‘z yuritilsa, ular hech qanday qo‘shimchasiz, mustaqil holatda mavjud bo‘lgan va ma‘lum bir o‘simlik turining nomi sifatida ishlatiladigan so‘zlardir. Bunday fitonimlarga “rayhon”, “g‘o‘za”, “do‘lana”, “tol”, “terak”, “yantoq”, “o‘rik” kabi o‘simlik nomlari misol bo‘la oladi. Bu turdagi fitonimlar ko‘pincha qadimiy turkiy leksik qatlamga mansub bo‘lib, xalq tilida uzoq tarixga ega va keng tarqalgan birliklardir.

Yasama fitonimlar esa so‘z yasovchi affikslar (qo‘shimchalar) yordamida hosil qilingan bo‘lib, ularning tarkibida morfologik analiz uchun asos bo‘ladigan affiksli shakllar mavjud. O‘zbek tilida eng ko‘p uchraydigan yasama fitonimlar -chi/-gi, -zor/-lik, -guli/-gul qo‘shimchalari yordamida yaratiladi. Masalan, “ituzum” (it + uzum), “qoraqalpoq” (qora + qalpoq), “ko‘kalamzor” (ko‘k + alam + zor), “chuchukmiyona” (chuchuk + miya + na) kabi nomlar bir yoki bir nechta so‘zdan, ba‘zan esa o‘zaro bog‘langan morfemalardan tashkil

topgan bo'ladi. Bu kabi fitonimlarda o'simlikning tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi, qayerda o'sishi, foydasi yoki boshqa belgilar asosida nomlanish yuzaga keladi.

Birikmali fitonimlar esa ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikmasi asosida hosil bo'lgan murakkab nomlardir. Bu turdagi fitonimlar sintaktik yo'l bilan hosil qilinadi. Masalan: "yo'l bosh gul", "quyosh gullar", "qora choy", "ko'k rayhon", "tog' yong'og'i", "it boshi", "sariq chechak" kabi nomlar shular jumlasidandir. Bunday nomlarda aniqlovchi va aniqlanuvchi so'zlar grammatik bog'lanishda bo'ladi va ular bir butun nomlash birlik sifatida ishlatiladi. Bu esa o'simlik nomlarining shaklan ko'p komponentli, ma'nosan esa konkret tasviriy bo'lishiga olib keladi.

Fitonimlar tarkibida so'z yasovchi affikslar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, -zor qo'shimchasi ko'pincha o'simlik o'sadigan joyni bildiruvchi nomlarni yaratishda qo'llaniladi: "g'ozpichanzor", "yantoqzor", "qamishzor". Shuningdek, -lik qo'shimchasi umumiylik, joy yoki o'simlikka oidlik bildiruvchi semantik yuklamaga ega bo'ladi: "barglik", "g'ozpanjalik", "qorag'ilik". -chi/-gi qo'shimchalari esa ko'proq o'simlikning funksional yoki xususiyat bildiruvchi jihatlarini ifodalash uchun ishlatiladi: "itquloqchi", "mallaqizg'aldoqchi", "shirinmiya" va h.k.

Metaforik va metonimik asosda yaratilgan fitonimlar ham o'ziga xos morfologik shakllanishga ega. Masalan, "qarg'atilli", "mushukoyoq", "ilonquloq" kabi nomlarda o'simliklar hayvon yoki boshqa jonzotlar bilan tashbehlik asosida nomlangan bo'lib, ularning shakli, bargi, gullari yoki boshqa qismlari shu hayvonlarning ayrim a'zolariga o'xshatilgan. Bu kabi nomlar xalq tilining poetik, obrazli qudratini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi fitonimlarning yana bir morfologik xususiyati — leksik variantlikdir. Ayrim o'simliklar turli hududlarda turlicha morfologik shakllarda nomlanadi. Masalan, "kuyrukotu" (Surxondaryo), "ilonquloq" (Andijon), "devyaproq" (Toshkent viloyati), "ang'utgulli" (Buxoro) kabi nomlar bitta o'simlikka tegishli bo'lib, ularning morfologik shakli turlicha, lekin semantik mazmuni umumiydir. Bu holat dialektologik va etnolinguistik jihatdan o'ta muhim bo'lib, tilning hududiy morfologik ko'rinishlarini ochib beradi. Bundan tashqari, fitonimlar ba'zan reduplikatsiya yo'li bilan ham hosil bo'ladi: masalan, "barg-barg", "gul-gulak", "qiy-qiyigul" kabi nomlarda so'zlarning takrorlanishi orqali o'simlikning ko'p miqdordaligi yoki rang-barangligi ifodalanadi. Bu holat fitonimlarning ekspressiv-emotsional funksiyasini kuchaytiradi.

Fitonimlarning morfologik xususiyatlari ularning so‘z turkumlari bilan bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. Aksariyat fitonimlar ot turkumiga mansub bo‘lib, ba‘zilari sifat yoki fe‘l bilan bog‘liq birliklardan hosil bo‘ladi. Masalan, “shifobaxsh” (sifat), “oqargul” (fe‘l + ot) kabilar turli morfologik bazalardan tashkil topadi. Bu esa tilning so‘z yasash imkoniyatlari va strukturaviy boyligini namoyon etadi. O‘zbek tilidagi fitonimlarning morfologik xususiyatlari juda rang-barang va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular xalqning til boyligi, nomlash madaniyati va tafakkur uslubini ochib beruvchi muhim til birliklaridir. Ularning hosil bo‘lish usullari, tarkibiy tuzilmalari, qo‘shimchalanish tizimi, sintaktik qurilishi va dialektal tafovutlari orqali o‘zbek tili leksikasining boyligi va tarixiy qatlamlari chuqurroq yoritiladi.

O‘zbek tilida fitonimlar, ya’ni o‘simlik nomlari faqatgina leksik-semantik, etimologik yoki morfologik jihatdan emas, balki fonetik xususiyatlari bilan ham alohida tahlilga loyiq bo‘lgan til birliklaridandir. Ularning fonetik tizimi, ya’ni tovush tarkibi, tovushlar kombinatsiyasi, urg‘u joylashuvi, fonotaktik imkoniyatlari va fonetik variativligi tilshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan fitonimlar fonetik qurilishi jihatidan turlicha bo‘lib, ularning shakllanishi, talaffuzi va tashqi tovush qobig‘i ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Quyida fitonimlarning fonetik xususiyatlarini uzluksiz matn tarzida, chuqur va keng yoritamiz.

Fitonimlar fonetik tuzilish jihatidan o‘zbek tilining umumiy tovush tizimiga mos bo‘lib, ularning shakllanishida tilga xos fonotaktik qonuniyatlar amal qiladi. Ularning asosiy fonetik xususiyatlaridan biri — tovushlar uyg‘unligidir. O‘zbek tilida, ayniqsa xalq orasida keng tarqalgan fitonimlarda undosh va unli tovushlar uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “rayhon”, “gulsafsar”, “itbozori”, “bodom”, “shuvoq”, “qorag‘at” kabi nomlarda tovushlar o‘zaro fonetik muvofiqlik asosida birikkan bo‘lib, talaffuzda qulaylik yaratadi. Bu tovush uyg‘unligi fitonimlarning xalq orasida asrlar davomida og‘zaki nutqda mustahkam joy olganini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbek tilida fitonimlar xalq tafakkuri, milliy qadriyatlar va tabiat haqidagi tasavvurlarni aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biridir. Ularning morfologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, fitonimlar asosan tub so‘zlar, qo‘shimchali shakllar va so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Fonetik jihatdan esa ular tovush tarkibi, urg‘u xususiyatlari hamda talaffuz o‘ziga xosliklariga

ega. Fitonimlarning shakllanishida qadimiy ildizlar, milliy leksika va dialektal unsurlar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ular xalq og‘zaki ijodi va yozma manbalarda keng qo‘llanilib, o‘zbek tilining boyligi va ko‘p qirraliligini namoyish etadi. Ushbu ish natijalari tilshunoslikda fitonimlarni chuqurroq o‘rganish, ularni lug‘atlashtirish va saqlashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘raev, N. **O‘zbek tilida o‘simlik nomlari.** – Toshkent: Fan, 1995.
2. Rahmonov, I. **O‘zbek tilining leksikologiyasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. G‘afurov, X. **O‘zbek tilining fonetika asoslari.** – Toshkent: Fan, 1998.
4. Qodirov, A. **O‘zbek tilining morfologiyasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. Normurodov, B. **Fitonimlar va ularning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni.** – Toshkent: Fan, 2010.
6. Zikrillaeva, M. **O‘zbek dialektologiyasi asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK BILIMLARNI
MUSTAHKAMLASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI**

Axmedov Muslimjon Usmonovich

Qo'qon Universiteti "Raqamli texnologiyalar va
matematika" kafedrası o'qituvchisi

Isroilova Bibioysha Ikromjon qizi

Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. O'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, matematik tafakkurini rivojlantirish hamda bilimlarni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Ish davomida didaktik o'yinlarning turlari, ularni amaliy darslarda qo'llash usullari va ularning o'quvchilarga ta'siri misollar bilan ko'rsatib berilgan. Mazkur mavzu boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik jihatdan foydali tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, didaktik o'yin, o'quvchilar faolligi, metodika, bilimlarni mustahkamlash

KIRISH

Maktab ta'limining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga matematika fanidan asosiy tushunchalarni tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kunda ta'lim tizimida interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan faol, harakatchan va o'yin orqali o'rganishga moyil bo'lgan yosh toifasiga mansubdirlar. Shu sababli ularni matematik bilimlarga qiziqtirishda, darslarda faollikka undashda va mavzuni chuqurroq anglashlariga yordam berishda didaktik o'yinlar muhim vosita bo'lib xizmat

qiladi. Ushbu tezis ishida boshlang'ich ta'limda matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning metodik asoslari, ularning o'quvchilarga ta'siri va bilimlarni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Ishning maqsadi — dars jarayonida o'yin elementlaridan oqilona foydalanish orqali o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini shakllantirish yo'llarini ko'rsatishdir.

Didaktik o'yinlar — bu o'quv jarayonida ma'lum pedagogik maqsadni ko'zlab tashkil etiladigan o'yin faoliyatidir. Ular o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, tafakkurini rivojlantirish va darsga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar ayniqsa samarali vosita hisoblanadi, chunki o'quvchilar bu yoshda o'yin orqali tezroq o'rganadilar, faolroq ishtirok etadilar va mavzuni chuqurroq anglaydilar.

Didaktik o'yinlar turli belgilarga ko'ra tasniflanadi. Masalan:

- Mazmuniga ko'ra: matematik, til o'rgatuvchi, tabiatshunoslikka oid;
- O'tkazilish shakliga ko'ra: jamoaviy, juftlikda yoki individual;
- Vositasiga ko'ra: predmetli (kubik, kartochka, hisob vositalari bilan), og'zaki (savol-javob asosida), raqamli texnologiyalarga asoslangan.

Boshlang'ich sinflar uchun matematik didaktik o'yinlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- “Qaysi son yo'qolgan?” – o'quvchilarga ketma-ket raqamlar aytiladi, lekin bitta son ataylab tushirib qoldiriladi. O'quvchi aynan qaysi son yo'qligini topishi kerak.
- “Top va joylashtir” – geometrik shakllar yoki raqamlar turkumidan mosini topib, to'g'ri joylashtirish talab etiladi.

• “Kim tezroq yechadi?” – oddiy misollarni tez va to'g'ri yechgan o'quvchilar ball to'playdi.

Bunday o'yinlar darsni jonlantiribgina qolmay, balki o'quvchilarda matematik fikrlash, muammo yechishga bo'lgan qobiliyat va e'tiborni rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar orqali o'qituvchi mavzuni oson tushuntirishi, bolalarni jalb etishi va bilimlarni mustahkamlashi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan matematika darslarida o'yin usullaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Metodik nuqtayi nazardan, o'yinlarni

darsning kirish, asosiy yoki mustahkamlash bosqichlarida moslashtirib qo'llash mumkin. Muhimi, o'yinlar nafaqat o'yin uchun, balki maqsadli tarzda, aniq pedagogik vazifani hal qilishga xizmat qilishi kerak.

Darsda o'yinlardan foydalanishda quyidagi bosqichlarga e'tibor beriladi:

1. Maqsadni aniqlash — o'yin qanday bilim yoki ko'nikmani shakllantirishi kerakligini belgilash.
2. Mos o'yin tanlash — o'quvchilarning yoshiga, dars mavzusiga va qiyinchilik darajasiga qarab.
3. O'yin qoidalarini tushuntirish — o'yin jarayoni aniq va tushunarli bo'lishi kerak.
4. Faol ishtirokni ta'minlash — barcha o'quvchilarni jalb qilish, rag'batlantirish.
5. Tahlil va xulosa chiqarish — o'yin natijasida qanday bilimlar mustahkamlanganini muhokama qilish.

Amaliy misollar:

- 1-sinf: "Raqamni tanib ol" o'yini – o'qituvchi raqamlar yozilgan kartochockalarni ko'rsatadi, o'quvchi nomini aytadi va shu raqamga oid misol tuzadi.
- 2-sinf: "To'g'ri yoki noto'g'ri" – taxtaga misollar yoziladi, o'quvchi ularni baholaydi: to'g'ri bo'lsa — chapga, noto'g'ri bo'lsa — o'ngga yuradi.
- 3-sinf: "Matematik domino" – misollar va javoblar yozilgan kartochockalar orqali zanjirli o'yin tashkil qilinadi.
- 4-sinf: "Qiziqarli test" – guruh bo'lib ishlanadi, har bir guruhga savollar paketi beriladi, eng ko'p to'g'ri javob bergan jamoa yutadi.

Bu metodlar o'quvchilarni darsga faol jalb etadi, o'z bilimlarini mustahkamlashga, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlardan foydalanishda asosiy e'tibor — o'quvchilarda raqobatni emas, hamkorlik va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat bilim manbai, balki ruhiy va aqliy rivojlanish omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega. O'yinlar orqali o'quvchilar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni his qiladilar, darsda faol ishtirok etadilar va o'z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydilar. Bu esa ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, didaktik o'yinlar:

- Matematik tafakkurni shakllantiradi: o'quvchi misollarni yechishda mantiqiy fikrlaydi, solishtiradi, xulosa chiqaradi.
- Diqqat va tezkorlikni oshiradi: o'yin davomida vaqtni to'g'ri taqsimlash, tez fikrlash va javob berish ko'nikmasi rivojlanadi.
- Faollikni oshiradi: passiv o'quvchilar ham o'yinlarda ishtirok etishga harakat qiladi, bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
- Ijodiy yondashuvni kuchaytiradi: har bir o'yin o'ziga xos ijodiy elementlarni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga turtki bo'ladi.
- Muloqot va hamkorlik: guruhli o'yinlar orqali o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish va birgalikda yechim topish ko'nikmasini egallaydi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar orqali o'qituvchi har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini kuzatishi, ularning qaysi sohada qiynalayotganini aniqlashi va shu asosda o'z metodikasini takomillashtirishi mumkin. O'yinlar yordamida berilgan topshiriqlar o'quvchilarning darsga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi, bu esa ularning umumiy o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitish jarayoni o'quvchilarning intellektual rivojiga, mantiqiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, didaktik o'yinlardan maqsadga muvofiq foydalanish bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli etadi. O'yinlar vositasida o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishda faolroq ishtirok etadilar, savollarga tez va mustaqil javob berishga harakat qiladilar, bu esa ularning bilimga bo'lgan rag'batini oshiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar:

- dars jarayoniga jonlilik kiritadi;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi;
- dars mazmunining o'quvchilarning yoshi va psixologik holatiga mos holda tushunarli yetkazilishiga imkon yaratadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Ular o'quvchilar orasida o'zaro hurmat, to'g'ri raqobat, halollik, tartiblilik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Guruh bo'lib ishlash orqali esa hamjihatlik va jamoaviy fikrlashga o'rgatiladi.

Shu bois, boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish har bir zamonaviy o'qituvchining metodik yondashuvida bo'lishi lozim. Ushbu uslub orqali o'qituvchi o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularning bilim darajasini to'g'ri baholaydi va ijtimoiy-psixologik rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, o'quvchi matematikani nafaqat o'rganadi, balki uni sevib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abduqodirov A., Yusupova M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi." – T.: "Fan va texnologiya", 2021.
3. Inoyatova Sh., Xodjayeva M. "Matematika o'qitish metodikasi." – T.: TDPU nashriyoti, 2020.
4. To'laganov A. "Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida o'yinli mashg'ulotlar." // "Xalq ta'limi" jurnali, 2022, №1.
5. Zokirova N. "Didaktik o'yinlar orqali o'qitish samaradorligi." // "Boshlang'ich ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal, 2021, №4.
6. Karimova D. "Innovatsion metodlar va didaktik o'yinlar." – T.: O'qituvchi, 2019.
7. <https://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
8. <https://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'lim portali (ilmiy-uslubiy materiallar uchun manba)

YOSHLARNI BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Eshpo'latova Jang'il Eshonqulovna

TerDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Abdisamatova Dildora Sobirovna

TerDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik sharoitida yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion usullar va tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari, shuningdek, milliy va jahon tajribasi asosida yoshlarni intellektual, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar sifatida shakllantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar o'rganilishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, tarbiyalash jarayoni, barkamol shaxs, mustaqil fikrlash, komil shaxs.

Аннотация: В данной статье на основе отечественного и мирового опыта изучаются теоретические и практические аспекты воспитания молодежи как всесторонне развитой личности в условиях независимости, современные подходы, инновационные методы и пути повышения эффективности образования, а также эффективные меры, направленные на формирование молодежи как интеллектуально, физически и духовно зрелой личности.

Ключевые слова: Образование, воспитание, воспитательный процесс, совершенный человек, самостоятельное мышление, совершенный человек.

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of educating young people as well-rounded individuals in conditions of independence, modern approaches, innovative methods and ways to increase the effectiveness of education, as well

as effective measures aimed at shaping young people as intellectually, physically and spiritually mature people based on national and world experience.

Keywords: Education, upbringing, the process of upbringing, a well-rounded person, independent thinking, a perfect person.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning tarbiyasi masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki axborot xurujlari, turli mafkuraviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta'siri tufayli yoshlarning ma'naviyatini mustahkamlash, ularda mustahkam irodani shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yoshlar bilan" tamoyili asosida yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Barkamol shaxs tarbiyasini ta'minlashda oila, maktab, jamiyat, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va innovatsion yondashuvlar orqali yosh avlodning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, tashabbuskorlikka o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlar tarbiyasi masalasida maxalla va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, ota-onalar va o'qituvchilar uchun ushbu mavzuga oid o'quv va ommabop adabiyotlar yaratish ham muhim masalalardan biridir.

Barkamol shaxs tushunchasi insonning jismoniy, ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan yetuk, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, yuksak maqsadlarga intiluvchi shaxs sifatida shakllanishini anglatadi. Bu tushuncha Sharq mutafakkirlari, xususan, Al-Farg'oni, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalarning asarlarida keng yoritilgan. Barkamol shaxs jamiyat taraqqiyotining asosiy negizlaridan biri bo'lib, u insonning har tomonlama rivojlanishi, kasb-hunar egallashi, ma'naviy yetuklikka erishishi, jamiyat manfaatlari yo'lida xizmat qilishini o'z ichiga oladi.

Bunday shaxsning shakllanishida ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda insonning bilimi, ko'nikmalari, hayotga bo'lgan qarashlari shakllanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab beriladigan

tarbiya va bilim inson ruhiyatiga katta ta’sir ko’rsatadi. Barkamol shaxs nafaqat bilimli, balki axloq-odobli, vatanparvar, mehnatsevar bo’lishi lozim. Uning dunyoqarashi keng bo’lishi, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo’lishi, innovatsion fikrlashi, ijodiy qobiliyatga ega bo’lishi muhim sanaladi. Shuningdek, barkamol shaxs tushunchasi insonning ijtimoiy faolligi bilan ham bog’liq. Bunday inson jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, o’z fikrini erkin ifoda qila oladi, yangiliklarga intiladi, zamonaviy texnologiyalarni o’zlashtiradi, ekologik madaniyatga ega bo’ladi. Barkamol shaxsda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik kabi hislatlar yetarlicha shakllangan bo’lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham barkamol shaxs tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. “Yangi O‘zbekiston – yangi hayot” shiori asosida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida fan va texnologiyalar bilan bir qatorda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham yo’lga qo’yilgan bo’lib, bu jarayon yosh avlodning har tomonlama yetuk shaxs bo’lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Barkamol shaxs bo’lish insonning o’z ustida doimiy ishlashi, o’z qobiliyatlarini rivojlantirishi, yangi bilim va ko’nikmalarni egallab borishini talab qiladi. Bunday inson nafaqat o’zining, balki jamiyatning ham kelajagi uchun mas’uliyatni his qiladi, yuksak maqsadlarga erishish yo’lida tinmay izlanadi va o’z atrofida qilargalarga ham o’rnak bo’lishga harakat qiladi. Shu bois, barkamol shaxs tarbiyasi har bir inson, ota-ona, o’qituvchi va jamiyat zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Barkamol shaxs tushunchasi insonning jismoniy, ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan mukammal rivojlanishini anglatadi. Bunday shaxs nafaqat o’zining shaxsiy yutuqlari bilan, balki jamiyatga qo’shayotgan hissasi bilan ham ajralib turadi. Barkamollik insonning bolalik davridan boshlab shakllanadi va butun umri davomida rivojlanib boradi. Shu sababli, ta’lim va tarbiya tizimi insonning har tomonlama yetuk bo’lishiga yo’naltirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg’unligi muhim ahamiyatga ega. Inson o’z xalqining madaniyati, tarixi va urf-odatlarini bilishi bilan birga, boshqa xalqlarning ilg’or tajribalaridan ham xabardor bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Mavlonova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma -T.: "Noshir", 2013.
2. Z.Ismailova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik –T.: TDPU, 2003
3. J.Xasanboev. Pedagogika .Darslik T.: TDPU, 2011
4. B.S.Abdullayeva, M.B.Tursunova, M.X.Xaydarova. Boshlang`ich ta`limda tarbiya fani. Darslik **Toshkent – 2022**

***PAHLAVON MAHMUD VA ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINING
O`XSHASHLIK LARI***

Umarqulova Rushana Ag`zam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Ilmiy raxbar: A.U. Muydinova

ChDPU O`zbekadabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., f.f.b.f.d(PhD)

Annotatsiya: Bu maqolada Umar Xayyomning ham falsafiy, ham ruboiy janridagi ijodi tomonlama izdoshi hisoblangan Pahlavon Mahmud va turkiy adabiyotning zabardast vakillaridan biri bo`lmish Alisher Navoiyning ijod yo`li va ruboiylar ko`lami, ularning o`xshash va farqli jihatlarini ko`rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: ruboiy, falsafa, faylasuf, rivoyat, tarixiy kontekst.

Pahlavon Mahmud XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkir, faylasuf, shoir, pahlavon va etikdo`z hisoblanadi. 1248-yilda Xiva yaqinida tug`ilgan. Ustaxona otasidan meros bo`lib qoladi, ammo Mahmud faqat shu ish bilan shug`ullanib qolmay, kurash tushib ko`plab mamlakatlarga sayohat qiladi. Shuning uchun u «Pahlavon Mahmud» nomi bilan shuhrat topadi. Pahlavon Mahmud haqida ko`plab rivoyatlar saqlanib qolgan. Shulardan biri: «Xorazmshohlar poytaxti Gurganch mo`g`ullar tomonidan vayron qilinganidan keyin, uning aholisi har tomonga tarqalib ketgan. Shu jumladan, Pahlavon Mahmudning onasi ham homilador hoida Xiva atrofiga etib kelib, hozirgi Qiyot qishlog`ida Pahlavon Mahmudni dunyoga keltiradi. Bu bola 15 yoshga etgach mard kurashchi, mashhur pahlavon bo`lib nom chiqargan. U uzoq mamlakatdagi bir podshoni zo`r pahlavonlarini yenggan. Podsho xivalik pahlavonning kuchiga qoyil qolib unga «Senga nima kerak bo`lsa so`ragin» – debdi. Pahlavon Mahmud podshoga: – «Menga bir ho`kizni xomi (terisi)ga siqqan vatandoshlarimni ozod qilib bering», deb javob qilibdi. Podsho rozi bo`libdi va ho`kiz terisini keltirishni buyuribdi. Pahlavon Mahmud teridan ingichka tasmalar qirqib olgan va ularni bir-biriga ulab uzun kamar (qo`ra) qilib shunga siqquncha odamlarni olib Xivaga jo`nagan, u bilan kelgan odamlarni shahar tashqarisidagi Shixlar qishlog`iga joylashtirgan, hozirgi vaqtgacha qishloq aholisini ko`pchiligi bu rivoyat haqiqat, 1920 yilgacha bo`lgan davrda qishloq aholisi Pahlavon Mahmud maqbarasida xizmatda bo`lishgan

deb aytishadi. Mazkur afsona Pahlavon Mahmudning naqadar donishmand, buyuk xalqparvar inson bo'lganini namoyish etadi. Uni zamonasining ilg'or va hur fikrli faylasuf olimi, katta iste'dod va zakovat egasi, shoirlilik mushohadasi jihatidan "Xorazm Xayyomi" deb atashgan. Bu bejiz emas albatta.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevral kuni Xuroson davlatining poytaxti — hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot shahrining Bog'i Davlatxona mavzesida tug'ildi. Otasi G'iyosiddin Muhammad - Temuriylar saroyida xizmat qilgan, o'z davrining nufuzli kishilaridan biri, o'g'lining tarbiyasi va ta'limiga jiddiy e'tibor bergan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi ekani aytiladi. Navoiyning ota-onasi haqida ma'lumotlar kam, u o'z asarlarida ham qarindoshlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tmagan. Navoiyning Darvesh-ali ismli ukasi bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. XV asrning yetuk adabiyotshunos olimlaridan biri bo'lgan Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirot unshuaro" ("Shoirlar tazkirasi")da Navoiyning otasi haqida "Navoiyning otasi Abdulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig'atoy ulusi ulug'laridan edi" deya qisqacha ma'lumot berib o'tgan. Shu bilan birgalikda u G'iyosiddin Muhammadning harbiy bo'lganini ham ta'kidlagan .

Navoiy ijodida – **"Xazoyin ul-ma'oniyy"da she'riy janrlarning 16 ta xili mavjud. Ularning orasida eng barakalilaridan biri ruboiy ekanligini mutaxassislar ko'p marta ta'kidlashgan.**

Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,

Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,

Eng bila menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,

Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi

Navoiy bu to'rtligida yorning ko'zini, qoshini, qovoqlarini maqtaydi, va so'ngida umumiy boshingdan oyog'ingacha yaxshi (g'o'zal) deb yozsa, Pahlavon Mahmud esa:

Gul yog'adi yuzlaringdan subhvor,

Gul yog'adi xulqingdan ham chun bahor,

Lahza sari rangga to'lib bu olam—

Gul yog'adi chehra ochib bu ro'zgor.

Ya'ni yuzing chiroyliligida gular yog'gandek, xulqing ham undan qolishmaydi va bularning natijasida olam ranga kiradi deb ta'kidlaydi. Bu 2 ruboiy yor vasliga bag'ishlanga bo'lib, farqli tomon Navoiy yorning husnini to'g'ridan- to'g'ri tasvirlasa, Mahmud vosiya (gul) orqali tasvirilaydi.

Navoiy va Mahmudning asarlari orasida do'stlik alohida o'rin tutadi.

Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,

Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yoritmangiz.

Gar shah o'lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,

Do'stlik bu umrda eng qimmat, eng aziz bo'lgan nishon.

Yana bir ruboiyda Navoiy do'stlikni sadoqat va vafodorlilik bilan bog'laydi:

Do'stlik — bu qalbning eng sof, eng pok niqobi,

Vafosi bilan jon berar, yurtga, odamga.

Dushman ko'p, do'st esa kam, uni asrang,

Do'stlik — bu hayotning eng ulug' ajri.

Navoiy bu ruboiylarida do'stlikni asrashni, unga teng keladigani yo'qligini. (Do'stlik bu umrda eng qimmat, eng aziz bo'lgan nishon). Do'stlik insonning ichki pokligi, samimiyligi va chin dildan keladigan mehr-muhabbatining ifodasidir. Do'stlik tashqi ko'rinish emas, balki qalbning sof tuyg'ulari bilan bog'liq. Do'stlik hayotdagi eng ulug', eng qadrlil sovg'a, ajr hisoblanadi. U insonning baxti va ruhiy tinchligining manbai.

Do'stlik — bu yurakda yongan olov,

U bilan hayot yanada chiroyli, yorug'.

Sodiq do'st topgan kishi baxtiyor,

U bilan yengilar ko'p, dardlar yengil

Pahlavon Mahmudning bu ruboisida do'stlik qalbda yonib turgan iliq, jonlantiruvchi his, kuchli tuyg'udir. Bu olov insonni iliqlik, mehr-shafqat bilan to'ldiradi, do'stlik hayotni go'zal va yorqin qiladi, do'stlar bilan birga bo'lish hayotdagi qiyinchiliklarni yengillashtiradi, uni mazmunli va zavqli qiladi deb ta'kidlaydi.

Ikkala shoir ham ko'proq ma'naviy, axloqiy, insoniy qadriyatlar, muhabbat, do'stlik, hayotning ma'nosi kabi mavzularni o'z asarlarida ko'tarishgan. Ular asarlarida o'z davrining ijtimoiy, madaniy muammolari, insoniy munosabatlar haqida fikr bildirganlar. Navoiy o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri sifatida keyingi avlodlarga keng ta'sir ko'rsatgan, Pahlavon Mahmud esa ko'proq xalq og'zaki ijodiga yaqin bo'lgan. Alisher Navoiy va Pahlavon Mahmud ijodida umumiy ma'naviy qadriyatlar, tasavvufiy g'oyalar va insoniylik mavzulari o'xshash bo'lsa-da, ularning ijodiy uslubi, mavzularni yoritish yondashuvi va tarixiy konteksti farq qiladi. Navoiy ko'proq falsafiy va ma'naviy she'riyatga e'tibor qaratgan bo'lsa, Pahlavon Mahmud tarixiy va qahramonlik dostonlari bilan ajralib turadi. Har ikkisi o'zbek adabiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynagan buyuk shaxslardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR!

1. "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" — 2018 yil, O'zbekiston
2. "Alisher Navoiy: hayoti, ijodi va merosi" — 2020 yil, Toshkent Muallif: T. Raximov
3. "Alisher Navoiy asarlari va ularning o'rni" — 2019 yil, Toshkent
4. "Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi" — 2017 yil, Toshkent Muallif: M. Karimov
5. "Pahlavon Mahmud va o'zbek mumtoz adabiyoti" — 2016 yil

ПРОБЛЕМА ОСТРЫХ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЙ

Туйчиев Л.Н., Мирхошимов М.Б..

научно-исследовательский институт вирусологии республиканского
специализированного научно-практического медицинского центра эпидемиологии,
микробиологии, инфекционных и паразитарных заболеваний
Ташкент, республика Узбекистан

Актуальность

Острые респираторные вирусные инфекции (ОРВИ) продолжают занимать ведущее место в структуре инфекционной заболеваемости у детей и остаются одной из основных нозологических форм, встречающихся в педиатрической практике. Согласно данным ВОЗ и национальной статистики, более 75% случаев острых инфекционных заболеваний у детей составляют именно ОРВИ. Особую обеспокоенность вызывает рост бактериальных суперинфекций, сопровождающих вирусные респираторные заболевания и способствующих ухудшению клинического течения, увеличению продолжительности госпитализации и летальности. Актуальным направлением современной медицины является изучение циркуляции респираторных вирусов и ассоциированных бактериальных патогенов (*Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *Staphylococcus aureus* и др.), особенно в постпандемических условиях, когда дифференциальная диагностика осложнена перекрытием симптоматики COVID-19 с другими инфекциями.

Цель. Изучить клинико-эпидемиологические особенности течения острых респираторных инфекций неясной этиологии у детей, определить частоту осложнений и оценить диагностическую значимость экспресс-тестирования на антиген SARS-CoV-2 в стационарных условиях.

Материалы и методы

Под наблюдением находилось 70 детей в возрасте от 2 месяцев до 14 лет (средний возраст — $5,2 \pm 3,8$ лет), госпитализированных с диагнозом «ОРВИ неясной этиологии» в городской специализированной инфекционной больнице зангиота 1 в период с 12.01.2024 по 24.05.2024. Дети поступали в первые 1–3 дня от начала заболевания. Всем пациентам при поступлении проводилось экспресс-исследование на антиген SARS-CoV-2 с использованием мазков из носоглотки и ротоглотки.

Клинические данные, анамнез, лабораторные и инструментальные результаты анализировались с использованием методов описательной статистики.

Результаты. Отрицательный результат на антиген SARS-CoV-2 был получен у всех обследованных пациентов. Повышение температуры тела отмечено у 90% (63) больных, у 51% (36) температура превышала 38,5°C. Кашель регистрировался у 84,2% (59), ринорея и катаральные явления — у 92,8% (65) детей. В 27,1% (19) случаев заболевание осложнилось острым бронхитом, у 12,8% (9) развилась пневмония, а у 8,6% (6) пациентов отмечались признаки дыхательной недостаточности I степени. Средняя продолжительность госпитализации составила $7,8 \pm 1,4$ суток.

Выводы. Рутинное использование экспресс-диагностики SARS-CoV-2 у детей с подозрением на ОРВИ в условиях инфекционного стационара позволяет своевременно исключить коронавирусную инфекцию, уточнить этиологическую структуру заболевания, а также рационализировать терапевтическую тактику. Это особенно важно в условиях высокой эпидемиологической настороженности, с целью предотвращения полипрагмазии, избыточного назначения антибиотиков и развития тяжелых осложнений у детей.

RENEWABLE ENERGY SOURCES: THE MAIN PILLAR OF THE GREEN ECONOMY

Baymuradova Zilola Alisherovna

Student of Tashkent State University of Economics

Abstract

In the context of global climate change and increasing environmental degradation, the transition to a green economy has become a strategic priority for many nations. Renewable energy sources—such as solar, wind, hydro, and biomass—play a central role in this transformation. As the backbone of sustainable development, these clean energy alternatives offer a viable solution to reducing greenhouse gas emissions, decreasing dependency on fossil fuels, and fostering economic resilience.

This paper aims to analyze the current status, development trends, and economic impact of renewable energy sources within the framework of the green economy. Using a quantitative research approach, the study evaluates statistical data from 2017 to 2023, focusing on renewable energy investments, production capacity, and policy frameworks, particularly in developing countries with an emphasis on Uzbekistan. The findings indicate that while significant progress has been made, especially in solar and wind sectors, challenges remain in financing, infrastructure, and public awareness.

By highlighting the economic, environmental, and social benefits of renewable energy, the paper advocates for a more integrated and ambitious national strategy to scale up green energy adoption and accelerate the transition to a low-carbon economy.

Keywords: renewable energy, green economy, Uzbekistan, solar power, wind energy, green investment, sustainable development, energy transition, climate policy, CO₂ reduction

Introduction


The growing urgency of environmental challenges such as climate change, air pollution, and natural resource depletion has compelled nations worldwide to rethink their development trajectories. At the heart of this global shift lies the concept of the green economy—an economic system aimed at reducing environmental risks and ecological

scarcities while improving human well-being and social equity. One of the most essential components of a green economy is the use of renewable energy sources.

Renewable energy—comprising solar, wind, hydro, geothermal, and biomass—is increasingly viewed as the cornerstone of sustainable economic development. These energy sources are not only environmentally friendly but also offer long-term cost-efficiency, energy security, and the potential to create new green jobs. According to the International Renewable Energy Agency (IRENA), the share of renewables in global electricity generation reached 30% in 2022, up from 19% in 2010, highlighting a significant global transition.

In Uzbekistan, the strategic importance of renewable energy has grown rapidly in recent years. The government has adopted the Strategy for Transition to a Green Economy for 2019–2030, which outlines ambitious targets for renewable energy capacity, especially in solar and wind sectors. The country aims to generate at least 25% of its electricity from renewable sources by 2030. This target reflects a fundamental policy shift aimed at reducing the nation's dependence on fossil fuels, improving air quality, and increasing energy self-sufficiency.

Figure 1. Growth of renewable energy capacity in Uzbekistan (MW, 2017–2023)



Despite progress, several challenges remain, including underdeveloped infrastructure, financing gaps, and low levels of public awareness. Therefore, a comprehensive analysis of the renewable energy sector's development, economic implications, and future prospects is necessary to guide policy and investment decisions.

This paper aims to:

Analyze the growth trends of renewable energy sources in Uzbekistan;

Evaluate their contribution to green economic development;

Identify barriers and provide strategic policy recommendations.

This research adopts a quantitative approach to assess the role of renewable energy sources in fostering the green economy in Uzbekistan. The methodology is based on statistical analysis of secondary data collected from national and international sources for the period 2017 to 2023.

The study is descriptive and analytical in nature. It involves the collection, processing, and interpretation of time-series data to identify trends, measure growth, and evaluate the economic impact of renewable energy development. Comparative analysis is used to benchmark Uzbekistan's progress against regional and global averages.

The data for this study were obtained from the following reliable sources:

State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (stat.uz)

Ministry of Energy of Uzbekistan

International Renewable Energy Agency (IRENA)

World Bank and UNDP Green Economy Reports

National strategy documents, such as the "Strategy for Transition to a Green Economy (2019–2030)"

All quantitative data were processed using Microsoft Excel for visual representation and trend analysis. Descriptive statistics and correlation analysis were conducted to examine the relationship between renewable energy growth and green economic indicators.

The following indicators were selected to evaluate the development and contribution of renewable energy to the green economy:

Table 1. Key quantitative indicators of renewable energy development in Uzbekistan (2017–2023)

Indicator	Unit	Period
-----------	------	--------

Installed renewable energy capacity	MW	2017–2023
Share of renewables in total energy mix	%	2017–2023
Green investments in renewable energy	Trillion UZS	2017–2023
Jobs created in renewable energy sector	Number of jobs	2018–2023
CO ₂ emissions avoided (estimated)	Million tons	2017–2023

This section presents the quantitative results obtained from the analysis of renewable energy development in Uzbekistan between 2017 and 2023. Key metrics include installed capacity, renewable share in the energy mix, green investments, job creation, and CO₂ emissions avoided. These results are visually supported by charts and a summary table.

Between 2017 and 2023, Uzbekistan witnessed a remarkable increase in its installed renewable energy capacity. Starting from just 50 MW in 2017, the capacity reached 2,500 MW in 2023, driven primarily by large-scale solar and wind energy projects.

Green investments in Uzbekistan's renewable energy sector have also shown strong growth, rising from 1.2 trillion UZS in 2017 to 6.9 trillion UZS in 2023.

The findings from the previous section demonstrate that Uzbekistan has made notable strides in developing its renewable energy sector. The increase in installed capacity from 50 MW in 2017 to 2,500 MW in 2023 indicates a strong political and economic commitment to transitioning toward clean energy. However, when placed in a broader regional or global context, several structural challenges and development gaps become apparent.

Compared to countries with similar economic profiles (e.g., Kazakhstan, Azerbaijan, or Egypt), Uzbekistan's progress is significant but still in its early stages. For instance, Kazakhstan surpassed 3,000 MW of renewable capacity in 2022, supported by strong policy frameworks and international financing mechanisms. Uzbekistan's 12.7% renewable share remains below the global average of 30% and the regional average of approximately 20% in Central Asia.

Despite this gap, Uzbekistan's growth rate is impressive — particularly in solar energy, where the country's high solar irradiance (2,900+ sunshine hours/year) provides an untapped advantage. However, this potential has yet to be fully realized due to limitations in infrastructure and technical expertise.

The steady rise in green investments—from 1.2 to 6.9 trillion UZS—signals not only market confidence but also the availability of multilateral support. Development banks such as the EBRD and the ADB have played pivotal roles in de-risking renewable projects through blended finance models. Furthermore, the creation of over 19,000 jobs in the renewable sector by 2023 shows a promising shift toward green employment.

However, most jobs remain concentrated in construction and installation, with fewer opportunities in innovation, maintenance, or R&D. To fully benefit from the green transition, Uzbekistan must diversify its green job ecosystem.

Despite progress, several obstacles persist:

Financing gaps: Domestic financing tools such as green bonds or green banks are underdeveloped.

Regulatory complexity: Investors face uncertainty due to inconsistent permitting processes and tariff instability.

Grid integration: Existing power infrastructure is not yet equipped to handle large-scale renewable input.

Public awareness: Community-level understanding of renewable energy benefits remains low, affecting adoption and local support.

These issues suggest that the government must adopt a more integrated approach that combines technological advancement with policy reform, capacity-building, and regional cooperation.

Conclusion

This study analyzed the dynamic role of renewable energy sources in supporting the transition to a green economy in Uzbekistan. The findings reveal a consistent upward trend in key indicators such as installed renewable capacity, investment volume, and job creation between 2017 and 2023. The total installed capacity reached 2,500 MW, green investments rose to 6.9 trillion UZS, and over 19,000 jobs were created—highlighting the sector's economic and environmental relevance.

However, despite these gains, Uzbekistan still lags behind global standards in renewable energy integration. Structural barriers—such as financing bottlenecks, outdated grid infrastructure, and regulatory inconsistencies—continue to slow progress. Furthermore, the country's untapped potential in solar and wind energy remains underutilized, primarily due to low technological diffusion and limited private sector involvement.

To ensure a successful and sustainable green transition, Uzbekistan must transform renewable energy from a supportive component into the central pillar of its economic development model.

References

1. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2023). *Renewable Capacity Statistics*. Retrieved from <https://www.irena.org>
2. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2023). *Energy Sector Data*. Retrieved from <https://stat.uz>
3. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. (2022). *Annual Energy Report*. Retrieved from <https://minenergy.uz>
4. World Bank. (2023). *Uzbekistan Country Climate and Development Report*. Retrieved from <https://www.worldbank.org>
5. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Green Energy for Central Asia*. Retrieved from <https://www.uz.undp.org>
6. Global Green Growth Institute (GGGI). (2021). *Green Growth Index for Uzbekistan*. Retrieved from <https://gggi.org>
7. EBRD. (2022). *Green Economy Transition Approach 2021–2025*. Retrieved from <https://www.ebrd.com>
8. President of Uzbekistan. (2019). *Decree No. PF-5863 on the Strategy for Transition to a Green Economy*. Retrieved from <https://lex.uz>
9. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Uzbekistan Renewable Energy Investment Plan*. Retrieved from <https://www.adb.org>
10. International Energy Agency (IEA). (2023). *Global Energy Review*. Retrieved from <https://www.iea.org>

**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
3-TOM, 05-SON (May)

MUNDARIJA

1	PRAGMATIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI VA NASRIY MATNLARNI O'RGANISH IMKONIYATLARI Turdimurodova Avazgul Xolto'ra qizi	5-9
2	TALABALARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN IMMUNITET SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI Barakaeva Nilufar Zubaydulla qizi	10-13
3	ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА Баймирзаева Рузигуль Нурматовна	14-17
4	TA'LIM JARAYONIDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH Aziza Egamnazarova, Dilnovoz Azimova, Islomjon Xabibullayev, Olimjon Yusufaliyev	18-21
5	OILADA SIBLINGLARARO MA'SULIYAT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Nilufar Norimbetova	22-24
6	SURFACE MORPHOLOGY AND ELEMENTAL COMPOSITION OF DGTC+PAF ION EXCHANGER: SEM-EDX ANALYSIS Gulshoda Toirova, Iroda Alikulova, Dilafruz Abduganiyeva	25-26
7	WRITING KO'NIKMASINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULI Ozoda Xazratova, Shohida Toirova	27-29
8	HAR BIR BOLA – MILLAT KELAJAGI: XALQ O'YINLARI YORDAMIDA MA'NAVIY YETUK AVLOD TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA FANI IMKONIYATLARI Rustam Erdonov	30-33
9	QAYTA ISHLANGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH VA LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI Xushvaqt Amanov, Moxibonu Yangiboyeva	34-37
10	BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINI O'RGANISH BOSQICHLARI Hayitova Zilola Maxmudjonovna	38-40

**"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 3, Issue 05, May 2025

11	TEXNIKAVIY VA IQTISODIY YO'NALISHDAGI BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING MATEMATIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHLATLARI R.X.Kendjayev	41-44
12	"INFOTMATIKA VA RAQAMLI TEXNALOGIYALARI" FANIDAN WEB SAHIFAGA RO'YHAT VA JADVAL JOYLASHTIRISH MAVZUSIGA OID WEB DASTURLASHDA RO'YHAT(FORMA) VA JADVALDAN FOYDALANISHNING AMALIY JIHLATLARINI O'RGATISH Movlonov Isfandiyor Muradulla o'g'li	45-56
13	OILADAGI YAKKA FARZANDLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Turgunova Gulru Todjiboyevna	57-59
14	SOCIAL PROBLEMS PRESENTED IN STEPHEN KING'S NOVELS THE DEAD ZONE AND THE GREEN MILE Sharipova Guljahon Saparniyoz kizi, Turaeva Dilfuza Daminovna	60-65
15	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA MOS IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI Islomova Feruza, Baqoyeva Zarina Rayimovna	66-69
16	BULUTLI TEXNALOGIYALAR: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR Annaqulov O'lmasjon Ilhomjonovich, Qarshiyev Samandar Zayniddinovich	70-74
17	O'QUVCHILARNI MA'NAVIY AHLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI SHAKLLARI VA USULLARI Xalbayeva Nasiba Raxmanovna, Ilmiy rahbar: Sabirova Nasiba Ergashevna	75-83
18	THE ROLE OF DIGITAL PEDAGOGY IN DEVELOPING 21st CENTURY SKILLS IN SECONDARY EDUCATION Kadirova Nodira Kamilovna	84-90
19	HALIMA XUDOYBERDIYEVANING "AYOL O'TIB BORAR" SHE'RI TAHLILI Xudoyberdiyeva Durдона Umrzoq qizi	91-94
20	TEXNOLOGIYA VA 3D TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MILLIY KIIYIM YARATISH Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna	95-101
21	TALABALARINING MUSTAQIL TIL O'RGANISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING ROLI Jumatova Nasiba Saburovna	102-104
22	ZULFIYAXONIM ISROILOVA SHE'RLARINING QISQACHA TAHLILI G'ulomova Gulsanam	105-111

23	YOSH FUTBOLCHILARNING FUNKSIONAL ASSIMMETRIYASINI HISOBGA OLGAN HOLDA TO'PNI BOSHQARISH TEXNIKASINI O'RGATISH. Bozorov Elbek Bahodir o'g'li, Shamsiyeva I.Q.	112-114
24	XALQARO MIGRATSIYA STATISTIKASINING IQTISODIY AHAMIYATI VA TAHLILI Mirzayeva Shirin Nodirovna, Sattorova Sevinchbonu Ikrom Qizi	115-122
25	TURMUSH QURISH YOSHIDAGI YIGIT VA QIZLARDA OTA-ONALIK ROLINI ANGLASHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Niyazmetova Munira Ibragimovna	123-129
26	O'SMIR SHAXSINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Turgunova Gulru Todjiboyevna, Ermatova Mahliyo Nurmuxamed qizi	130-133
27	INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI YOSHLARGA O'RGATISH UCHUN FOYDALI TIZIMLAR Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li, Xodjiyeva Zumrad Mahmudjonovna	134-137
28	THE IMPACT ON SOCIAL MEDIA IN HUMAN LIFE Egamova Shahnoza Nuriddin qizi, Sattarova Dildora Ikramboyevna	138-142
29	O'ZBEK TILIDA FITONIMLARNING MORFOLOGIK VA FONETIK XUSUSIYATLARI. Suyunova Kamola Uchqun qizi	143-147
30	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK BILIMLARNI MUSTAHKAMLASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI Axmedov Muslimjon Usmonovich, Isroilova Bibioysha Ikromjon qizi	148-152
31	YOSHLARNI BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH Eshpo'latova Jang'il Eshonqulovna, Abdisamatova Dildora Sobirovna	153-156
32	PAHLAVON MAHMUD VA ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINING O'XSHASHLIKLARI Umarqulova Rushana Ag`zam qizi, A.U. Muydinova	157-160
33	ПРОБЛЕМА ОСТРЫХ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЙ Туйчиев Л.Н., Туйчиев Л.Н., Мирхошимов М.Б..	161-162
34	RENEWABLE ENERGY SOURCES: THE MAIN PILLAR OF THE GREEN ECONOMY Baymuradova Zilola Alisherovna	163-168
	OUTLINE	169-171